

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

AZAMAT URALOV

**MORFOLOGIK SHAKLLARDA
NOMUTANOSIBLIKNING HOSIL BO'LISHI,
KO'RINISHLARI VA XUSUSIYATLARI**

**MONOGRAFIYA
II kitob**

**Toshkent
"INNOVATSIYA ZIYO"
2025**

UDK:811.512.133

KBK:81.633.1

U 29

Uralov Azamat

Morfologik shakllarda nomutanosiblikning hosil bo'lishi, ko'rinishlari va xususiyatlari. Monografiya – Toshkent: “INNOVATSIYA ZIYO”, 2025. – 124 b.

Monografiya morfologik shakllar tizimida nomutanosiblikning ko'rinishlari va xususiyatlari hamda o'zbek tili morfologiyasida murakkab shakllarning hosil bo'lishidagi nomutanosibliklarning tadqiqiga bag'ishlanadi. Tadqiqotda nomutanosiblikning til sathlari bilan aloqadorligi va xususiyatlari, morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlari, affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar o'rganilgan. Shuningdek, sintetik shakllarning hosil bo'lishida nomutanosiblikning yuzaga chiqishi, kengaygan shakllar taraqqiyotidagi nomutanosibliklar, analitik shakllarda nomutanosiblik masalalari yoritilgan.

Mas'ul muharrir:

T. Mirzaqulov,

filologiya fanlari doktori, professor.

Texnik muharrirlar:

A.Nizamov

Taqrizchilar:

A.Pardayev

filologiya fanlari doktori, professor

F.Sharipov

filologiya fanlari doktori, professor

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Kengashining 2025-yil 3-yanvardagi 1-sonli bayonnomasiga asosan nashr etishga ruxsat berilgan

ISBN 978-9910-03434-3

© Uralov Azamat. 2025.

©“INNOVATSIYA ZIYO”, 2025.

Kirish

Asimmetriya – nomutanosiblik atamasi va uning talqinlari, til belgilarida shakl hamda mazmun nomutanosibligi, uning paradigmada semantika va leksikologiya bilan aloqadorligi, til modellari raqobati, morfologik shakllarning hosil bo'lishidagi nomutanosibliklar, agglyutinatsiya va fuziya hodisalari bilan bog'liq bo'lgan nomutanosibliklar, shuningdek, murakkab shakllardagi nomutanosiblik singari masalalar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Dunyo tilshunosligida morfologik birliklarning ma'nosi hamda vazifalarini, ularning shakliy tomonidagi o'zgarishlarni aniqlash tarixiy-an'anaviy, qiyosiy-chog'ishtirish, diaxron va sinxron, sistem-struktur va antropotsentrik aspektdagi tadqiqotlarning markaziy muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

G'oyalar barqarorlashgan hozirgi davr tilshunosligida morfologik birliklarning shakllanishi, tarixiy taraqqiyotidagi o'zgarishlari, tilning morfologiya bo'limidan mustahkam o'rin olishi, morfem qurilish birliklarining, jumladan, sintetik, analitik, kengaygan shakllarning turli oppozitsiyalarda kelishi, shakllarning tejash tamoyillari, nomutanosiblikning ko'p ma'nolilikka, shakldoshlikka, ma'nodoshlikka va ko'p vazifalilikka aloqadorligi tilda barqarorlashish xususiyatlarini tarixiy manbalar matni asosida aniqlash dolzarblik kasb etmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida turli darajadagi tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, bugungi kunga kelib, o'zbek xalqining ijtimoiy hayoti, milliy tilning rivojlanish qonuniyatlari, milliy tafakkur tarzidan kelib chiqib lisoniy birliklarning mavqeyi va maqomi baholanmoqda. Natijada morfologik shakllardagi agglyutinatsiya, fuziya, tejash tamoyillari, morfologik qayta bo'linish va soddalashish, konversiya va transpozitsiya jarayonlarini tahlil qilish orqali til sathlariaro nomutanosibliklarni aniqlash, qolaversa, sintetik, analitik va kengaygan shakllarning hosil bo'lish jarayonlari, tarixiy taraqqiyotini ko'rsatish hamda ular bilan bog'liq nomutanosibliklar, ularning morfem sathdagi o'rnini belgilash, morfologik shakllar tizimidagi nomutanosibliklarni tubdan o'rganish o'zbek tilshunosligidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanmoqda.

Jahon tilshunosligida morfologik shakllar, ularda yuz beradigan nomutanosibliklarni o'rganishga oid muammolar doirasida, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlar ilgari surilmoqda: morfologik obyektlarni xuddi sintaktik va fonologik obyektlar kabi grammatikaning muntazam obyektiga aylantirish; morfologik munosabatlarning asimmetrik xususiyati til xususiyatining bir qismi ekanligini asoslash; morfologik birliklarda nomutanosib holatlarni, shuningdek, ularning sintaksisda o'rinlashuvi so'z tuzilishidagi asimmetriyaning markaziy (yadro)ligini tasdiqlovchi qo'shimcha dalillar topish; fe'l tarkibidagi prefikslarning asimmetriyasi hamda murakkab sintetik iboralardan analitik iboralarga o'tishi haqidagi nazariy fikrlarni asoslash; tillarda birlamchi elementlar tushunchalari va ularning nominatsiyalari tuzilishidagi asimmetriyaga baho berish; shaklning ma'noga, so'zning fonomorfematik tarkibi, semantik, morfotaxlit unsurlarga, interfiks va interfiksatsiya jarayonlari hamda morfem-morfologik "frazologiya"ga munosabatini belgilash.

Jahon tilshunosligida nomutanosiblik masalasi Skiullo Anna Marie Dilar, N.D. Turaliyeva, E.A.Voronsova, O.G. Palutina tadqiqotlarida, Stefan Anderson, Naom Chomskiy, Karlos Arregi, S.Karsevskiy, Anna Mariya Di Skiullo tahriri ostida Kembrij universiteti professorlari tomonidan yozilgan "Grammatikada asimmetriya: 2-jild: Morfologiya, fonologiya, akustika"¹ nomli ilmiy to'plamda o'rganilgan.

Turkiy va o'zbek tilshunosligida bu borada akademik A.N.Kononov, N.A.Baskakov, E.V.Sevortyan, A.G'.G'ulomov, S.Usmonov, G'.Abdurahmonov, I.Qo'chqortoyev, A.Hojiyev, A.Nurmonov, A.Berdialiyev, A.Abduazizov, Y.Tojiyev, S.Karimov, N.Mahmudov, T.Mirzaqulov, R.Sayfullayeva, N.Mahkamov, J.Eltazarov, B.Mengliyev, M.Jo'raboyeva, F.Sharipov kabi olimlarning ishlarida mavzu bilan bog'liq holda turli tarixiy jarayonlar ko'rib chiqilgan.

O'zbek tilshunosligida A.Berdialiyevning "O'zbek tilida so'z yasovchi qo'shma affikslar", T.Mirzaqulovning "O'zbek tilida shakl yasovchi qo'shma affikslar" nomzodlik dissertatsiyalarida qo'shma affikslar masalasi ko'rib chiqilgan. Til birliklarini modellashtirish

¹ Linguistik Aktuell / Linguistics Today. – Monreal: John Benjamins Publishing Company, 2003. –P. 316.

T.V. Buligina, umumiylik va xususiylik dialektikasi D.Nabiyeva kabi olimlarning ishlarida kuzatilsa, qo'shimchalarning paydo bo'lishi va shakllanishi haqida esa G.I.Ramstedt, V.L.Kotvich, Muharrem Ergin va Vejihe Xatib o'g'li, A.N.Kononov singari olimlarning ishlarida qimmatli ma'lumotlar berilgan. A.Berdialiyev tomonidan yaratilgan maxsus monografik tadqiqotda so'z tarkibida shakl va ma'no nomutanosibliği masalasi yuzasidan diqqatga sazovor manbalar berilgan. Y.Tojiyevning affiksial sinonimiya, so'z tarkibidagi tarixiy o'zgarishlar, M.Jo'raboyevaning affiksial omonimiya, N.Mahkamovning affiksial pleonazm, N.Qodirovaning affikslarda polifunksionallik, D.Ganiyevaning fe'lning vazifa shakllarida sinkretiklik va polifunksionallik, M.Usmonovanning o'zbek tilida soddalanish, J.Eltazarovning so'z turkumlarining o'zaro aloqasi va ko'chishi bo'yicha tadqiqotlarida bu masalalar atroflicha yoritilgan. O'zbek tilshunosligida qo'shma affikslarga shaklan o'xshash, lekin ma'no-mazmun jihatidan ulardan farqli belgilarga ega bo'lgan formantlar hamda kengaygan shakllar haqida tadqiqot ishimizda qayd etilgan. O'zbek tili morfologik shakllar tizimidagi kengaygan, analitik va sintetik shakllarda nomutanosibliklar, morfologik shakllarda tejash tamoyili bilan bo'g'liq nomutanosibliklar singari masalalar maxsus tadqiq etilmagan muammolardan biridir. Monografiya mana shu jihatdan turkiy hamda o'zbek tilshunosligida morfologiya va morfemika sohalarida bajarilgan tadqiqotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Professor N.M.Mahmudovning "O'zbek tili sodda gaplarida semantik-sintaktik asimmetriya" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi nafaqat o'zbek tilshunosligi, balki turkiy tilshunoslikda ham nomutanosibliklar borasida muhim tadqiqot bo'lganligini alohida qayd etish zarur. Bu ishda mavzuga aloqador nazariy masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida morfologik shakllar tizimida dualizm, konversiya, transpozitsiya, morfologik birliklarda tejash tamoyili, morfologik birliklarning paydo bo'lishi, ko'p vazifalilik, shakl va ma'no munosabati, sintetik, analitik, kengaygan shakllardagi nomutanosiblik masalalari yuqoridagi manbalarda bayon etilgan bo'lsa-da, alohida tadqiqot mavzusi sifatida bugungacha to'liq ko'rib chiqilmagan.

I BOB. MORFOLOGIK SHAKLLAR NOMUTANOSIBLIGINING KO'RINISHLARI VA XUSUSIYATLARI

1.1-§. Nomutanosiblikning til sathlari bilan aloqadorligi va xususiyatlari

O'zbek tilida morfologik shakllar nomutanosibligining tilshunoslik bo'limlari va til sathlari bilan aloqadorligi har doim kuzatiladi. Chunki har bir tilda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham har bir sath boshqa bir sath yoki tilshunoslikning bo'limlariga aloqador tarzda ifodalanadi, o'rganiladi. Leksikologiyaning morfologiyaga, sintaksisga aloqasi bo'lgani singari, morfologiyaning ham so'z tarkibiga ko'ra morfemikaga, asos va yasovchilar bilan yonma-yon tarzda so'z yasashiga, so'zlarning ma'nolari bo'yicha leksikologiyaga, semasiologiyaga, grammatik ma'nolarning ifodalanishiga ko'ra sintaksisga har doim aloqasi mavjud. Bu aloqalar o'ziga xos xususiyatlarda namoyon bo'ladi. Biz bo'lim yuzasidan nomutanosiblikning tilning boshqa sathlariga aloqadorligini tekshirib ko'rmochimiz.

Nomutanosiblikning morfemika bilan aloqasi. Morfemalar xususida so'z borganda ularning sinxron hamda diaxron tomonlarini aralashtirib yuborilmaslik kerak. Tilda sodir bo'layotgan o'zgarishlar so'zning tarkibiga ham o'z ta'sirini, albatta, o'tkazadi, natijada, u ham asta-sekin o'zgarib boradi. Bunday o'zgarishlar bir qarashda sezilmaydi, faqat kuzatishlar jarayonida aniqlanadi. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, so'z tarkibi uch (ayrim manbalarda ikki) yo'l bilan o'zgaradi. Bular: "soddalashuv, qayta tuzilish, murakkablashuv"¹ yoki "soddalashuv, qayta bo'linish, murakkablashuv"² deb nomlanadi.

So'z tarkibi haqida fikr yuritganda asos va qo'shimchalarni ajratishning o'zi kamlik qiladi, ularning kelib chiqishi, o'zgarishi, qotib qolishi, singishi, qayta bo'linishi, bo'linish chegarasi, qo'shilishi yoki ajralishi kabi holatlarni nazarda tutish kerak bo'ladi. So'z tarkibida o'zgarish sodir bo'lar ekan, albatta, bu o'zgarish avvalgisiga nisbatan nomutanosibdir. Bu haqda

¹ Yo'ldoshev I., Sharipova O'. Tilshunoslik asoslari, –Toshkent, 2007. –B.135.

² Содиқов А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. –Тошкент, 1981. –Б. 129.

A.G'ulomovning "O'zbek tili qo'shimchalari tizimida yondosh hodisalar"¹ asarida batafsil ma'lumot berilgan.

Mening, sening olmoshlari tarkibidagi kelishik shakli (*men+ning, sen+ning*) qo'shilishi bilan asos tarkibida o'zgarish sodir bo'lmoqda. Binobarin, *men va sen* shaklidagi *-n* fonemasi kelishik shaklining tarkibiga o'tib ketgan. Yoki *men, sen* morfemalariga qaratqich kelishigi affiksi *-ning* birligining *-ing* varianti qo'shilgan bo'lishi aniqroqdir. Chunki uning *-im* varianti ham bor (*manim* kabi) (Buni yuqorida tejash tamoyili va nomutanosiblikni yuzaga chiqishi xususida yozganimizda batavsil qayd etganmiz).

"So'z morfologik strukturasi dastlabki bo'linish chegarasining o'zgarishi: *uniki* so'zi aslida *u(l)* olmoshi, *-ing* qaratqich kelishigi ko'rsatkichi va tegishlilikni ifodalovchi *-ki* affiksidan iborat bo'lgan. Hozirda esa u ikki komponentdan iborat: *u+-niki*"². Aslida, *ulning* qisqargan shakli hisoblanadi. Bu holat olmoshga nisbatan ham, qaratqich shakliga nisbatan ham nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda. Chunki asos va qaratqich shaklining tarkibida o'zgarish sodir bo'lib, asl mohiyatini saqlagan holda (maxsus tekshirish orqali tiklash mumkin) tashqi tomondan qisqarishga uchragan.


Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bunday birliklarning tarkibi hozir o'zlarining lug'aviy ma'nolarini yo'qotgan. Endi ularni shu so'zlar tarkibi nuqtayi nazaridan lug'aviy qiymatga ega morfema deb bo'lmaydi, chunki so'zlar tarkibida soddalashish yuz bergan. Bunday shakllarning hosil bo'lish jarayoni til taraqqiyotidagi murakkablashuv, qayta bo'linish, soddalashuv singari omillar ta'sirida yuzaga keladi va ular morfem birliklar doirasida o'ziga xos o'rin egallaydi va turli xilda nomutanosibliklarni ko'rsatadi.

Nomutanosiblikning leksikologiya va so'z yasalihi bilan aloqadorligi. Nomutanosiblikning leksikologiya va so'z yasalihi bo'limlari hamda sathlari bilan aloqador bo'lgan xususiyatlaridan biri shaklga nisbatan nomutanosiblikdir. Shaklga nisbatan nomutanosiblik har bir sohada, fanda mavjud. Uning borligi,

¹ Гулямов А. Г. О сопутствующих явлениях при аффиксации в узбекском языке /1 Научные труды ТашГУ, вып. –Ташкент, 1963. –С. 211.

² Ҳожиёв А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. –Тошкент, 1985. –Б. 57.


ma'lum shakldagina ifodalanadi. Shaklga yuklangan mazmun uning turli belgilarini ko'rsatadi. Bizningcha, nomutanosiblik dastlab shaklda paydo bo'ladi, keyin esa mazmunda rivojlanadi. Leksik sath jihatdan nomutanosiblikni turli xil ko'rinishlarda ifodalash mumkin. Leksik jihatdan so'zlar shakl va mazmun munosabatida turli ko'rinishlarga ega. Jumladan, yasama so'zlarda ham. Shakl jihatidan nomutanosiblikka ega bo'lish ma'lum bir shaklda namoyon bo'ladi. Bu holat leksemalarda ham so'z va shakl yasovchi morfemalarda ham namoyon bo'ladi (3.1-rasm).




1.1-rasm. Nomutanosiblikning leksema, so'z va shakl yasovchi morfemalarda ifodalanishi.

Ma'noga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Ongda anglangan ma'noning turli variantlari, bunda tushuncha ongda boshqa ma'nolar bilan boyiydi: *idrok, fikr, tafakkur*; *-siz, no-, be-*; *-moq, -ish, -uv*. Bu ma'nolarning ko'rinish (vizual) jhati hamda tushunish (virtual) jihatidan ham taqsimlash mumkin:


– yozuvdagi belgining ongda turli ma'nolar bilan gavdalanishi:



– tasavvurdagi tushunchaning boyib borishi:



tilshunoslikdagi bir terminning ma'no ifodalash xususiyati yoki shu termin anglatayotgan ma'no qamrovidagi tushunish, sema maydonining ongda gavdalanishi:



V

azifaga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunda bir tushuncha mavjud bo'ladi va tushuncha doirasida boshqa tushunchalar shakllanadi. Anglash maydoni (aurasi) bir shaklning vazifasiga qarab belgilanadi:

- chizish* – daftarga ruchka yordamida yozish;
- chizish:*
- qalam bilan varaqqa rasm chizish;
- chizish:*
- qo'shnilar bilan chegarani belgilash;
- chizish:*
- xayolda sog'inch obrazini *chizish:* yaratish;
- quyoning rasmini *chizish qochish...*
- (ibora):


Vazifasiga nisbatan nomutanosiblik holati ongning o'zidagini emas, bir shakl doirasidagi tasavvurlarni ham shakllantiradi: *qora mol* – *sigir, buqa, ho'kiz, tana, buzoq...* (bu tushunchalar jinslar o'rtasigagi tafovutni ham shakllantirishi mumkin: *sigir, qochar; ho'kiz, buqa*). Bu birliklar tashqi tomondan turli shakllar hisoblansa-da, mazmun tomoni umumlashib ketadi yoki aksincha bo'lishi mumkin. Biz *buqa* yoki *sigir* haqida gapirsak ham, ongda *qora mol* haqida tafakkur yuritilaveriladi, binobarin, bu so'zlarni tushunishda boshqa hayvon yoki mavjudot haqida tasavvur qilib bo'lmaydi (*buqa, sigir* deganimizda, *echki* yoki *chigirtka* haqida tasavvur bo'lmaydi).

Vaziyatga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Fikr yoki tushunchani ayni vaziyatga qarab anglash, tushunish nazarda tutiladi. Ya'ni bir belgi ayni vaziyatda boshqa ma'no ifodalaydi. Bu holat ma'no ko'chishida yaqqol seziladi: *asal – asal bola, shirin asal; -cha – yigitcha* (qanday?) *yigitcha* (kim?); *borasan – borasan-a borasan*, vaziyatga qarab inkor ma'nosida ham qo'llanadi (*bormaysan* mazmunida). Tasdiq shakli orqali inkor mazmunini hosil qilinishidagi nomutanosiblik yuzaga chiqmoqda.

Shuningdek, vazifaga nisbatan ishlatilgan *qora mol* tushunchasi vaziyatga nisbatan ham nomutanosib bo'lishi kuzatiladi. Bu yerda qora mol tipidagi yana boshqa tushunchalar borki, buni nutq momentida anglash mumkin, bunda so'zning vazifasi o'zgaradi: qora mollar – taqiqlangan ashyo, sigir – (og'zaki nutqda) qizlar uchun “saxiy yigit”, buqa – (og'zaki nutqda) jismoniy baquvvat yigit. Demak, anglashilmoqdaki, asli “hayvon” ma'nosini beruvchi bu so'zlar nutq vaziyatida boshqa ma'nolarda ham ishlatiladi va o'sha vaziyatga nisbatan asl so'z nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Mavhumlikka (noaniqlikka) nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunda tushuncha tushunarsiz bo'ladi. Lisonda ma'no ifodalamasligi mumkin, sababi bu shakl haqida tafakkurda hech bir ma'no ifodalanmaydi. Mavhumlikka nisbatan nomutanosiblikni tildagi ko'makchilar va bog'lovchilar yuzaga keltiradi. Shuningdek, yangi paydo bo'lgan leksik yoki sintaktik shakllar (so'zlar) dastlabki tushunish vaqtiga nisbatan ham nomutanosib bo'ladi. Ma'no anglab yetilgunicha ongdagi mavhumlik, tushunmaslik holati bilan bog'liq bo'ladi: *kovid* – korona virus (garchi fanda ma'lum bo'lsa-da, 2019-yilgacha insonlar jamoasi uchun noaniq tushuncha bo'lgan); *bilan, va, uchun* – ma'nolari mavhum.

Belgilarga nisbatan nomutanosiblik xususiyati. Bunday nomutanosiblik turli belgilarga nisbatan shakllanadi. Nomutanosiblikning bunday xususiyati grafika bo'limiga ham aloqador bo'lib, mavjud belgilarning ekvivalenti paydo bo'ladi va bu ikkinchi variant ham aynan bir ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Turli yozuvlar doirasida boshqa belgilar bilan ifodalanadi (3.2-rasm).



3.2-rasm. Nomutanosiblikning harflar doirasida ifodalanishi.

Bunda uchta belgi bir mazmunga xizmat qilmoqda, faqat ular turli alifbolarda qayd etilgan. Yoki aksincha, bir alifboda ikki xil belgi bir mazmun uchun xizmat qimoqda (bosh harf – kichik harf).

Shuningdek, turli shakllar doirasida ham bo'lishi mumkin. Bunda shaklning hajmlar o'rtasidagi qiyosi ongda katta yoki kichik sifatida reallashadi: *uchburchak* (figura – uchta burchagi bor shakl: turli tomonli, teng tononli, teng burchakli, to'g'ri burchakli, o'tkir burchakli, o'tmas burchakli).

Belgilarga nisbatan nomutanosiblik bir tilning o'zida seziladi. Fanlar o'rtasida ham bo'lishi mumkin. Aytaylik, ona tilida *bir* so'zi matematikadagi 1 raqamiga mos, bunda ikki xil belgining bir mazmunga mutanosibligi ko'rinsa (shaklga nisbatan nomutanosib), leksema sifatida ona tili, geometriya, kimyo, biologiya fanlari uchun umumiy bo'lgan *inversiya* so'zi turli ma'nolar ifodalab keladi: **Inversiya** – (ona tilida) gap bo'laklarining o'zgargan tartibi; (geometriyada) tekislik almashtirishlaridan biri; (kimyoda) siklik molekula konformatsiyasining o'zgarishi, natijada o'rinbosarning halqaga nisbatan joylashishi o'zgaradi; (biologiyada) xromosomalarning qayta qurilishi (mutatsiya) tiplaridan biri; xromosomaning ikki nuqtasidan birdaniga uzilishi va uning segmentining ichki tomonga 180° ga burilishi (invertatsiya) tufayli kelib chiqadi¹. Bu holat shakl va mazmun jihatdan, bir shaklga mos tarzda turli ma'no ifodalamoqda. Natijada fanlararo nomutanosiblikni keltirib chiqarmoqda.

Nomutanosiblikning sintaksis va sintaktika bilan aloqadorligi. Tilshunoslikda sintaktika sintaksisga aloqador bo'lgan ma'lum qoidalar asosida, turli shakllar kompozitsiyasi (kombinatsiyasi)ni o'rganadi. Sintaktikada mantiqiy bog'lanish, grammatik tuzilish,

¹ [https://uz.wikipedia.org/wiki/Inversiya_\(ma%CA%BCnolari\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Inversiya_(ma%CA%BCnolari))

ohang tugalligi juda muhim xususiyatdir. Nomutanosiblikning sintaktika va sintaksis bilan aloqadorligi ko'p jihatdan mantiqqa bog'liq. Sintaktikadan paydo bo'ladigan mantiqiylik ham sintaksisning talabida ro'yobga chiqadi va ular chambarchas bog'liq bo'ladi. Ch.U.Morrisning ko'rsatishicha, mantiqiy sintaksisning ahamiyati katta bo'lishiga qaramay, uni sintaktikaga tenglashtirish mumkin emas¹. Nazariy ma'lumotlarda mantiqiy sintaksis tushunchasi sintaktik tuzilmani o'rganish doirasini faqatgina fanda ustun bo'lgan ramziy birikmalarning ayrim turi bilan chegaralashi va boshqa lingvistik tuzilmalarga ta'sir qilmasligi nazarda tutiladi. Rasmiy uslubda buyruqlar, badiiy uslubda she'r misralari bunga misol bo'la oladi. Ma'lumotning sintaktik shakllanishi lisoniy omil sifatida semantikaga bog'liq:

*Erib bitdi poyonsiz qorlar,
yana ko'hna zamin tulladi.
Vodiydagi ulkan o'riklar
bir kechada oppoq gulladi².*

“Erib bitdi poyonsiz qorlar” gapini “Poyonsiz qorlar erib bitdi”, desa ham bo'lar edi. Bu yerda sintaktika sintaksis talabi bilan emas, badiiyat talabi bilan ish ko'rmoqda. Shu sababli shakllar o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelayotgan bo'lsa-da, mazmun o'z mavqeyini saqlab qolgan.

Nomutanosiblikning sintaktika va semantika bilan aloqadorligi masalasida professor N.Mahmudovning fikrini keltirish o'rinli bo'ladi. Uning yozishicha, “Semantik-sintaktik asimmetriya biz tomondan bir nechta takliflarning sintaktik sodda tuzilishidagi ifoda va natijada sintaktik va semantik tuzilmalar orasidagi simmetriyaning buzilishi sifatida talqin qilinadi. Shuni ta'kidlash joizki, tilda semantik-sintaktik asimmetriyaning paydo bo'lishi tilning ikki doimiy tendensiyasi – lingvistik vositalarning ortiqcha va tejamkorligining u yoki bu shaklda namoyon bo'lishining natijasidir”³. Bu esa har qanday lingvistik birlik u xoh katta yoki kichik bo'lsin, ularning boshqa shakllarda paydo bo'lishi nomutanosibliklarni keltirib chiqaraveradi. Bu holat xuddi

¹ Моррис Ч.У. Основания теории знаков // Семиотика. / Под ред. Ю.С. Степанова. –М., 1983, –С. 37-89.

² Шавкат Раҳмон. Шеърлар. –Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2016. –Б. 4.

³ Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1984. –С. 15-16.

morfologik shakllar orasidagi istak mayli “-ay”ni -ayin shaklida ham qo‘llaganimiz kabi: *boray – borayin*.

Nomutanosiblikning semantika va semiotika bilan aloqadorligi. Semantikani til yoki uning biron bir birligi orqali ifodalanadigan butun mazmun, ma‘no, axborot¹ sifatida talqin qiladigan bo‘lsak, ayrim so‘zlar tarkibi bo‘linmas holatga kelib qoladi. Natijada so‘z anglatayotgan mazmun tashqi tomondan qismlarga ajraladigandek ko‘rinadi: *maymunjon* (o‘simlik), *olmaxon* (hayvon). *Maymun-jon*, *olma-xon* kabi ajratib tahlil qilish nomutanosib bo‘lib, semantik jihatdan ham, morfologik jihatdan ham to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki tashqi tomondan erkalash shakliga o‘xshaydigan *-jon*, *-xon* qismlari va *maymun*, *olma* singari so‘zlari mavjudligi sezilsa-da, *maymunjon* va *olmaxon* so‘zlarini maymun va olmaga aloqasi yo‘q. Bu semantik jihatdan nomutanosib bo‘lib qoladi.

Agar sintaktikada iboralarni shakllantirish va o‘zgartirish qoidalari mavjud bo‘lsa, semantika bu belgi qanday sharoitda obyektga yoki vaziyatga mos kelishini aniqlaydigan semantik qoidalar, bunday qoidalar bu belgilar qila oladigan belgilar va holatlar o‘rtasida moslikni o‘rnatadi. “Belgida semantik qoidada ko‘rsatilgan shartlarga mos keladigan hamma narsa uchun belgi bo‘lishi mumkin, qoidaning o‘zi esa belgilash shartlarini bildiradi va shu bilan denotatsiyalar sinfini yoki turini belgilaydi”². Aytish mumkinki, belgining sema o‘lchovi bor ekan, uni ma‘lum bir sharoitlarda muayyan holatlarda qo‘llanishini yoki ifodalanishini aniqlaydigan semantik qoidalar mavjud bo‘ladi.

Yurish, o‘ynash so‘zlarining ham otlashish asosida hosil bo‘lgan ma‘nolari (garchi *yur+ish*, *o‘yna+sh* tartibida morfologik shakllardan hosil bo‘lgan bo‘lsa-da) semantik jihatdan yaxlilashgan (frazeologiyalashuv). Endi ular bildiradigan yangi mazmun asl mazmunga nisbatan nomutanosib bo‘lib qoldi: *o‘ynash* – o‘yin-kulgi qilmoq, *o‘ynash* – sevishib yurmoq; *yurmoq* – harakatlanmoq, *yurmoq* – sevishmoq, *o‘ynashmoq*. “Binobarin, semantikaning o‘rganish obyekti ham, asosan, to‘liq, mustaqil ma‘noli so‘zlar va gaplarning ma‘nolar tizimidir”³. Shunday ekan,

¹ Mirtojdiyev M. Semasiologiya. –Toshkent, 2016. I bob, –B. 10-76; Mirtojdiyev M. Gap bo‘laklarida semantik-sintaktik nomutanosiblik. –Toshkent, 2008. –B. 7-194.

² Morris Ch.W. Foundation of the Theory of Signs. – Chicago: Chicago University Press. 1938/1970; Ch.V. Моррис. Основания теории знаков. // Семиотика. / Под ред. Ю.С. Степанова. –М., 1983, –С. 37-89.

³ <https://qomus.info/oz/yencyclopedia/s/semantika/>

shakllarning semantik o'zgarishi mustaqil ma'noli so'zlar sifatida qaralishini anglash mumkin. Semantika belgilar o'rtasidagi munosabatlar hamda ular nimani anglatishini ifodalasa, *o'yna+sh* va *yur+ish* kabi morfologik shakllarning so'zlar tarkibida o'rinlashib qolib, yangi mazmun uchun xizmat qilishi nomutanosiblikning semantika bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda Y.Lotman fikrini keltirish ham o'rinli. Uning fikricha, "Har qanday alohida til, xuddi semiotik makonga singib ketgan va faqat shu bo'shliq bilan o'zaro aloqada bo'lsagina, u ishlay oladi va sema birligini alohida til deb hisoblash kerak emas, lekin ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan butun semiotik makon hisoblanadi"¹. Demak, til birliklari nutq jarayonida mutloq erkin harakatlanadi va bu harakatlanish alohidalik belgisi emas, chunki har qanday til birligi muloqot jarayonida erkin bo'lsa-da, til qonuniyatlaridan chetga chiqib ketolmaydi (okkazional qo'llanishlar mustasno). Shu sababli bunday til birliklar ma'lum semiotik maydonda ishlayveradi. Kishilar ana shu birliklarni ma'lum bir anglash maydonda ishlatadi va tushunadi. Lisonda mavjud bo'lgan tushunchani semiotik jihatdan sintaktika hamda pragmatikadan uzib olib anglash bir tomonlama qarash hisoblanadi. Bunday qarashning o'ziyoq boshqa bir nomutanosiblikni keltirib chiqarishi mumkin. Aslida biz ko'plik shakli deb belgilaydigan *-lar* affiksining mazmuni sintaksisning sintagmalarida boshqa mazmunlar kashf etadi. *Boshlar* so'zi ikki mazmunga xizmat qilib (*boshla+r – bosh+lar*), semantik maydonda bir shakl bilan ifodalanishi nomutanosib hol bo'lsa, *boshlarim og'rib ketdi* sintagmasida semantik maydonda uchinchi ma'noni shakllantiradi: kuchaytiruv ma'nosida. Shu sababli ham yangi semalarning yuzaga chiqishi semantika va semiotikaga bog'liqdir.

Odatda sintaktik birliklar qismlarni tartibga solish uchun ishlatiladi va o'rganilish jarayonida shaklning o'zgarishi semaning o'zgarishiga ham olib keladi. Bu esa semantik maydonning ko'lamini oshiradi. Sintaksis, birinchi navbatda, ma'noning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni tashkil qilish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi navbatda, semantika unga berilgan haqiqiy

¹ Лотман Ю.М. Семиосфера. – СПб.; 2001. –С. 250-268.; Лотман Ю.М. Семиотическое пространство. / Я иду на занятия... Семиотика. Хрестоматия. –М.: Изд-во Ипполитова, 2005. –С. 289-296.

qiymatlarni tahlil qilish bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Sintaktik birlikning qiymati uning semasi doirasida ro'yobga chiqadi. Semantik birlik ayni damda morfologiyaning obykti sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Chunki birgina morfem shaklning o'ziyoq gap mazmuniga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. *Bu ishlar qachon bitadi, hokimjon?* Gapida *-jon* affiksoidining o'rni, sema maydoni o'zgarmoqda, *-jon* bu yerda erkalash emas, piching semasiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, bu semani *-jon* shaklisiz ifodalash qiyin.

R.Villiams tildagi barcha birliklar ichida eng qiyinini alohida ta'kidlab, "Obyektlarning ma'nosi semantik komponent bilan bog'liq emas, balki til subyektlarining ongsiz va jamoaviy bog'liq ma'nosida ramziy komponent bilan bog'liqligini, bu yerda ma'no mohiyatning har qanday ichki sifatidan ustun turadi va mohiyat, ramz sifatida harakat qilib, boshqa bir komponentdan olinmaydigan javoblarni, emotsional javoblarni chiqaradi"¹, deb qaraydi. Bunda bir shaklning mazmun ifodalash holatini boshqa bir shaklga bog'liq holda sema maydonidan chiqarmaslikka urinadi. Bu qarash o'ta falsafiy qarash hisoblanib, boshqa fanlarga ham aloqasi ko'rsatilgan.

Bahorda o'rik, nok, gilos gulladilar. Gapda g'alizni keltirib chiqarayotgan jihat ko'plik shaklidir. Ammo biz u yerda ko'plab daraxtlar haqida gapiryapmiz. Gullagan daraxtlar miqdori ko'p bo'lishiga qaramay, sema uchun xizmat qilmaydi. Aslida bu gapda ko'plikka ehtiyoj yo'q. Ehtiyoj bo'lgan taqdirda ham pragmatik nuqtayi nazardan *gilos* so'ziga qo'shilishi lozim. Chunki harakat barchasiga tegishli bo'lsa-da, ko'plik shakli mevalarga nisbatan kelmoqda: *Bahorda o'rik, nok, gilolar gulladi.* Masalani yana bir gap misolida xulosalasak. *Bahorda Anvar, Salim, Otabek(lar) o'yna(sh)di(lar).* Gapda ajratib ko'rsatilgan ikkita ko'plik va bitta birgalik nisbat shakli bor. Vaholangki, bu shakllarsiz ham gapning semantik qiymati o'zgarmaydi. Bu yerda birinchi ko'plik umumlashtirish uchun, nisbat shakli esa birgalikda ekanligini ta'kidlash uchun, ikkinchi ko'plik esa nol shakldagi shaxs-sonni kuchaytirish, alohida ko'rsatish maqsadida qo'llanmoqda.

¹ Williams R. Natural Structure: Toward a Form Language. – Yeudaemon Press, 1972. –P. 263.

Keltirilgan misollarning semantik maydonidan aniq bo'ladiki, nomutanosiblik shaklda ham mazmunda ham ifodalanadi.

“Semiotika uchta asosiy sohaga bo'linadi: sintaktik, semantik va pragmatik. Har qanday til semiotik tizim sifatida uch o'lchovli makonda ishlaydi va rivojlanadi, ravnaq topadi. Sintaktika turli belgilar orasidagi rasmiy yoki tizimli munosabatlarni o'rganish bilan shug'ullanadigan soha”¹. Semantika belgilar va ularning ma'nolari o'rtasidagi munosabatlar sohasini qamrab oladi, pragmatika esa belgilar va ulardan foydalanadiganlar o'rtasidagi munosabatlar sohasini qamrab oladi. Shu bois har qanday shaklning semiotikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Hozirgi davrda “sintaktika, semantika pragmatika sath munosabatida kognitiv yondashuv tufayli yangi bog'lanish va aloqadorliklar yuzaga keldi”². Bir birlikning tushunish holatining vaziyatga ko'ra shakllanishi nazarda tutilar ekan, o'rganilish uchun olingan obyekt sintaktika, semantika, pragmatika munosabatidagi nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Bu jarayonda semantika muhim xususiyatga ega. *Yurdim* fe'li tashqi tomondan shaxsning harakatlanishini ifodalaydi. Shaxmatda *piyodani yurdim* sintagmasida harakatlanish sezilmaydi, aksincha, harakatlantirish semasi mavjud. Demak, vaziyatga ko'ra sema maydonining o'zgarishi nomutanosiblikni ko'rsatmoqda.

Gapdagi obyektiv mazmun – borliqdagi muayyan voqea, hodisa, vaziyatning aks etishi jarayoniga nisbatan “propozitsiya” atamasining muvofiq kelishini belgilab, prof. N.M.Mahmudov, “Agar gap strukturasi ikki va undan ortiq propozitsiya ifodalansa, o'z-o'zidan, gapda sintaktik strukturalarning mutanosibligi yo'qolib, gapda nomutanosiblik yuzaga keladi. Bu til vositalarini tejash (ekonomiya) tamoyili tufayli paydo bo'ladigan qonuniy hodisalardir. Semantik-sintaktik asimmetriya kuchli va kuchsiz turlarga bo'lanar ekan, ikkilamchi, predikatsiya ifodalovchi konstruksiyalar, qiyosiy shakllar bilan murakkablashgan sodda gaplarda bu xil asimmetriya yorqin namoyon bo'ladi”³. Til tizimi birliklarida davrlar osha insoniyat fikriy faoliyatining, ijtimoiy

¹ Нурмонов А. Лисоний белги хусусиятлари ҳақида. – Андижон, 1992. –Б. 8-34; Ветров А.И. Семиотика и ее основные проблемы. –М., 1968. –С. 74.

² Степанов Ю.С. Семиотика “Большой энциклопедический словарь, языкознание”. –М., 2000. –С. 440-442.

³ Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1984. –С. 9-10.

faoliyatiga oid bilimlar to'plangan. Orttirilgan bilimlari tufayli hayot ehtiyojlarini qondirish, muloqot, vaziyat, muhit ishtirokidagi qo'llanishi bunday birliklarni yanada sayqallagan. Ong va tafakkur, borliq munosabatida bu xotira ma'lum belgilar orqali o'z ifodasini topadi. Til belgilarining tashqi, moddiy qobiq – ifodalovchi (shakl) hamda ichki, mazmun – ifodalanuvchi (mohiyat) jihatlarining nisbiy mustaqilligi tufayli til taraqqiyoti davomida turli o'zgarish, siljishlar yuz beradi. Bu siljishlar taraqqiyot natijasida turli nomutanosibliklarga uchrashi tabiiy hol. Natijada til birliklari segment (tashkil etuvchi) jihatlarining nomutanosibligi funksional birliklarning turli nisbatini ko'rsatadi. Aniqroq qilib aytganda, bir shakl bir necha mazmun yoki bir mazmun bir necha shakl ko'rinishiga ega bo'ladi:

1. Mazmun tomonning bir vazifa birligiga til ifoda planining aniq bir farqlanuvchi elementi – bir morfema to'g'ri keladi: 1:1. Bunda bir morfema bitta mazmun ifodalashga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tilidagi *kitob-ni* so'zidagi *-ni* kelishik ko'rsatkichi bo'lgani kabi.

2. Bir-biridan funksional mustaqil bo'lgan bir necha mazmun elementiga ifoda planining bir bo'linmas birligi to'g'ri keladi: 2 (va undan ortiq): 1. Bunda mazmun ikki qismdan iborat bo'lib, yaxlitlangan holda ifodalanadi. Ifoda planining bo'linmas holdaligi (sintetik shakl) mazmun doirasiga ta'sir o'tkazmaydi. Bu tipdagi nomutanosiblik tilda kam uchraydi, ammo to'liq amal qiladi. Masalan, *keldi-ngiz* so'zidagi *-ngiz* qo'shimchasi fe'llarda II shaxs, ko'plik, o'rni bilan, hurmat ma'nosini ifodalagani kabi.

3. Mazmunning bir funksional birligiga ifodaning bir necha birligi to'g'ri keladi: 1:2 (va undan ortiq) munosabat bo'lgani kabi. Shakllanish jihatidan ikki birlik mazmun jihatidan bir birlik tipiga ega bo'ladi. Tashqi tomondan morfema+leksema ko'rinishiga ega bo'lgan bunday birliklar fanda analitik shakllar, murakkab shakllar deb yuritilishi bizga ma'lum. Masalan, o'zbek tilidagi *-sa edi* (o'qisa edi), *-gan edi* (o'qigan edi), *-(i)b yubor* (kulib yubor) analitik shakllari yaxlit bir ma'no ifodalaydi, tarkibi esa tarixan ikki ifoda birligidan tashkil topgan.

4. Bir mazmun birligiga alohida ifoda birligi to'g'ri keladi, shu bilan birga, boshqa birlik tarkibiga kiruvchi element ham ishtirok

etadi: 2:2, ammo ikkisi yaxlitlashgan. Bir mazmunni ifodalovchi ikki shakl ikki tarkibda o'rinlashadi, ammo semalar maydoni bir-biridan farq qiladi. Ayrim hollarda ikki shakl bir leksemaga ham o'rinlashishi mumkin. Bunda keyingi shakl nisbatan kuchliroq bo'ladi hamda birinchi shakl o'z ifodasini qisman yo'qotadi. Pleonazm ham, pleonastik takror ham ayni shunga misol bo'la oladi. Masalan, *qo'zichoqcha* birligidagi *-choq+cha* rasman ikkisi ham bir mazmunga xizmat qilsa-da, *-choq* nisbatan erkalashga, *-cha* kichraytirishga xizmat qilmoqda. O'zbek tilidagi *jajjigina qo'zichoq* birikmasida *-gina* va *-choq* morfemalari erkalash-kichraytirish ma'nosini ifodalagani kabi;

5. Ifodaning bir elementiga muayyan ma'no to'g'ri kelsa-da, ushbu ma'noga ko'maklashuvchi birlik boshqa bir element tarkibida ham bo'ladi. Masalan, sifatlarning orttirma nisbat shaklini ifodalovchi *qip-qizil olmalar* birikmasida belgining ortiqligi *qizil* so'zining qisqa reduplikativ shakli (*qip-*) orqali ifodalanishi yoki *bala(a)nd* binolar birikmasida ortiqlik, ko'plik ma'nosining baland so'zining ikkinchi bo'g'indagi *a* unlisini cho'zib aytish hamda *-lar* qo'shimchasi orqali ifodalanish kabi 4- va 5- holatlarda nisbat 1:1,5; 1,5:1 shaklida ko'rinadi (birga bir yarim, bir yarimga bir nisbati kabi).

6. Yana bir nomutanosiblikning ko'rinishi sifatida aytish mumkinki, morfem shakl hamisha ham mavjud bo'lavermaydi. Biz fanda "nol shakl" borligini bilamiz. Bu shakl ham o'ziga xos ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Buni qiyoslash orqali ko'p kuzatganmiz. Mazmunning bir elementiga ifodaning nol ko'rsatkichi to'g'ri keladi: 0:1 nisbati. Natijada nol shakl ma'no ifodalaydi va bunday ifodalanishning o'ziyoq nomutanosiblikni keltirib chiqaradi. Masalan, bosh kelishik, son kategoriyasida birlik ma'nosi morfologik paradigmada nol morfema orqali ifodalanadi: *uy* (birlik) – *uylar (-lar ko'plik)*; *bola* (bosh kelishik) – *bolani (-ni tushum kelishigi)*. Bunday grammatik shakl haqida Y.Tojiyev ham ba'zi fikrlarni qayd etgan edi¹.

7. Bir ifoda birligiga mazmunda qiymatga ega bo'lmagan asemantik element to'g'ri keladi: 1:0 nisbati. Nol formasi shaklda

¹ Тожиёв Ё. Ўзбек тилида ўтимлилик-ўтимсизлик ҳақида / Тилшуносликнинг долзарб масалалари. –Тошкент, 1992. –Б. 56-58.

qiymatga ega bo'lmasa, bu nomutanosiblikda shakl qiymatga ega bo'lmaydi, ya'ni mazmun ifodalamaydi. Bunday shakllar tarixan mazmun ifodalagan, ayrimlari leksema sifatida ham mavjud bo'lgan, ammo tarixiy taraqqiyot tufayli mazmun o'z o'rnini yo'qotib, ma'no ifodalamaydigan birlikka aylanib qolgan. (Bunday birliklarni ilmiy o'rganish orqaligina tiklab olish mumkin.) Masalan, *birisi*, *ko'pisi*, *bunisi*, *shunisi* kabi so'zlarda ikki egalik qo'shimchasidan *-i-* shakli go'yo ma'no, vazifa qiymatiga ega bo'lmagan birlik hisoblanadi, *-si* boshqa vazifa bajaradi. Shuningdek, *bunda*, *shunda* so'zlaridagi *-n-* elementi ayni damda ma'noga xizmat qilmaydi. Yoki o'rni va vaqtiga munosabat ifodalaydi, xolos. Shunga qaramay, bunday, yuqoridagi holatlarda, ya'ni vositalardan biri boshqa vazifa, boshqa ma'noda qo'llanayotgan bo'lsa, mutanosib holatni yuzaga keltiradi. Aks holda ular nomutanosibdir.

Shakllar orasidagi bu qayd etilgan yetti holat sintagmatik yo'nalishdagi nisbat hisoblanadi. Bu holatlar nomutanosiblikning til sathlari bilan aloqador ekanligini ko'rsatadi. Aytish mumkinki, til birliklari orasida morfem birliklarning ham o'rni katta. Biz izlanishimiz davomida morfologik vositalar, ularning qo'llanishi, shakllanishi, ifodalanishi, shakllarning mazmunga moslik darajasini ham tadqiq qilishga urindik.

Nomutanosiblik sintaktika, semantika va pragmatika bilan uzviy bog'langan hodisa bo'lib, shakl va mazmun nomutanosibligining yuzaga kelishida morfologik vositalar ham muhim mavqega ega. Jumladan, ko'chish (konversiya, transpozitsiya) tufayli ushbu birliklarda ma'no-vazifa nomutanosibligi paydo bo'ladi: ot so'zlarning sifat o'rnida qo'llanishi va ko'chishi, sifat so'zlarning ot o'rnida qo'llanishi va otga ko'chishi, fe'ldagi sifatdash shaklining sifat, ot o'rnida qo'llanilishi va sifat, ot so'z turkumiga ko'chishi, "fe'l-ot" ayniyatligi masalasi (*to'y: fe'l – to'y: ot; ko'ch: fe'l – ko'ch: ot*) kabi holatlar ham sinxron, ham diaxron jihatdan nomutanosiblikning xilma-xil ko'rinishlarini vujudga keltiradi. J.Eltazarovning qayd etishicha, "Moddiy va ma'naviy dunyodagi predmetlar o'rtasidagi o'zaro aloqaning ikki turi mavjud: statik (turg'un) aloqalar va dinamik (harakatdagi) aloqalar. Statik aloqalar ma'lum bir

obyektning turli taraflarining o'zaro (struktur) aloqasini, dinamik aloqalar esa obyektning bir-biri bilan munosabatga kirishuvini va buning natijasida ularda ro'y beradigan ichki va tashqi o'zgarishlarni ifodalaydi. So'z turkumlari tilning eng integratsion (uyushgan) sathlaridan biri bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalar til turmushining har ikki shakl – sinxroniyada ham, diaxroniyada ham yaqqol aks etadi. Ya'ni so'z turkumlari paradigmasi a'zolaridan birining ikkinchisiga ta'siri natijasida ularning biri (bir nechtasi)ning o'zgarishi yoki birining boshqasini vujudga keltira olishi mumkin"¹.

Nomutanosiblik pragmatik yo'nalishdagi keng qamrovli hodisalardan biridir. Til rivoji jarayonida mustaqil so'zlardan yordamchi so'zlarning hosil bo'lishi, o'z navbatida, yordamchi so'zlardan qo'shimchalarning yuzaga kelishi, qo'shma affikslar va affiksoidlarning paydo bo'lishi jarayoni til tizimidagi turli ma'no-vazifa o'zgarishlari bilan bog'liq: "So'zlovchining mavjudlikdagi voqelikka munosabatini ifoda etuvchi morfologik vositalar morfopragmatik yo'nalishni tashkil etadi. Chunki morfopragmatika so'zlovchining ichki niyati bilan aloqador maqsadni tadqiq etishga qaratilgan tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biridir... Morfologik sathga oid lingvistik vositalarning so'zlovchi munosabati bilan bog'lanishining o'ziyoq morfopragmatikaga yo'l ochadi"².

Morfologiya bo'limida struktur nomutanosiblik nafaqat ma'no omili, balki so'zlovchining voqelikka, borliqqa munosabati, ma'naviy olami, xohish-istagi, his-tuyg'u va kechinmalari bilan ham bog'liq jarayondir. Ana shu sababga ko'ra, turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili morfologik shakllari uchun ko'p ma'nolilik, ko'p vazifalilik, ma'nolarning sinkretikligi bilan birga, shakldoshlik, ma'nodoshlik, ma'no zidligi kabi hodisalar ham tabiiy bir hodisadir.

Til tizimida lug'aviy ma'no anglatadigan so'zlar bilan birga lug'aviy ma'no anglatmaydigan birliklar (ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'llar, ko'makchilar va boshqalar) obyektiv borliqdagi narsa, hodisa va jarayonlar bilan turlicha bog'langan. Lug'aviy ma'no

¹ Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши. Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 2008. –Б. 17.

² Ҳақимов М.Н. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини. Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент, 2001. –Б. 26-27.

anglatmaydigan soʻzlar obyektiv borliqqa emas, balki koʻproq tilning grammatik tomoni – ichki strukturasi yoʻnalgan. Umumiy tilshunoslikda lugʻaviy maʼno anglatib, nomlash vazifasini bajaradigan soʻzlar indikativ yoki deskriptiv soʻzlar deyiladi.

Paradigmatik yoʻnalishdagi nomutanosiblik doirasida shunday koʻrinishlarni belgilash mumkin. Mutanosib holatlarda bir ifoda birligiga bir mazmun birligi toʻgʻri keladi. Bu xil koʻrinishda belgining tashqi tomoni va ichki tomoni (mazmun tomoni) oʻrtasida uygʻunlik amal qiladi. Paradigmatik yoʻnalishdagi uygʻunlikning barham topishidan nomutanosiblikning ikki turi – koʻp maʼnolilik va maʼnodoshlik vujudga keladi. Koʻp maʼnolilik keng maʼnoda bir shaklda turli maʼnolarning ifodalanishi (shakldoshlik), tor maʼnoda koʻp maʼnolilik, maʼno sinkretikligini yuzaga keltiradi. Maʼnodoshlik ham turli shakllarning qoʻshimcha tarqalishi, oʻzaro almashinuvi, shakllarning yondoshlikka koʻra maʼnodoshlik munosabatga kirishi kabi jarayon va hodisalardan iborat.

Semiotik yoʻnalishda shakl va mazmunning muvofiqligi har birining oʻzaro bir-birini taqozo etuvchi aloqada boʻlishini koʻrsatadi. Bu muvofiqlikdagi birliklardan birining barham topishi nomutanosiblikning ikki koʻrinishini hosil qiladi. Nol shakllar grammatikada keng tarqalgan hodisalardan boʻlib, turli maʼnolarni tejamkor ifodalash vositalaridir. Nol morfemalar lingvistik birliklarning shartli atamasi boʻlib, grammatik koʻrsatkichlarning maʼno ifodalashida shakl qatnashmasligini bildiradi.

Desemantizatsiyaga uchragan, lekin til tizimida struktur-bogʻlovchilik vazifasini bajaradigan asemantik birliklar, interfikslar, biriktiruvchi va tutashtiruvchi tovushlar kabi birliklar boʻlib, ushbu birliklar ham til tizimida biror funksiyaga ega. Chunki biror vazifaga ega boʻlmagan shaklning tilda yashashi mumkin emas.

1.2-§. Morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlari

So‘z tarkibi, uning ketma-ketligi, tartibi morfem sintagmatikaning asosi hisoblanadi. Har bir sintagmaning o‘z paradigmasi mavjud bo‘lib, sintagmada o‘rin topgan birliklar shakl va mazmun jihatidan morfemalarga ajratiladi. Morfologik sintagmaning ifodalanishida tarkibdagi morfologik shakllarning mutanosibligi yoki nomutanosibligi sinxron va diaxron bo‘lishi mumkin. Bu jarayon har qanday morfem birlikda yuz berishi kuzatiladi.

Morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini tadqiq qilish sintagmani semiotikaga, paradigmaga bog‘lab o‘rganishni talab etadi. Har qanday sintagmadagi morfologik shakl(lar) ma‘lum paradigmaga asoslangan bo‘lib, semiotik jihatdan mutanosib yoki nomutanosib bo‘lishi mumkin. Shu sababli paradigmada mavjud bo‘lgan birliklar semiotikaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Sintagma ko‘rinishidagi mutanosiblik nutq zanjirida ifoda va mazmun tengma-teng tarzda belgilanishini taqozo etadi, ya‘ni ifodalanuvchi mazmun va shakllar miqdori mos keladi. Bu holat ayni damdagi sinxroniyaning mahsulidir. Ammo diaxroniya sintagmadagi har bir shaklni sinchiklab, qiyoslab o‘rganishni taqozo etadi. Bunda ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan miqdori teng kelmay qolib, turli nomutanosibliklarning yuzaga kelishi holatlari kuzatiladi.

Masalaning yana bir tomoni mumtoz asarlarda morfem birliklarning tadrijiy taraqqiyoti, ularda ro‘y bergan o‘zgarishlar xususiga qaratiladi. Bunda Alisher Navoiy asarlari tilida morfem birliklarning diaxroniyasi – tadrijiy taraqqiyoti va o‘zgarishlarini “Mahbub ul-qulub”, “Munshaot”, “Vaqfiya” asarlari misolida ko‘rib chiqamiz. Navoiyning asarlari bugungi kunga qadar badiiy va ilmiy manba sifatida sevib o‘qiladi, chuqur tahlil etiladi, chog‘ishtiriladi, milliy tilimizning asoslaridan biri sifatida talqin etiladi. Navoiy asarlari tilining bugungi kundagi tadrijiy taraqqiyoti keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Tahlil uchun tanlab olingan “Mukammal asarlar

to‘plami”¹ (20 jildlik, 14 jild)dan ayrim misollarni ko‘rib chiqamiz va bugungi kundagi morfologik shakllar bilan solishtiramiz. Natijada morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlari oydinlashadi.

Asardagi mustaqil so‘zlar va ularga qo‘shilayotgan morfologik shakllar bugungi kunda to‘liq amalda yo‘q, chunki ularning ayrimlari iste‘moldan chiqib ketgan yoki o‘zgarishlarga uchragan. Lekin shuni alohida ta‘kidlash mumkinki, ko‘plab morfologik shakllarda tarixiy taraqqiyot tufayli o‘zgarishlar sodir bo‘lgan. Asos morfemalarning esa ayrimlari turli o‘zgarishlarga uchragan.

Sintagmada tovush almashishi hodisasi tufayli *“arig‘i”*, *“zarnigorlig‘idin”* kabi so‘zlarning morfemalari tarkibidagi “q” va “k” tovushlari “g” tovushiga almashgan bo‘lsa, *“ko‘ngil”* so‘zining *“ko‘nglumni”* (191-bet), *“ko‘nglungga”* (49-bet), *“nutqung”*(160-bet) variantida tovush tushishi hodisasi bilan bir qatorda egalik qo‘shimchasining *-um*, *-ung* shakllarini keng ishlatilganini kuzatamiz. Sintagmada diaxron jihatdan ifodalanayotgan *ko‘ngil+um*, *ko‘ngil+ung+ga* kabi so‘zlarning tarkibidagi egalik shakllari *-um*, *-ung* shaklida ifodalangan. Bu jarayon taraqqiyot natijasi sababli emas, singarmonizmning mahsuli sifatida qaraladi. Chunki o‘sha davrda hozirgi ko‘rinishdagi morfologik shakllar ham parallel ishlatilgan. Davrlar nuqtayi nazaridan tahlil qiladigan bo‘lsak, o‘tmishdagi ko‘plab allomorflarning hozirgi kunda ishlatilmasligiga guvoh bo‘lamiz. Bu esa diaxron va sinxron shakllarning o‘zaro nomutanosibligini ko‘rsatadi. Til taraqqiyotining morfologik shakllarga ta‘sir natijasi o‘laroq *“vaqufung”* (49-bet) so‘zida ham egalik shaklining allomorfini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda bugungi tilimizda mavjud bo‘lgan egalik shakllarining ham parallel ishlatilganligiga guvoh bo‘lamiz: *“shuuring”*, *“namozi”*, *“ichiga”*, *“nidosi”* (49-bet). Solishtiramiz: diaxron shakl: *faquf-um*, *nutq-um*, *ko‘ngil-um*; *faquf-ung*, *nutq-ung*, *ko‘ngil-ung*; *faquf-u*, *nutq-u*, *ko‘ngil-u*. Sinxron shakl: *vaqf-im*, *nutq-im*, *ko‘ngil-im*... Ko‘rinadiki, sintagmada o‘rinlashgan egalik shakli asos tarkibidagi lablangan unlining (“u”) talabi bilan

¹ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик, 14 жилд. –Тошкент, 1998.

o'zgarimoqda. Demak, sintagmalarda egalik shakllarining diaxron ko'rinishi o'sha davrga nisbatan ham, sinxron ko'rinishga nisbatan ham nomutanosibdir.

Kelishik shakllarining ham turli ko'rinishda (variantlarda) ifodalanishi mavjud bo'lib, bu jarayon sintagmada o'rinishi tabiiy holatda bo'lgan. Kelishik shakllarining turli shakl (ko'rinish)larda ishlatilishi o'sha davr uchun odatiy hol bo'lib, har bir shaklning o'z variantlari to'liq iste'molda bo'lganligi kuzatiladi. Bu holat o'sha davrning kelishik shakllarida nomutanosibliklar mavjud bo'lganligini ko'rsatsa, hozirgi shakllarga nisbatan ham nomutanosib bo'lib qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Chiqish kelishigi *-dan* shakli eski o'zbek adabiy tilida *-din* shakli bilan ifodalangan. "Munshaot" asarining 191-betida "atrofdin", "alardin", "ishidin", "bundin", "yodidin", "qatoridin", 193-betida "duodin", "zulmatidin", "mazmunidin", "falakdin" kabi so'zlarda va "Mahbub ul-qulub" asarida esa "xayolidin" (48-bet), "shiddatidin", "nidosidin", "huridin", "uyotdin" (49-bet) kabi so'zlar tarkibida chiqish kelishigi shakli *-din* variantida ishlatiladi. Asarning boshqa qismlarida ham *-dan* shaklini uchratish qiyin. Bundan aniq bo'ladiki, eski turkiy tilimizda chiqish kelishigi shakli *-din* variantida mavjud bo'lgan va tarixiy taraqqiyot natijasida bugungi holatga kelib qolgan. *Zulmat+i+din*, *mazmun+i+din* shaklidagi diaxron varianti *zulmat+i+dan*, *mazmun+i+dan* shaklidagi sinxron variantidan biroz farq qilib, chiqish kelishigi shaklining bu holati sintagmada emas, ikki shakl o'rtasidagi nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Diaxron jihatdan tushum kelishigi asosan ikki variantda ishlatgan. Bugungi kunda she'riyat talabi bilan qisqargan *-n* shakli hamda adabiy tildagi invariant shakli *-ni* teng qo'llanilgan: "takallumin" (57-bet), "tutmog'onni" (87-bet). Diaxron jihatdan adabiy normada bo'lgan har ikki shakl o'sha davr uchun ham, bugungi kun uchun ham mutanosib emas. Morfologik sintagmada *takallum+i+n* – *tut+ma+g'on+ni* kabi so'zshakl tarkibida tushum kelishigiga nisbatan nomutanosiblikni kuzatsak, sifatdoshning *-g'on* shakli sintagmatik nomutanosiblikni ko'rsatmoqda. Demak, shakllar sintagmada o'ziga xos simmetriya holatida bo'lmay, tilning o'z talabiga ko'ra turli davrlarda yoki so'z tarkibida nomutanosib

bo'lib qoladi. Boshqacha qilib aytganda, *-ni (-n)* tushum kelishigi shakli nomutanosiblikni ham diaxron, ham sinxron ko'rinishlariga misol bo'la oladi.

Kelishiklar borasidagi tahlillar jo'nalish kelishigining ishlatilishida to'rt variantlilik, ya'ni to'rtta allomorf ko'rinishida mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. Bular: *-g'a* (190-betda qaysig'a, holig'a; 191-betda devoniylarg'a, bandag'a; 192-betda o'tig'a, jarohatig'a; 193-betda qotillarig'a, tang'a, jong'a; 48-betda yo'lg'a, ishqig'a, husnig'a), *-ka* (49-betda sulukka), *-qa* (87-betda valene'matqa; 160-betda tufroqqa), *-ga* (49-betda ko'ngliga, o'ziga, ishiga) shakllari bilan ifodalangan. Misollardan ko'rinadiki, bunday morfologik shakllarning 4 variantliliigi til tarixida to'liq amal qilib, bugungi kundagi (1995-yildan boshlab) 3 variantlilikka kelib qolgan. Ya'ni sintagmalar tarkibida kelayotgan shakllarning ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan miqdori nisbatan kamaygan.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, allomorflarning ayrimlari juda faol bo'lsa, ayrimlari nofaol bo'lgan. Ammo jo'nalish kelishigining barcha shakllari invariant maqomida bo'lgan. Allomorflar orasida eng faoli *-g'a* shakli hisoblangan. *-g'a* shaklining Navoiy asarlarida juda ko'p uchrashi hozirga adabiy tildagi *-ga* morfologik shaklining ko'p qo'llanishi kabi; o'z navbatida bir vaqtlar faol bo'lgan bu shakl endilikda nofaol shaklga aylangan va eski o'zbek adabiy tilida nofaol bo'lgan *-ga* affiksi esa bugun o'ta faol affiksga aylangan. Tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatmoqdaki, faollik darajasiga ko'ra eski o'zbek tilidagi *-g'a* shakli bugungi *-ga* shakliga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Bu esa morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlarini isbotlab beradi.

Xuddi yuqoridagi jarayon qaratqich kelishigi shaklida ham mavjud. Til tarixida, jumladan, eski o'zbek adabiy tilida qaratqich shaklining *-ing* va *-ning* shaklidagi ko'rinishlarini kuzatamiz: *tabiating komi*(49-bet), *tilning ofati* kabi.

Umuman olganda, morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlari mavjud bo'lib, bu jarayonlar qaratqich kelishigi shakllarining ikkita, tushum kelishigi shakllarining ikkita, jo'nalish kelishigi shakllarining

to'rtta, chiqish kelishigi shakllarining ikkita variantligi sababli yuzaga keladi.

Ismlardagi kesimlik shakllari (bog'lamalar yoki shaxs-son)ni eski o'zbek adabiy tilida *-men, -sen, -dur, -tur* (bugungi kundagi *-man, -san, -dir* shakllari kuzatilmaydi) shakllarida ishlatilishi mavjud. Bu holat "*ishtur*" (189-bet), "*bordur*", "*ekandur*", "*vojibdur*", "*zabtidur*" (190-bet), "*bermakdur*" (192-bet), "*xushvaqtdurlar*" (193-bet), "*nidosidur*", "*kechmakdur*" (49-bet), "*ulfatdur*" (50-bet), "*qilgaysen*", "*degaysen*" (136-bet), "*yururmen*" (194-bet) kabi so'zshakllarda ko'rinadi. Misollardan anglashiladiki, kishilik olmoshlarining morfemaga tortilish jarayonida hali o'z shaklini yo'qotmaganligini kuzatamiz:

-men, -sen. Ish-tur, ulfat-dur, kech-mak-dur, de-gay-sen, yur-ur-men kabi morfologik sintagmalarda *-tur, -dur* singari kesimlik shakllari o'zaro nomutanosiblikning diaxron ko'rinishini ifodalayotgan bo'lsa, *-sen, -men* kabi shaxs-son shakllari bugungi kundagi shakllariga nisbatan sinxron ko'rinishini ifoda etmoqda. Demak, kesimlik va shaxs-son shakllari morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko'rinishlarini ifodalaydi. Morfologik shakllarda ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan miqdori turlichadir. Masalaning ikkinchi tomoni esa, har bir shaklning diaxron va sinxron ko'rinishdan *-tur – -dir, -dur – -dir, -sen – -san, -men – -man* holatidagi (ko'rinishidagi) nomutanosiblikni ham kuzatishimiz mumkin. Bu holat morfologik shakllarning bugungi kundagi fonetik o'zgarishlari sababli yuzaga chiqmoqda.

Edi to'liqsiz fe'lining diaxron ko'rinishi *bo'lmoq* mazmunini ifodalovchi *erdi* shaklida qo'llanilgan vaqtdan boshlab, uning tarkibida o'zgarishlar kuzatiladi. *Edi* shakli *ermoq* fe'lining qisqarishidan hosil bo'lgan bo'lib, asli asos "*er*" so'zidir. Vaqtlar o'tishi bilan "*r*"ning fuziyaga uchrashi orqali asos tarkibi *e* holiga kelib qolgan. Chunki bu shakl Navoiy davrida "*ermishkim*", "*erdi*", "*erdikim*" (48-bet), "*ermish*" (57-bet), "*erdingiz*" (193-bet) kabi ko'rinishlarda qo'llanilib, taraqqiyotning keyingi davrida sintagma tarkibida o'zgarish sodir bo'lgan. Demak, aslida bu so'z "*erdi*" shaklida bo'lgan. Tarixiy taraqqiyot natijasida "*r*" tovushi tushib qolib, so'z yanada qisqarishga uchragan. "*Edi*"ning bugungi kunda

ham fuiziyalanishi kuzatiladi va u *-di* shaklidagi morfologik shaklga aylanib bormoqda. *Edi* va *-di* shakllari ma'no ifodalash nuqtayi nazardan deyarli bir xil ko'rinishga kelib qolgan bo'lsa-da, *edi* uzoq o'tmishni, *-di* yaqin o'tmishni ifodalaydi. *Ermishkim* sintagmasi tarkibidagi (er-mish-kim) *-mish* o'tgan zamon sifatdoshi hozirgi davr *-gan* shakli mavqeyida, *-kim* yuklamasi esa *-ki* tarzida nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda. Shakllanish nuqtayi nazardan *-mish* harakat nomi shakli mazmunan sifatdosh shakli bo'lib olishi morfologik sintagmada nomutanosiblikning diaxron ko'rinishiga misol bo'ladi. *-kim* yuklamasi tarkibidagi "m"ning fuiziyalanishidan *-ki* shakliga kelib qolishi nomutanosiblikning sinxron ko'rinishini ifodalaydi.

Fe'llar borasida so'z ketganda (A.Hojiyev ham ta'kidlagan) eski o'zbek adabiy tilidagi ko'pgina so'zlar bugungi ko'rinishidan farq qiladi. Bu holatlar fe'lning zamon, nisbat, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarida ham kuzatiladi. Navoiy asarlarida buni yaqqol ko'rish mumkin. Eski o'zbek adabiy tilida "bo'lgay" so'zi tarixiy taraqqiyot natijasida "bo'ladi" shakliga kelib qolgan. *Bo'l-g'ay* sintagmasidagi *-g'ay* (-ay, -y) istak mayli shakli taraqqiyot natijasida "g"ning fuiziyaga uchrashi sababli nomutanosiblikning daxron ko'rinishi hosil bo'ladi. Shuningdek, *-di* zamon shaklini *-ti* varianti qo'llanilgan so'zlar ham juda ko'p uchraydi: "tushti", "yetti" (49-bet). *-di* va *-ti* shakllari eski o'zbek adabiy tilida ham to'liq amalda bo'lib, morfologik sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron ko'rinishini ifodalaydi. *-ti* shakli bugungi kunda III shaxsda hozirgi zamon shaklini ifodalayotgan *-yapti* affiksining ikkinchi qismidagina saqlanib qolgan. Kelasi zamon qo'shimchasi "*-adi*" shakli esa Navoiy davrida "*-gay*" shaklida qo'llanilgan: "yetkurgaylar" (259-bet).

Eski o'zbek adabiy tilida *-(i)b* ravishdosh shaklining "*-ub*" ko'rinishi faol ishlatilgan. Bu holat bugungi kunda singlarmonizm hodisasidan yiroqlashib asosiy so'zlarga *-ib* shaklida qo'llaniladi. Aslida esa, Navoiy "oshub" (49-bet), "kelturub" (191-bet), "yetkurub" (193-bet) shaklida qo'llagan. *-gan* shaklini esa *-g'on*, *-qon* (ba'zi hollarda *-ur*) shakllarida ishlatilganligini ko'ramiz. Tarixiy taraqqiyot morfologik shakllar tarkibidagi "g" va "q" tovushlarini "g" shakliga, "o" tovushini "a" shakliga o'tib

ketganligini ko'rsatmoqda. Morfologik shakllar tarkibini asosiy qismi o'zgarib ketgan bo'lsa-da, mohiyatidan yiroqlashmagan. Bu shakllar "qochqon" (49-bet), "qilg'on" (191-bet), "ozg'onlar", "bo'lg'on"

(259-bet), "o'qur kishi" (190-bet) holatda keltirilgan bo'lib, bugungi kunda *qochgan*, *qilgan*, *ozgan*, *bo'lgan*, *o'qigan* shakllarida ishlatiladi. Harakat nomi shaklining *-ur* (190-betda "o'qurda"), *-mak* (49-betda "kechmakdur"), *-moq* (50-betda "turmoq") ko'rinishlari amalda bo'lgan. Bugun esa *-ish* va *-moq* variantlari saqlanib qolgan. *-mak* holati esa batamom *-moq* holatiga, *-ur* shakli esa *-ish* shakliga o'tib ketgan. Nomutanosiblikning bir ko'rinishi sifatida fe'l shakllari orasida shakldoshlik hodisasi Navoiy davrida ham bo'lgan, keyinchalik bu morfemalar o'z mustaqilligiga erishib, ko'rinish jihatidan o'zgargan. "O'qurda" (o'qishda) – "o'qur kishi" (o'qigan kishi). Misollarda ko'rinish turibdiki, *-ur* fe'l shakllari ichida shakldosh qo'shimcha hisoblangan. Bu holatdan anglashiladiki, so'z tarkibidagi morfem birliklar diaxron va sinxron nuqtayi nazardan qaralganda turli o'zgarishlarga uchragan va nomutanosibliklarni yuzaga keltirgan.

Fe'l nisbatlarida ham shakllar bugungidan ko'p ekanligi ma'lum bo'ladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-in*, *-il* (ko'rindi, ko'rildi) shaklidagi fe'l nisbatlari mavjud. Navoiy asarlari tilida bu shakllarning turli allomorflari qo'llangan. Bundan shuni aniqlash mumkinki, eski o'zbek adabiy tilida fe'l nisbat shakllarining turi ko'p bo'lgan. Masalan, hozirgi *-in* shakli o'rnida *-un* (192-betda "ko'rundi"), *-il* (189-, 190-, 191-, 259-betlarda "qililsa"), *-ul* (191-betda "bo'lulmasa") shakllari qo'llangan. Bu shakllarga teng morfemalar bugungi tilimizda bitta shakl bilan ifodalanishga kelib qolgan. Hozirgi *-il* shakli esa *-ul* (191-betda "ko'rulsa") shaklida ham ishlatilgan. Orttirma nisbat shakllarida ham o'ziga xoslik kasb etadi: hozirgi *-ir* shakli *-ur* (191-betda "kelturub") shaklida, *-giz* shakli *-gur* (67-betda "ko'rguzsa") shaklida, *-kaz* shakli *-kur* (259-betda "yetkurgaylar") shaklida, *-ar* shakli *-or* (259-betda "chiqordilar", 136-betda "chiqormoqliq") shaklida keng qo'llanilgan. Bu holatlar eski o'zbek adabiy tilida morfologik shakllar rang-barangligini ko'rsatadi. Shuningdek, morfologik sintagmalardan anglashiladiki, nomutanosiblikning diaxron

ko‘rinishi nisbat shakllarida ham uchraydi. Fe‘lning *-in, -un; -il, ul; ir, ur; giz, -gur; kaz, kur; ar, or* kabi nisbat shakllari morfologik sintagmalarda shakl va mazmunga nisbatan nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini ifodalaydi. Chunki bunday turli variantlilik shakllarning ortishi orqali ifodalanayotgan bo‘lsa-da, bir mazmunga xizmat qilmoqda.

Tadqiqotda (eski o‘zbek adabiy tilidan hozirgi o‘zbek adabiy tiligacha besh asr vaqt o‘tganligi bois) so‘zshakl – sintagmaning o‘zgarishlari ham kuzatiladi. Birinchi holatda tovushlarning o‘zgarishini kuzatish mumkin: *“bila”* (191-bet) *bilan* holatiga kelgan, *“qilinur”* (190-bet) *qilinadi* holatiga, *“ko‘ngul”* (192-193-betlar) so‘zi *ko‘ngil* holatiga, *“qo‘yub”* so‘zi *qo‘yib* holatiga, *“yetkursalar”* (191-bet) *yetkazsalar* holatiga kelib qolgan. Shu bilan birgalikda *“ortuq”* (ortiq), *“topshurulsa”* (topshirilsa), *“yetkurdi”* (yetkazdi), *“yetkurib”* (yetkazib), *“o‘tkarib”* (o‘tkazib) kabi so‘zlarda ham turli tovush o‘zgarishlari bo‘lgan. *“yafrog‘lari”*, *“yovushti”* (49-bet) so‘zlari tarkibida ikkitadan tovush o‘zgarishlarini sezish mumkin. Bunda asosan “p” tovushi “f” bilan ifodalanayotganligini kuzatamiz. *“sovug‘”* (49-bet) (sovuq), *“orig‘ay”* (50-bet) (arigay). *“O‘qusa”*, *“uzottilar”*, *“yig‘och”* (57-bet) so‘zlari tarkibi ham bugun o‘zgargan. Demak, sintagma tarkibidagi *-ur* shakli *-adi; -ub* shakli *-ib; -kur* shakli *-kaz; -kar* shakli *-kaz; -ti* shakli *-di; -g‘ay* shakli *-gay* tarzida (bugungi kunda) ifodalanib nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlarini yuzaga chiqarmoqda.

Morfologik sintagmalar tarkibida ortiqchalik (murakkablashuv) kuzatiladi: *“-kim”* shakli bilan ortiqchalik hosil qilayotgan so‘zlarga to‘xtalib, u so‘zlar tarkibidagi bu birlik hozirda batamom yo‘q bo‘lib ketganligini ko‘rdik: *“bu mahaldakim”*, *“qilsakim”* (190-bet) *“bitilsakim”*, *“ulkim”*, *“bo‘lsakim”*, *“qililsakim”*, *“har qaysi ishkim”* (191-bet). Buni shunday izohlash mumkinki, ikki davr o‘rtasida nomutanosiblik kuzatiladi.

Morfologik sintagmalarning qisqarishi yoki asosning o‘zi o‘zgarishini kuzatish mumkin: so‘z tarkibi qanchalik murakkablashmasin, tabiiy ravishda soddalanishga (qisqarishga) intilaveradi. *“Aytur erdi”*, *“tutub erdi”* (49-bet) kabi so‘zlar tarkibidagi analitik shakllar bugun *“aytardi”*, *“tutardi”* so‘zlar tarkibidagi morfologik shakllarga kelib qolgan. Ikki so‘zning

qo‘shilishi va ular orasidagi birikuvning natijasida ikki so‘z tarkibida ham o‘zgarish sodir bo‘lib, bir so‘zshakl holatiga kelib qoladi. Bugun bu so‘zni biz tub so‘z deb ataymiz. Navoiy davrida esa bu ikki so‘z – yetakchi-ko‘makchi tarzida ifodalangan. “*Edikim*” (48-bet) so‘zining qisqarishi tufayli oxiridagi “m”ning tushib qolishi *ediki* holatiga asos bo‘ldi. “*Sirrin*” (57-bet) tarkibidagi bitta “r”ni qisqarishi ham yuqoridagi holatni ko‘rsatadi. “*andoq*” (59-bet) so‘zi esa “ozroq” shakliga kelib qolgan.

Demak, tarixiy taraqqiyot natijasida ro‘y bergan tildagi ba‘zi o‘zgarishlarni Navoiy asarlarida kengroq kuzatish mumkin (Aslini olganda, bu tadqiqot juda katta ish bo‘lganligi sabab biz uning mavzuga aloqador elementlariga to‘xtaldik, xolos). Til tarixida qo‘llanilgan morfemalar bugungi tilshunosligimizda turli o‘zgarishlarga uchragan. Bu o‘zgarishlar sintagmalarda nomutanosiblikning diaxron va sinxron ko‘rinishlari mavjudligini ko‘rsatishga, izohlashga, solishtirib ko‘rishga, farqlashga asos bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ayrim morfologik shakllar sintagma tarkibida nafaqat shakl va ma‘no, balki vazifaviy nomutanosibliklarning sinxron ko‘rinishlarini ifodalaydi. *O‘quvchimiz, boramiz* so‘zlari tarkibiy sintagmada ko‘p vazifalilikni ham hosil qiladi. *O‘qi-uvchi-miz* sintagmasidagi *-miz* morfologik shakli bir vaqtning o‘zida ham egalik, ham kesimlik shaklida kelishi mumkin. *Bor-a-miz* sintagmasida *-miz* morfologik shakli shaxs-son shaklini ifodalaydi. Birinchi sintagmada *-miz* bir vaqtning o‘zida ham egalik, ham kesimlik shaklini ifodalayotgan bo‘lsa, ikkinchi sintagmada ko‘p ma‘nolilik asosida hosil bo‘lgan shakldoshlikni ko‘rsatyapti.

Sintagmalardagi mutanosiblik nutq zanjirida ifoda va mazmunning tengma-teng tarzda belgilanishini taqozo etadi, ya‘ni ifodalanuvchi (mazmun) va ifodalovchi (shakl)lar miqdori mos keladi.

Sintagmatik yo‘nalishda simmetriya (uyg‘unlik)ning yo‘qolishi bir necha xil nomutanosiblikni yuzaga keltiradi:

1. Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida bir qancha grammatik kategoriyalarda qo‘shimchalar birdan ortiq grammatik ma‘nolarni ifodalaydi: *-(i)m* (do‘stim) egalik qo‘shimchasi ham I

shaxs, ham birlik ma'nosini, *-man (to'qiyman)*, *-k (ko'rdik)* shakllari ham xuddi shunday xususiyatga ega: bu morfemalar ham I shaxs, birlik sonda, I shaxs ko'plik ma'nolarini anglatadi, ya'ni ifodaga tegishli bir birlik mazmunga tegishli ikki birlikni aks ettiradi: mayl shakllari ham tarkibida bir necha mazmun birligini tashib kela olish qobiliyatiga ega: *-(a)y (ko'ray, yuray)*: I shaxs, birlik sonda.

2. Asosga birin-ketin qo'shiladigan affiksial morfemalar va ularga vazifadosh birliklar sintagmatik jihatdan shakl va mazmun uyg'unligiga ega bo'lavermaydi. Xuddi qo'shma va juft so'zlar hamda polipredikativ gaplarda bo'lgani kabi til taraqqiyoti tufayli alohida ifodalanishi mumkin bo'lgan mazmun birliklari morfemikada qo'shma affikslar va analitik shakllar tarkibida yaxlit mazmun ifodasiga ega bo'ladi (bu mazmun idiomatik va idiomatik bo'lmagan turlarga bo'linadi). Natijada, sintagmatik yo'nalishdagi tahlilda shakl va mazmun nomuvofiqligi, ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan miqdor ortiqligi hodisasi yuz beradi. Bu jarayon o'z-o'zidan turli nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi. Ayni shu o'rinda affikslarning qator kelishi ikki xil hodisa, ikki xil jarayonga nisbatan xoslanishi zarur: affikslarning qator kelishi ham, ularning qo'shilishi ham so'z tarkibiga aloqador hodisadir. Chunki so'z tarkibi ma'no anglatishiga ko'ra qismlarga ajratiladi. Bir necha mustaqil shakllarning bir mazmunga xizmat qilishi asosga bog'liq holda o'rganiladi. Garchi tarkibni bir necha qismga ajratish mumkin bo'lsa-da, asos dastlabki shakl bilan munosabatga kirishganida (o'z mazmunini saqlab qolgan holatda) tushuncha paydo qilmasa, bu shaklni tarkibga bo'layotganimizda xatolikka yo'l qo'yayotgan bo'lamiz. Lekin ular morfemalarning miqdori jihatidan farqlanadi: affikslarning qo'shilishidan bitta morfema hosil bo'lsa, affikslarning qator kelishida bir necha affiksial morfema mavjud bo'ladi.

Qator kelgan affikslarning yoki biror mustaqil so'zning yangi ma'no-vazifa qiymati bilan paradigmatic qatorlarga tortilishi va paradigmatic qutb birligiga aylanishi oxir-oqibat yangi affiks – qo'shma affiksni hosil qiladi. Bunda yangi birlik eski birliklarni birlashishidan hosil bo'ladi. Mazmun jihatidan mustaqil morfem shakl yana bir shaklga bog'lanadi va oralari ajralishga moyilsiz bo'lib qoladi. Bunda mazmunlarning birinchi qismi ikkinchisiga

tobelanishi kuzatiladi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Masalan, *kelmoqda*, *kelmoqchi* shakllarida qator kelgan – *-moq+da*, *-moq+chi* affikslarining zamon va mayl kategoriyalari paradigmasiga tortilishi eski o'zbek tilidayoq boshlangan. Qarang: “O'g'uznoma” da: *ichagusin yemakta turur...*¹

-moqda, *-moqchi* affikslarining fe'lning tuslanmaydigan (harakat nomi) shakllari maydonidan tuslanadigan (sof fe'l) shakllari maydoniga tortilishida *bo'l*, *turur*, *erdi* (yuqorida ham qayd etdik) kabi yordamchi fe'llarning qo'shilishi va keyinchalik qisqarishga uchrashi asosiy omil bo'lgan. Natijada, fe'lning grammatik shakllarida zamon va maylning - *moqda* (ishlamoqda) va *-moqchi* (ishlamoqchi) affiksli ko'rinishi (andozasi) shakllanib, nutq birligidan til birligiga aylangan. Bu holat bir necha shaklning bir shaklga o'tishi va mazmunning esa o'sha holatda qolib ketishi orqali nomutanosiblikni ko'rsatadi. Shakllarning taraqqiy etishi til omili sifatida vaqt hukmi orqali yuzaga kelsa, mazmunda torayish yoki kengayish hollari ham uning ta'siriga tushadi. Shu sababli til imkoniyatlari diaxroniya qonuniyatlariga ko'ra sinxronlashadi.

O'zbek tilshunosligida til va nutqning munosabati, diaxroniya va sinxroniya orasidagi farq va tutashuv nuqtalariga oid masalalar o'z o'rganilish tarixiga ega. O'zbek tilshunosligida XX asrning 60-yillaridayoq affikslarning qo'shilishi va qator kelishi turlicha talqin etilgan. Hatto S.Usmonov shu asosda “so'zning morfematik va funksional analizi” konsepsiyasini qo'ygan edi². Bunda morfem birliklarning vazifalari tahlil qilinishi bilan bir qatorda mazmunning shaklga ta'sirini ham kuzatish muhimligi ko'rsatiladi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, birdan, tezdin, ilgaridan, oldindan, ichkari, yarasha, qishin-yozin kabi shakllarga nisbatan so'z yoki so'z formasi morfemalarga bo'lingani holda vazifaviy (funktional) qismlarga bo'linmasligi mumkin deyilishi tarixiylik va tilning hozirgi holatini to'g'ri farqlamaslikdir, bu shakllar morfem jihatdan ham ma'noli qismlarga – funksional birliklarga ajralmaydi, bu o'rinda morfologik yaxlitlanish – ma'no va shakl yaxlitligi – soddalanish hodisasi yuz bergan.

¹ Щербак А.М. К истории узбекского литературного языка древнего периода / Академику В.А.Гордлевскому к его 75-летию. –М., 1953. –С. 320.

² Усмонов С. Сўзнинг морфематик ва функционал анализи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. 1-сон, – Б 39.

O'zbek tilida agglyutinatsiya tufayli mustaqil so'zlar morfologik shakllar (paradigmalar) ixtiyoriga tortilib, qo'shimchalarga aylana boradi. Bu jarayon ko'proq fe'l so'z turkumiga xosdir. Chunonchi, *-yap, -yapti, -yotib, -digan* kabi affikslar *yotib, yotibdi, tur (turg'on)* shakllarining qisqarishidan hosil bo'lgan. Bu shakllarda so'z tarkibining keyingi qismlari affikslashish jarayonini o'tagan bo'lsa, *obor* (olib bor), *ober* (olib ber), *obchiq* (olib chiq), *obke* (olib kel), *obko'r* (olib ko'r) singari shakllarda so'z tarkibining oldingi qismlari ana shu jarayonni boshdan kechirgan bunday shakllarning qayta o'zgarishida nutq bosimining kuchli ta'siri bor. Mazkur qisqargan shakllar og'zaki nutq morfemikasi birliklari hisoblanib, ularni shevalarda ko'plab kuzatish mumkin. Shu jihatiga ko'ra diaxron va sinxron ko'rinishlar ifoda birliklarining mazmun birliklariga nisbatan o'zgargan. Bunday o'zgarishlar morfologik shakllarda nomutanosiblikni ko'rsatadi.

Ayrim manbalarda tashqi sintagmatik tasavvur tufayli qo'shma affikslarning tarixiylik holatiga e'tibor berilmaydi. Shunga ko'ra, "hozirgi-kelasi zamon fe'li asosiga *-gan* affiksining qo'shilishidan hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi hosil bo'ladi: boradi+gan – boradigan, ishlaydi+gan – ishlaydigan; fe'lning hozirgi zamon ko'rsatkichi bo'lgan shakliga (asosiga) *-gan* affiksining qo'shilishidan hozirgi zamon sifatdoshi hosil bo'ladi: yozayotgan, ishlayotgan..."¹ tarzidagi fikrlarni uchratamiz.

Ayni shu holat *-gi kel* analitik shakli tarkibida ham kuzatiladi; *ko'rgim keldi, ko'rging keldi, ko'rgisi keldi, ko'rgimiz keldi, ko'rgingiz keldi, ko'rgilari keldi.*

Morfem sintagmatika masalalari atroflicha, keng ilmiy maydonda o'rganilmaganligi sababli bu borada xilma-xil fikrlar mavjud. Bunda sintagmaning qismi hisoblangan birliklarni u analitik bo'ladimi yoki sintetik bo'ladimi jiddiy o'rganish kerak. Ayni shu o'rinda sintagmatika nuqtayi nazaridan qo'shma affikslar, analitik hamda sintetik formantlar farqlanishi kerak. Ular orasidagi o'xshashlik va farqlar tildagi sintagmalar maydonini aniqlashga yordam beradi. Muhimi shuki, sintagmaga kirgan har qanday shakl yoki yaxlit, yoki individual bo'lmasin o'z mavqeyi uchun kurashadi.

¹ Ўзбек тили грамматикаси, II жилдлик, I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 512-513.

Taraqqiyot natijasida qaysidir shakl yaxlitlanib soddalanishga uchrasa (-ing+iz – -ingiz), boshqa o‘rinlarda murakkablashib ikki shakl maqomini oladi (va ajratilib yozilmaydi: -yap+man, -yap+san – -yapman, -yapsan). Shuningdek, sintagmatik tarkib jihatidan analitik formantlar va qo‘shma affikslarni farqli hamda o‘xshash jihatlari mavjud.

Analitik formant va qo‘shma affikslarning quyidagi o‘xshash belgilari mavjud:

1) shakl jihatidan har ikkalasi ham bir morfologik shakl birligi bo‘lib, bir umumiy yaxlit ma‘no ifodalab, bir xil vazifada keladi;

2) ikkisining ham tarkibda tashkil etuvchi qismlar turg‘un, doimiy xarakterga ega bo‘ladi;

3) har ikkala shakl ham aniq o‘rinda, asosdan keyin joylashadi;

4) lisoniy birlik sifatida qo‘shma affiks ham, analitik formant ham xotirada saqlanuvchi til birligi bo‘lib, nutq jarayonida tayyor shakl maqomini kasb etadi.

Masalan, birgina *edi* fe‘lining grammatikalizatsiyasi fe‘l paradigmalarida

-(a)r edi (borar edi), *-sa edi* (ko‘rsa edi), *-(i)b edi* (borib edi), *-gan edi* (borgan edi) kabi analitik formantlarning hosil bo‘lishiga olib keldi. Bunday birliklar tarkibida *edi* zamonni ifodalovchi qism ma‘nosiga aylanadi hamda oldingi shakl bilan yaxlitlashadi.

O‘zbek tilida analitik formantlar asosan mustaqil so‘z turkumlarida, xususan, fe‘l so‘z turkumida ko‘p uchraydi. Ular turli grammatik va modal ma‘nolarni bildiradi. Shu xususiyatiga ko‘ra ham ularni fe‘l so‘z turkumiga qo‘shilishi yoki ko‘makchi deb belgilanishi to‘g‘ri bo‘lmaydi. Chunki fe‘l bo‘lib, mustaqil harakatni ifodalamaydi, ko‘makchi bo‘lib batamom ma‘nosizlikka ham uchramagan. (Bu xususida ishimizning keyingi bobida to‘xtalamiz.)

Analitik formantning ikkinchi asosiy komponenti sifatida hozirgi o‘zbek tilida anchagina miqdordagi (A.G‘ulomov hisobi bo‘yicha – 27 ta, A.Hojiyev hisobiga ko‘ra – 30 ta) ko‘makchi fe‘llar keladi va bu birliklar alohida tahlilga olinadi. Ko‘makchi fe‘lning o‘zi birikadigan asos bilan tutashtiruvchi vositalar (sintagmatik – morfosintaktik bog‘lovchilar) maqomida ravishdosh, sifat-dosh

ko'rsatkichlari keladi, ular asl ma'nosidan uzoqlashgan elementlar bo'lib, ko'makchi fe'l bilan birikib, yagona birlik – formant hosil qiladi: *-(i)b chiq-* (o'qib chiq), *-(i)b tashla* (o'qib tashla), *-(i)b ko'r* (o'qib ko'r), *-(i)b boq* (o'qib boq), *-gan bo'l-* (tortingan bo'lmoq)... Misollardan ham ko'rinib turibdiki, ko'makchi fe'llardagi mazmun batamom yo'qolgan, bu yerda mazmun o'zidan oldin kelgan birlik bilan yaxlitlashib ketgan va shaklga nisbatan nomutanosib holatda keladi. Morfem sintagmadagi mavqeyi muqim o'rinlashadi. Asimmetrik tarafdin shakllar o'rtasida lisoniy bog'lanish hosil bo'ladi hamda ikki shakl bir mazmunga xizmat qiladi. Morfem sintagmatikada bularni shu jihatini ham hisobga olgan holatda ko'rib chiqish zarur bo'ladi. Analitik shakllarning morfologik sintagmalarda nomutanosiblik kasb etishi diaxron va sinxron ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Morfologik sintagmalarda qo'shma affiks hamda analitik formantlarning bir-biridan farqli belgilari:

1. Qo'shma affiks tarkib jihatidan sodda affiks maqomida bo'lib, tarkibga ajratib tahlil etilmaydi: *-moq+da > -moqda*, *-(i)m+si+ra > -(i) msira*, *-(i)ng+iz > -(i)ngiz*, *-ta+cha > -tacha*, *-lar+cha > -larcha* kabilar.

2. Analitik formant esa fe'l negiziga biriktiruvchi vosita bilan tashqi ko'rinishi mustaqil so'zga o'xshab ketuvchi (ayni damda ko'makchi fe'llar) ko'makchi so'z birligidan tashkil topadi: *-(i)b yubor-* (kulib yubor-), *-a sol-* (ayta sol-), *-a yoz-* (yiqila yoz-), *-a chiq-* (ayta chiq-) kabi.

3. Tarkib jihatidan qo'shma affiks ikki va undan ortiq qismlardan tarkib topishi mumkin: *-ing+iz:* keldingiz, *-moq+chi:* bormoqchi, *-di+gan:* boradigan, *-yot+gan:* kelayotgan. Analitik formant esa har doim ikki qismdan iborat bo'ladi: *-sa edi* (o'qisa edi), *-y ko'r* (so'ray ko'r). U ikkidin ortiq birlikdan tashkil topgan bo'lsa ham, odatda, ikki qismga ajratiladi. *Aytib qo'ya qoldi* (-ib + qo'ya qol-) kabi.

4. Qo'shma affiks ma'lum sintagmalarda har xil – kuchli, kuchsiz pozitsiyalarda kela olsa, analitik formantning ikkinchi qismi, sintagmaning yopuvchi a'zosi sifatida kuchli pozitsiyada keladi: *-(i)b chiq* – (o'qib chiq), *-(i)b yubor* (aytib yubor-).

5. Qo'shma affikslar analitik formantlardan tug'ilishi mumkin (-*makta turur-* > -*maktadur-* > -*makta-* > -*moqda*), o'z navbatida, qo'shma affikslar analitik formantlarning birinchi qismi bo'lib keladi: -*moqchi edi*, -*moqda edi*.

Demak, har qanday analitik formant "tilda bir morfema vazifasini bajaradi, muayyan bir ma'noni ifodalaydi. Analitik formant tarkibiga kiruvchi morfemalar mustaqil emas, ular semantik jihatdan mavhumlashib, idiomatizatsiya tufayli bir ma'no hosil qilib qolgan birlikdir. Til taraqqiyoti jarayonida hosil qilingan bu ma'no analitik formant tarkibiga kiruvchi alohida komponentlar tomonidan emas, balki yaxlit holda formant tomonidan ifodalanadi"¹. Shu sababli "bu yaxlit ma'no tarkibida sintagmani tashkil qiluvchi ikkinchi qismning ma'no hissasi aniq uqilib turadi"² va birinchi qism unga tobelanadi. Bunday birliklar vaziyatga moslashib birikadi hamda analitik formant hosil qiladi. Analitik formantlarning tarkibi mustaqil holatda ham qo'llanish xususiyatiga ega, o'q+*ib*, kel+*ib*; o'rnidan *turdi*, tashqariga *chiqdi*...

Morfologik sintagmatikada mazmun va shakl nomutanosibligi qo'shma affikslar hamda analitik formantlarda ikki va undan ortiq shaklning bir mazmun ifodalashini ko'rsatadi. Ikki shaklning bir mazmun uchun xizmat qilishi o'z-o'zidan nomutanosiblikdir. Bu borada, ayniqsa, qo'shma affikslarning sintetik formantlar bilan munosabati hamda farqli tomonlarini belgilash qiyin. Kompleks (yaxlit) birliklar (ularni N.Y.Marr "amaldagi komplekslar" – "ходячие комплексы" deb nomlagan edi) – qo'shma affikslar, analitik hamda sintetik formantlarni farqlash mezonlari hali o'zbek tilshunosligida to'liq ishlab chiqilmagan, ammo ba'zi ilmiy qarashlar kuzatiladi.

A.A.Reformatskiy qo'shma affikslar hamda formantlarni turli hodisalar sifatida baholaydi: "Agar birinchi tur kompleks birliklar

¹ Оралбаева Н. Аналитические формы глагола в современном казахском языке. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. – Алма-ата, 1971. –С. 73.

² Юлдашев А.А. Соотношение деепричастных и личных форм глагола в тюркских языках. –М., 1977. –С. 88.

ergash morfemalardan tarkib topsa, formant suffiks va fleksiyaning qo‘shilmasidan iborat”¹. Bu fikr maxsus lingvistik lug‘atlarda o‘z ifodasini topgan: ikkinchi turi derivatsion va relyatsion affikslarning qo‘shilishi ya’ni fuziyasi natijasida hosil bo‘lgan so‘zni yaxlit murakkablashtiruvchi “tugama bilan yaxlitlashgan suffiks”² hisoblanadi.

Turkiy tillarga doir tadqiqotlarda ham shaxs-son qo‘shimchalarining mayl va zamon asoslari bilan singishish darajasiga qarab, ikki xil tuslanish turi belgilanadi: birinchi turda paradigma elementlari “alohidalik”, ikkinchi turda zich birikish xususiyatiga ega. Zich birikish shaxs-son shakllarining qisqa ko‘rinishlari *-m* (oldim), *-ng* (olding), *-∅* (oldi), *-k* (oldik), *-ngiz* (oldingiz), *-lar* (oldilar)da kuzatiladi: “Bu turdagi zamon, shaxs-son va mayl asoslari, sifatdash asoslaridan farqli o‘laroq, shaxs kategoriyasi affikslarisiz alohida til birliklari bo‘la olmaydi”³, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Shunga qaramay, qadimgi to‘la analitik shakllarning qisqara borishi tufayli, ma‘lum paradigma elementlarining o‘zaro bog‘lanib qolishi ularning yaxlit bir element tasavvuri bilan qabul qilishga imkon yaratadi. Masalan: *bara turur men > boramen > boraman; bara turur sen > ... > borasan; bara turur ul > bara durur > boradi*.


Yuqorida ta’kidlaganimizdek, *-adi* (boradi) kompleksidagi *-di* “qoldiq” shakl bo‘lib, uning shaxs-son qo‘shimchalariga hech bir aloqasi yo‘q. Quyidagi morfemalar birikuvi, ya’ni “*yotib* shakli + shaxs-son affikslari” qo‘shilmasining qisqarishi hozirgi tilda *-yapman, -yapsan, -yapmiz, -yapsiz* kabi formantlarni hosil qilgan bo‘lsa, III shaxsda esa qo‘shma affiksni hosil qilgan (*-yapti*): *boryapman, boryapsan, boryapti; boryapmiz, boryapsiz, boryaptilar*. *Boryap-* (bor+yap-) asos mavjudligi sababli “bog‘li” shaxs-son qo‘shimchalari bilan birikishi uni qo‘shma affikslar doirasiga

¹ Реформатский А.А. Введение в языковедение. –М., 1967. –С. 272-273.

² Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. –М., 1966. –С. 502.

³ Иванов С.Н. Родословное древо тюркок –Ташкент: Фан, 1969. –С. 172-173.

yaqinlashtiradi. Yana: *bor-gu-m, bor-gu-ng, bor-gusi, bor-gu-miz, bor-gu-ngiz, bor-gu-lari* paradigmasida *-gu* arxaiklashgan bo'lishiga qaramay, shaxs-son qo'shimchalari tarkibida o'z funksional qiymatini yo'qotmaydi. Umuman olganda, sintetik shakllar nomutanosibliği diaxron va sinxron ko'rinishlarda mavjud ekanligi oydinlashadi: bir ifoda planining ikki mazmun planida namoyon bo'lishi nomutanosiblikdan boshqa narsa emas.




1.3-rasm. Nomutanosiblikning sinxron va diaxron ko'rinishlari.

Demak, tildagi affikslarning genetik taraqqiyoti ularning qo'shilishi yoki soddalanishi mumkinligini ko'rsatadi. Ayrim shakllar so'zning tarkibida ifodalayotgan ma'nosidan turli darajada uzoqlashishi yoki ma'no kuchayishiga tortilishi mumkin. Morfologik sintagmalardagi bu holatlar o'z navbatida so'z ifodalayotgan ma'noga ta'sir ko'rsatadi. Natijada ifodalovchi va ifodalanuvchi o'rtasida turli nomutanosibliklar yuzaga keladi. Bunday nomutanosibliklar diaxron va sinxron ko'rinishga ega bo'lib, shakl hamda mazmun o'rtasida yuzaga keladi.

Sintagmaning ifodalanish plani: Sintagmaning mazmun plani:

1. *-ib* 2. *chiq-*

1. *Egalik shakli* 2. *Kesimlik shakli.*



1.4-rasm. Sintagmaning mazmun va ifoda planlarida ko'rinishlari.

1.3-§. Affiksoidlarning yuzaga kelishi bilan bog'liq nomutanosibliklar

Fikr mutanosiblik va nomutanosiblik haqida borar ekan har qanday shakl yangi mazmun ifodalashi bilan oldingi shakliga nisbatan nomutanosib bo'lib boraveradi. Bizga ma'lumki, affiksoidlar mustaqil so'zlar sifatida ishlatilgan, o'z ma'nosini yo'qotish evaziga affiks maqomini olgan, so'zlar tarkibida morfologik yoki so'z yasash shakllariga nisbatan qo'llanadigan, vazifa jihatidan affiksga tortilgan birliklarga aytiladi. Ayrim mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlarga aylanishi holatlari turkiy tilshunoslikda V.V. Radlov, Yevropa tilshunosligida E.Sepir asarlarida ko'rsatib berilgan. Bu xususida o'zbek tilshunosligida A.G'ulomov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, A.Berdialiyev, Y.Tojiyev, T.Mirzaqulov, J.Eltazarov, A.Pardayev, G.Karimova, Z.Isoqovlarning ishlarida ham fikrlar bildirilgan.

Affiksoidlar so'zning qaysi qismida kelishiga ko'ra suffiksoid va prefiksoidlarga ajraladi. Bu xususida A.Berdialiyev va I.Ermatovlar oliy ta'lim talabalari uchun yaratgan darsligida "...tilda bir qator lug'aviy birliklar, ma'nosi mavhumlashib, xiralashib affiks vazifasida ham ishlatila boshlaydi. Bunday hodisalar so'z va qo'shimcha oralig'ida qalqib turadi: mustaqil so'z sifatida ham, affiks sifatida ham ishlatilaveradi, – deya ta'kidlab, – Affiksoidlar ham, me'yoriy-rasmiy affikslar kabi, o'zakka qo'shilish o'rniga ko'ra, ikki xil bo'ladi: a) suffiksoidlar; b) prefiksoidlar"¹ ekanligini qayd etadilar. Ishimizdagi barcha misollar suffiksoidlardan olinib, ularni ayrim holatlarda prefiksoid bo'lib kelishi ko'rsatib beriladi. Jumladan, *-sher, -toy, -xon, -jon, -niso, -zoda, -xo'ja, -bibi, -to'ra, -oy, -mirza, -bek, -bobo, -poshsha, -shukur, -bo'ta, -qo'zi, -qul* singari affiksoidlar asosga qo'shilish o'rniga ko'ra suffiksoidlardir. Tadqiqotimizda so'z yasovchi affiksoidlar xususida emas, mavzu doirasidagi morfologik shakllar sifatida e'tirof etilgan affiksoidlar haqida to'xtalamiz.

Mustaqil so'zlarning affiksga tortilishi, o'z ma'nosini yo'qotib affiks maqomini olishi affiksoid sifatida e'tirof etilsa-da, ba'zi olimlar bu holatni boshqacha talqin etadilar.

¹Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Tamaddun, 2022. – B 24-25.

Ba'zan qo'shma so'zning bir qismi, ba'zan so'z yasovchi yoki shakl yasovchi birliklarni, ba'zan esa kuchaytirish ma'nosini anglatuvchi ravish so'z turkumlarining (eng, juda...) ayrimlarini affiksoid deb qarash hollari kuzatiladi. Chunki affiksoidlarning ma'no va vazifa xususiyati turlichaligi uchun ham nomutanosibliklar ko'p. Mustaqil so'zlarning affiksga tomon tortilishi va affiks sifatida bemalol kela olishi nuqtayi nazardan affiksoid deb qaralishi mantiqiy bo'ladi. Aks holatda affiksga tortilishining o'zi yoki affiksga o'xshab so'zga qo'shila olishi nuqtayi nazardan yondashilsa, eng *ko'p*, eng *katta*, eng *chiroyli* tipidagi birliklar tarkibidagi *eng* ravishini ham affiksoid deyishga to'g'ri kelar edi. (Ishda shu jihatlarni ham inobatga olib kengroq to'xtalishga urindik.)

Affiksoidlar masalasida yana bir qarash borki, bu fanda nechog'lik o'z isbotini topishi muammo. Professor Sh.Rahmatullayevning ko'rsatishicha: "Sifat leksema oldidan *eng*, *g'oyat*, *g'oyatda*, *bag'oyat*, *nihoyatda*, *juda* kuchaytiruv morfema-affiksoidlarini keltirish bilan sifat leksema anglatadigan belgi kuchli darajada ekanligi bildiriladi: eng *go'zal*, *juda go'zal* kabi"¹. Yuqorida berilgan fikrga tayanadigan bo'lsak, eng *g'oyat*, *g'oyatda*, *bag'oyat*, *nihoyatda*, *juda* singari birliklar ham affiksoid sifatida qaralishi lozim. Bu qarash hozircha fanda isbotlanmagan. Tashqi tomondan bir so'zga ma'no berish uchun ishlatiladigan bunday birliklar affiksoid bo'lishga haqlidek. Ammo affiksoid bo'lishi uchun uning talablarini to'liq bajarishi kerak. Bunda birlik dastavval so'z sifatida e'tirof etilishi, keyin esa uning affiks sifatidagi o'rni va chegarasi ma'lum bo'lishi lozim. Ayrim adabiyotlarda bunday birliklarni analitik shakllar deya qayd etish lozimligi ko'rsatiladi hamda bu fan uchun munozarali holat hisoblanadi.

Sifatlarning orttirma, ravishlarda kuchaytiruv (*juda*, *g'oyat*, *eng: juda tez yugur*, *eng sekin yur* kabi) darajasini hosil qilishda ishlatiladigan birliklar tashqi tomondan affiksoidga o'xshasa-da, bunday birliklarni affiksoid deb bo'lmaydi. Chunki mustaqil so'zlarning qo'shimchaga tortilishi orqali hosil bo'lgan birliklarnigina affiksoid deyish mumkin. Bunday birliklarni

¹Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –B. 152.

mustaqil soʻz sifatida qayd etamiz va buni affiks sifatida ishlatmaymiz. Shu sababli yuqoridagi fikrga qoʻshilib boʻlmaydi. Fan buni ilmiy jihatdan inkor etadi. “Leksik tabiatli morfema affiksdan (shuningdek, affiksoiddan ham) keskin farq qiladi: oʻzi taalluqli leksemaga zich qoʻshilmaydi, balki ayrimligi saqlanadi, leksemaga oʻxshashlik belgisi shu xususiyatida namoyon boʻladi. Lekin grammatik maʼno ifodalashiga koʻra affiksga tenglashadi. Tashqi jihati (leksemaga zich qoʻshilmasligi) emas, mazmun jihati (grammatik maʼno ifodalashi) asosida bunday birlikni leksik tabiatli morfema deb nomlash mumkin”¹.

Asli soʻz sifatida qayd etilib, qisman yoki toʻlaligicha soʻzlik xususiyatini yoʻqotib, affiks sifatida keng qoʻllana oladigan birlikka affiksoid deb qaralishi lozim. Bu fikrni professor Y.Tojiyevning fikri ham isbotlaydi: “... ayrim soʻzlarning affiks morfemalar qatoriga siljishi natijasida (affiksoidlar): -xona, -jon, -xon, -oy, -obod, -boy, -bachcha/-vachcha, -toy kabi (ishxona, oshxona; Ahmadjon, Salimaxon; Rahimaoy, Dehqonobod, Halimboy; amakivachcha, Rahimtoy, Mullatoy...kabi)”² affiksoidlar hosil boʻladi. Chunki affiksoid masalasi ilm-fanda nomutanosib holatlarda koʻp uchraydi.

Affiksoidlar shakl jihatdan soʻzga, mazmun jihatidan esa morfemaga teng birlik boʻlib, shakl va mazmun jihatidan nomutanosibdir. Shu jihatlarini hisobga olib, morfologik shakllar tizimida oʻrganilishi lozim degan xulosaga keldik. Affiksoidlar masalasida erkalash va hurmatlash qoʻshimchalarining oʻrni va vazifalarini koʻrib chiqqanimizda turli nomutanosibliklarga guvoh boʻlamiz. Aslan olib qaralganda, bunday birliklar lugʻaviy shakllar hisoblanadi, biroq diaxron jihatdan tub soʻzlardan hosil boʻlganligi sir emas. Chunki bunday birliklar soʻz sifatida ham, qoʻshimcha sifatida ham mavjud.

Atoqli otlar doirasiga kiruvchi ismlar orasida Barno, Gavhar, Halim, Shirin, Dildora, Murod, Ozod... kabi ismlar keng qoʻllanadi. Tilimiz bunday ismlarni erkalash va hurmatlash qoʻshimchalari bilan boyitib boradi. Chunonchi, Barnoxon, Gavharoy, Halimboy, Shuringul, Ozodbek, Dildoraxon, Dilshodjon, Murodbek kabi ismlarda affiksoidlar faol ishtirok etadi.

¹ Ибрагимов М., Аффиксоидлар ва уларнинг морфем табиати // Results of National Scientific Research. 2022 –Б. 11. (<https://zenodo.org/record/7227402>)

² Тожиев Ё. Ўзбек тили морфемикаси. –Тошкент, 1992. –Б. 25.

Ismlarga qo‘shiladigan bunday morfologik shakllar (lug‘aviy shakl yasovchilar – suffiksoidlar): *-jon, -xon, -oy, -boy, -bek* (prefiksoid bo‘lib ham kela oladi: *Jonpo‘lat, Xonzoda, Boymurod, Oyxumor, Bekmurod*) o‘zbek tilida erkalash ma‘nosida kelib, o‘zi bog‘langan ismlarni erkalab chaqirishga, hurmatlab qarashga xizmat qiladi. Bunday morfemalarni asos morfema (affiksoid) sifatida ham talqin qilish mumkin. Bundan tashqari ayrim ismlar tarkibida qotib qolish hollari ham uchrashi mumkinligini Sh.Rahmatullayev qayd etgan: “Ot turkumi leksemasiga “iliq munosabat” ifodalovchi *-jon, -boy (-voy), -xon, -oy* affiksoidlari qo‘shiladi: *buvijon, Olimjon, Ravshanboy, Komilaxon, Tursunoy* kabi. Bu affiksoidlar ayrim kishi atoqli otlarida ularning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashadi: *Oyxon, O‘g‘iloy* kabi”¹. *Oybek, Bekjon, Oyxumor* kabi ismlar tarkibida erkalash, hurmatlash affikslarining qotib qolganligini ham kuzatish mumkin. Ammo masalaning yana bir tomoni borki, bunday ismlarning hosil bo‘lishida bu affiksoidlar asos vazifasini ham o‘tamoqda. Shu sababli bunday birliklar o‘rtasida nomutanosiblik bor deb qarash o‘rinli bo‘ladi. Shakllanishi nuqtayi nazaridan bir so‘z hisoblanadi, so‘zlar tarkibida affiks hisoblanadi, ikki asos qo‘shilganida qo‘shma so‘z qismlari sifatiga o‘tadi.

Ismlardagi erkalash va hurmat shakllarining har biri o‘z vazifasiga, o‘z ma‘nosiga ega. Affiksoid qanday vazifada kelmasin, bir shaklga yuklanadi. Bu jarayon bir shaklga boshqa mazmunlar yuklanishi bilan ifodalanadi. Mazmunlarning biri ikkinchisini to‘ldiradi hamda ma‘no yaxlitlashadi. Ketma-ket qo‘shilish imkoniyati mavjud bo‘lib, biri yasovchi, biri shakl hosil qilivchi sifatida qo‘llanadi: *Norbekjon*. Asosga qo‘shimcha ma‘no yuklaydi, bu ma‘nosiz ham asos o‘z vazifasini to‘liq bajarishi ham mumkin. Mustaqil holatda so‘z, asosdan keyin kelganida affiks bo‘lib kela oladi. Shakli turlicha, mazmuni bitta vazifaga xoslangan bunday affiksoidlar mutanosib yoki nomutanosib bo‘lishi ham mumkin.

Dastlab affiksoidlarning shakllanishi, rivojlanishi, taraqqiy etishi xususida fikr yuritsak. Chunki affiksoidlarning ham so‘z sifatida, ham morfologik shakl sifatida ifodalanishining o‘ziyoq ularda nomutanosiblik borligini ko‘rsatadi. Shakl yasovchi

¹Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –B. 149.

affiksoidlarning katta qismi atoqli otlarga – ismlarga qo‘shilib, erkalash shaklini hosil qiladi.

Xon so‘zi mustaqil holatda (*ulug‘ xon, xonliklar davri*) *podshoh* ma‘nosida ifodalanadi. *Xon* mustaqil leksema sifatida paydo bo‘lib, vaqtlar o‘tishi bilan affikslar tomonga qarab siljigan. So‘zning bu holatda kelishi so‘z sifatida to‘g‘ri. Biroq affiksoid sifatida o‘z ma‘nosini saqlamagan.

So‘zning dastlabki taraqqiyotida o‘z o‘rnida, leksema ma‘nosida *Tug‘luq, Qutbiddin, Muhammad, Alovuddin* singari ismlarda *podshoh* mazmunini berish uchun qo‘shilib, *Tug‘luq xon, Qutbiddin xon, Muhammad xon, Alovuddin xon* tarzida idodalangan. Taraqqiyotning keyingi bosqichiga kelib esa ismlarga *-xon* sifatida qo‘shilish urf bo‘lgan. Bu jarayon tezlashgani sari so‘z o‘z xususiyatini yo‘qotib, affiksga tomon tortilgan va affiksoid maqomini olgan. *Xon* so‘zining affiks sifatida ham kela olishi mazmunga nisbatan nomutanosiblikni keltirib chiqargan va taraqqiyotning mahsuli sifatida affiksoid maqomini olgan. Dastlab unvonni ifodalagan ushbu affiksoid, keyinchalik naslni ifodalashga erishgan, davrlar o‘tishi bilan ko‘plab ismlarga qo‘shilib, erkalash shakliga aylangan. Natijada mustaqil so‘z affiksoid tusini olgan. Bugungi kunda bunday affiksoidlarni erkalash shakli sifatida morfologik shakllar nuqtayi nazardan o‘rganamiz.

-xon affiks sifatida erkalash shakli bo‘lganligi bois asl ma‘nosidan batamom uzoqlashib ketgan. Bu affiksoid erkalash bilan birgalikda hurmatlash ma‘nosida ham qo‘llanadi, ya‘ni xonga qiyoslanib, hurmatlanadi: *Azimxon (Ulug‘xon)*. *-xon* affiksoidining jins ajratish holati, asosan, ayollar ismiga qo‘shilsa, erkaklar ismiga esa naslni ifodalash, hurmatlash uchun qo‘shiladi. Bu affiksoidning xonga tegishli ayol mazmunida *xonim* so‘ziga ham aloqasi bor. Ayollar ismiga qo‘shilib *Nodiraxonim, Dildoraxonim, Lutfiyaxonim* tarzida ishlatilishini ham kuzatish mumkin. Bu jarayonda ismda hurmatlash ma‘nosi ortiq ekanligini ko‘rsatadi. *Jamolxon, Nodirxon, Baxtiyorxon* tipidagi ismlarda esa nasabni ifodalash uchun ishlatiladi. Ya‘ni bu ism egalari xonlar avlodidan yoki yuqori lavozimda ishlagan shaxslar avlodi ekanligi bilan ifodalansa, yana bir turi (oqsuyak) eshonlarga borib taqalishini kuzatamiz. Juda kam hollarda erkaklar ismida erkalash vazifasini bajaradi:

Hidoyatxon. -xon affiksoidi soʻz maʼnosida, unvonni ifodalash, nasabni ifodalash, hurmatlash maʼnosida, erkalash maʼnosida har ikki jins vakillari ismlariga qoʻshilib kela oladi va oʻziga xos shakliy nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, -xon affiksoidi oʻziga yaqin olish, oʻsha kishiga suyanish mumkin boʻlgan, qarindoshlar qatoriga qoʻshish mumkin boʻlgan, bordi-keldi qilib yurgan kishilarga hurmat koʻrsatish mazmunida ham ishlatiladi. Bunday hollarda affiksoid turdosh otlarga ham qoʻshiladi: *aka+xon*, *uka+xon* kabi. Demak, *Jamolxon* soʻzida nasabni, *Dildoraxon* soʻzida erkalashni, *akaxon* soʻzida hurmat mazmunini ifodalaydi va bir shaklning turli mazmun ifodalashiga koʻra nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

Affiksoidlarning morfologik shakllarda oʻrinlashishi boshqa turkiy tillarga ham tegishli. “Qoraqalpoq tilida ayrim affiksoidlar shakl yasovchi sifatida qaraladi. Bunday birliklarga erkalash, kichraytirish, hurmatlash kabi maʼnolarini bildiruvchi *-jan*, *-xan*, *tay*, *-ay*, *-biybi*, *-bay* singari affiksoidlar kiradi. Masalan, *Kamiljan*, *Atajan*, *Ataxan*, *Sanemay*, *Gulbiybi*, *Karimbay*”¹. Shuningdek, oʻzbek tilidagi *-bek* shakli ham asli mustaqil soʻz boʻlgan, tarixan unvonni ifodalagan, beklalarda ishlayotgan insonlar ismlariga qoʻshilgan: *Temur bek*, *Ashrab bek*, *Kamron bek* kabi.

Bek soʻzining shakllanishi mavqeyi, lavozimi yoki vazifasi jihatiga koʻra – lavozim; qaramogʻidagi maʼmuriy hududiga koʻra – (XX asr boshlarida Buxoro amirligining 27 ta beklardan iborat boʻlganligi) hokimlik; beklarga xos xatti-harakat, yurish-turishi – iltifot kabi maʼnolarni ifodalab, mohiyatan mustaqil soʻzdir. Mana shu soʻzlik mavqeyidan astalik bilan erkalash shakligi oʻtishi, dastlab beklarni ifodalash maqsadida ismlarga qoʻshilgan boʻlsa, keyinchalik unvonini ifodalash urf boʻlgan. Taraqqiyotning navbatdagi bosqichida affiksoid sifatida ismlarda oʻrinlashadi. Natijada erkalash, hurmatlash mazmunidagi *-bek* affiksoidi paydo boʻladi. Affiksoid boʻlib shakllangandan soʻng ham dastlab hurmatlash, keyin erkalash mazmunini ifodalagan: *Sarvarbek*, *Shamshodbek*, *Yusufbek* kabi.

-bek affiksoidi *Bekmurod*, *Bekturdi*, *Bekqobil* kabi ismlarda prefiksoid boʻlib kelsa, *Ibrohimbek*, *Azizbek*, *Ozodbek* singari

¹ Кудайбергенов М., хэм басқалар. Қарақалпақ тилиниң теориялық грамматикасы. – Нөкис, 2017. –Б. 31.

ismlarda esa suffiksoid bo'lib keladi. Shuningdek, "bek" so'zi *Beknor, Bekbo'ta, Norbek, Xolbek, Oybek, Otabek* singari ismlar tarkibiga zich birikkan holda qo'shma so'zning tarkibi sifatida ajralmas holga kelib qolgan. Endilikda bunday ismlarga erkalash affiksoidining qo'shilishi tabiiy holda amalga oshmasdan (Murodjon, Murodbek, Murodxon, Murodboy), tanlov asosida qo'shiladi: *Beknorjon* (Beknorbek bo'lmaydi), *Bekbo'taboy* (Bekbo'tabek bo'lmaydi), *Norbekjon* (Norbekbek mantiqsiz qo'shilish bo'lib qoladi), *Xolbekjon* (Norbekbek?), *Oybekjon* (Oybekbek?), *Otabekjon* (Otabekbek?) kabi. Ko'rinadiki, *-bek* affiksodining shakllanishi – so'z shaklidan affiks holatigacha bo'lgan jarayon shunday kechadiki, natijada asl so'z bilan yasalgan ismlar tarkibiga qo'shilmay qoladi. Demak, asli so'z sifatida mavjud (bo'lgan) *bek* affiksoid sifatidagi *-bek* shakliga nisbatan nomutanosibdir.

So'z tarkibida tilda rasmiylashgan ma'no va vazifasidan uzoqlashgan affiks xarakteridagi morfemalarni ko'plab uchratish mumkin. Bu xususda professor Y.Tojiyev "O'zbek tili morfemikasi" (Toshkent, 1992) nomli asarida alohida fikrlar bildirgan. Affiksoidlar haqida fikr bildirilganida *Temur bek, Xudoyor xon, Begali xon, Amir bek* kabi ismlarda unvonni ko'rsatuvchi birlik sifatida ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik so'z tarkibida hurmatlash va erkalash mazmuni ifodalab borgan. Shuningdek, *Xidoyatulloxon, Rahmatillaxon, Umidxo'ja, Ma'rufxo'ja, Asqarzoda, Ulug'zoda* kabi o'g'il bolalar ismida nasl-nasabni ifodalash uchun ishlatiladi. Ya'ni erkalash shakllarining ma'nosi kengayishi hisobiga ismlar tarkibiga shunchaki morfologik shakl – erkalash shakli sifatida emas, balki bu insonlar ulug' bir qavmning avlodlari (eshonlardan, xo'jalardan) ekanligini ko'rsatib turish anglashiladi. *-xon, -bek, -xo'ja, -zoda* (ko'proq tojikchadan o'zlashgan ismlarda) singari affiksoidlar o'z shakllanishiga va so'z tarkibida ishlatilishiga ko'ra nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi. Ya'ni bir o'rinda so'z, bir o'rinda affiksoid holatida kelib nomutanosiblikni ko'rsatsa, affiksoid bo'lib kelgan o'rinlarda naslni ifodalash va erkalash shakli bo'lib kela olishi o'zaro nomutanosibdir.

Ayrim affiksoidlarning shakllanishi uslub bilan ham bog'liq, masalan, arab tilida "ayol" ma'nosini beruvchi *niso* so'zi

Qambarniso (“asosan qiz bolalarga qo‘yiladi va bu ism arabcha bo‘lib, quyidagi ma‘nolarga ega: Qar. Qambar va Niso. Eht.: Qamarniso”¹), *Zebuniso* (“asosan qiz bolalarga qo‘yiladi va ... quyidagi ma‘nolarga ega: Zebu – zeb ziynat, niso – nur, shu‘la, zebu-ziynatni nuri, shu‘lasi”²), *Xolbuniso*, *Noriniso*, *Zulfiniso*, *Qumriniso* kabi ayollarning ismi tarkibida kelib, ismga singishib ketgan. “Ot so‘z turkumi doirasida qaraladigan subyektiv baho shakllarida ham modallik munosabatlari mavjud. Bu kabi erkalash ottenkasini beradigan ... *-beka*, *-bekach*, *-poshsho*, *-bibi*, *-pari*, *-bonu*, *-niso* affiksoidlari”³ ham bor. Bunday affiksoidlar ismlarni suniy qisqartirish (nutq talabi bilan: Xolbu, Nori, Zulfi (Zulfixon), Qumri) yo‘li bilan qo‘shilish ehtimoli yuqoridir. *-niso* affiksoidining shakllanishi arab tilidan tojik tiliga, tojik tilidan o‘zbek tiliga affiksoid bo‘lib kirib kelgan. Bugungi kunda *-niso* affiksoidi kam mahsul shakl yasovchi hisoblanib, o‘zbek tilida mutanosib holatda ishlatiladi. Ya‘ni bu shaklda nomutanosiblik kuzatilmaydi.

-poshsha (asli “podsho” so‘zining buzilishidan hosil bo‘lgan: *Anvar podsho –Anvarposhsha*) taraqqiyot natijasida affiksoid ko‘rinishiga kelib qolgan va ayollar ismiga qo‘shilib, erkalash shaklini, o‘rni bilan piching, kesatiq ma‘nolarida ham keladi (*Keling*, *Gavharposhsha.*), shuningdek, unumsiz shakl yasovchi hisoblanadi. *Go‘zalposhsha*, *Gavharposhsha*, *Sultonposhsha*, *To‘xtaposhsha*, *To‘raposhsha* singari atoqli otlarda lug‘aviy shakl yasovchi vazifasini bajaradi, ayrim ismlarda so‘z tarkibiga zich birikadi: *Nurposhsha*, *Oyposhsha* kabi.

-poshsha affiksoidi nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Birinchidan, *-poshsha* affiksoidi “podsho” so‘zining o‘zgarishidan hosil bo‘lganligi nomutanosiblikni yuzaga chiqarayotgan bo‘lsa, ya‘ni “yetakchi morfemaning affiksial morfemaga aylanishi”⁴ hisobiga, ikkinchidan, ham piching, ham erkalash mazmunini ifodalab mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqaradi. Uchunchidan, ismlarning tarkibiga zich birikish hisobiga qo‘shma so‘zning tarkibi yoki yasovchi birlik sifatida nomutanosiblikni ko‘rsatadi:

¹ <https://ismlar.com/uz/name/Qambarniso>

² <https://ismlar.com/uz/name/Zebuniso>

³ Каримов С. Ўзбек тилининг грамматик стилистикаси масалалари. – Самарқанд, 2012. –Б. 37.

⁴ Shofqorov A. Til ta‘limida grafik organayzerlardan foydalanish // Academic research in yeducational sciences 2020, 1-son. –B. 661.

Oyposhsha (*Oyposhsha* – oydek suluv va mo‘tabar, suyukli qiz, asosi “oy”), *Nurposhsha*, *Xonposhsha*, *Xolboshsha*. Qolaversa, atoqli otlar uchun asos bo‘lib kelishi ham morfologik shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi: erkaklar ismi uchun – *Poshshaali*, *Poshshanur*, *Poshshaxo‘ja*; ayollar ismi uchun: *Poshshagul*, *Poshshaxon*, *Poshshaoy*¹ kabi

Ayrim so‘zlarning morfologik shakllarga ko‘chish yo‘li bilan vujudga kelishi yuqorida qayd etildi. Shu asnodda affiksoid (so‘z-qo‘shimcha, “so‘z-affikslar tilshunoslikda affiksoidlar deb ham yuritiladi”²) xarakteridagi ayrim affikslar aslida so‘z maqomida bo‘lgan. Garchi bu jarayon boshqa tilda sodir bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘zbek tilida tayyor affiksoid bo‘lib xizmat qiladi. *-zoda* affiksoidi *Hakimzoda*, *G‘anizoda*, *Muhibzoda*, *Pari(y)zoda* singari tojik tilidan o‘zlashgan ismlar tarkibida “farzandi” mazmunini beruvchi morfologik shakl sifatida qaraladi. Chunki bunga *-zoda* affiksoidining boshqa ismlarga ham qo‘shila olishi, erkalash semasining mavjudligi, nasl-nasabni ifodalay olishi va o‘zbekcha ismlarda ham keng qo‘llana olishi sabab bo‘lmoqda: *Sobirzoda*, *Ahmadzoda*, *Rasulzoda*, *Sahrizoda*. Masalaning ikkinchi tomoni esa, *Elzoda*, *Mirzoda* singari o‘g‘il bolalar ismida hamda *Nurzoda*, *Xonzoda*, *Dilzoda*, *Durzoda*, *Sahzoda* singari qizlar ismida *-zoda* shaklining zich birikib, so‘zning ajralmas qismiga aylanganidir. Demak,

-zoda affiksoidi asl mazmunini saqlagan holdagi so‘z bilan affiksoid o‘rtasida hamda ismlar tarkibiga zich birikib, ajralmas holatda kelishi nomutanosiblikni ko‘rsatadi.

-bibi affiksoidi bugungi kunda o‘zbek tilida kam qo‘llanadi. *Kumushbibi*, *Oyshabibi*, *Gavharbibi*, *Sanambibi*, *Rohatbibi* kabi ismlarda uchraydi. “Bibi” so‘zi tarixda mashhur turkiy ayollarning faxriy unvoni sifatida qayd etilib “xonim, beka, uy sohibasi” ma’nolarini anglatgan. Bu so‘z o‘zbek tilida xonim, oyim, beka, yuqori tabaqaga mansub ayol mazmunida kelagan. Shakllanish nuqtayi nazardan eskirgan so‘z hisoblanadi. O‘zbek tilining shevalarida “bibi” so‘zi *buvi*, *ona* (tojik, turkman, qozoq tillarida “buvi”; ozarbayjon tilida “xola”) ma’nolarini anglatadi, qizlar

¹ <https://uzsmart.ru/ismlar/qidir.php>

² Hamroyev M. va boshq. Ona tili. Darslik –Toshkent, 2008. –B. 69.

ismida hurmat, erkalash munosabatlarini hamda “qiz bola” ma’nosini anglatadi. *Bibioy, Bibigul, Bibixon* ko‘rinishida mustaqil so‘z – atoqli ot bo‘lib kelsa, *Bibisora, Bibifotima, Bibioy(i)sha, Bibihadicha* kabi atoqli otlarda prefiksoid bo‘lib keladi. *-bibi* affiksoidi va asl (so‘z sifatidagi) mazmuni o‘rtasida nomutanosiblik kuzatiladi.

-bobo affiksoidi odatda o‘zbekcha ismlarda – atoqli otlarda prefiksoid bo‘lib keladi: *Boborajab, Bobomirza, Bobomamat, Bobosharif*; suffiksoid sifatida kelganida o‘z ma’nosini tiklab oladi: *Mirzabobo – Mirza bobo* kabi. Shakllanish nuqtayi nazardan o‘zbekcha so‘z bo‘lib, mustaqil so‘z sifatida otadan katta avlodni nazarda tutuvchi, ko‘p holatlarda ota tomondan qarindosh, erkak jinsiga mansub kishi mazmunini ifodalaydi: *bobo, ota-bobo*.

-bobo affiksoidi turdosh otlarga ham qo‘shila oladi. Asosan shaxs otlariga qo‘shilib, hurmatlash mazmuni ifodalaydi: *raisbobo, qozibobo, eshonbobo* kabi. *Raisbobo, hokimbobo, qozibobo* so‘zlarida mansabga nisbatan hurmatni ifodalasa, *eshonbobo, hojibobo* so‘zlarida nasabga, ulug‘likka nisbatan hurmatni ifodalayapti. Shuningdek, *hokimbobo, hojibobo* so‘zlarida yoshining ulug‘ligiga qarab emas, erishgan natijasining ulug‘ligiga qarab hurmatlash ma’nosi yuklanadi. Yuqoridagi misollarda *-bobo* affiksoidining ifodalanishi yoshi o‘zidan kichik bo‘lsa-da, hurmatlash ma’nosi ko‘rinib turibdi. Demak, *-bobo* affiksoidi o‘z ma’nosiga nisbatan nomutanosibdir. Chunki otasidan katta insonni ham, o‘zidan kichik insonni ham “bobo” deyish to‘g‘ri bo‘lmaydi.

-toy affiksoidi o‘zbek tilida keng qo‘llaniladi. Asl ma’nosi otning bolasi – *toy, toychoq. Qo‘chqortoy, Rahmontoy, Ismattoy, Olimtoy, Usmontoy, Hotamtoy* kabi atoqli otlarga qo‘shilib, erkalash mazmunini beradi. Shuningdek, turdosh otlarga ham, sifatlarga ham qo‘shilib kela oladi. *-toy* affiksoidi sifatlarga qo‘shilganida otlashish ehtimoli ko‘payadi. Chunki bu affiksoid otlarda erkalash shaklini hosil qiladi. Otlarda: *o‘g‘il+toy – o‘g‘iltoy* ko‘rinishida erkalash mazmunini ifodalasa, sifatlarda *erka+toy – erkatoy, kenja+toy – kenjatoy, kichkin+toy – kichkintoy* (kichik+kina+toy – pleonazm, birinchi erkalash shakli fuziyaga uchragan) kabi ifodalaydi. *Kenjatoy, kichkintoy* singari sifatlar erkalash shakllarini olish evaziga otlashish yo‘li bilan otga ko‘chmoqda.

Erkalash ma'nosidagi *-toy* shakli bugungi kunda mazmun beruvchi mustaqil so'z sifatidagi tub ma'nosini batamom yo'qotib yoki asl (*toy*) ma'nosidan uzoqlashib, shakl yasovchi affiksoidga – erkalash shakllariga aylanib qolgan. Bunday shakl yasovchi affikslarning o'ziga xos tomonlari ham bor. Garchi, bugun *-jon*, *-xon*, *-oy*, *-bek*, *-boy*, *-toy*, *-gul* singari affiksoidlarni otlarda erkalash, hurmatlash affikslari deb qaralsa-da, kelib chiqish jihatidan mustaqil so'zlarga teng kelishini alohida ta'kidlash kerak. Shu sababli bunday affiksoidlarning otlarda va otlashgan sifatlarda erkalash mazmuni bilan so'zlik mazmuni o'rtasida nomutanosiblik bor. Bunday nomutanosiblik shaklga nisbatan qaralib, mazmun dualizmini keltirib chiqarmoqda.

-boy affiksoidi ham asl mazmunida puli ko'p, o'ziga to'qlik belgisini bildirib, sifat so'z turkumida (*boy* inson – qanday inson?) o'rganiladi. Otlashish ehtimoli yuqori (*Boy* boyga boqar... *Boy* bo'lish siri). Bu affiksoidning yuzaga kelishi va taraqqiyoti shuni ko'rsatadiki, asli sifat turkumi, keyinchalik otlashish, oxirida erkalash shakli holatida ifodalangan. *Dilshodboy*, *Yusufboy* singari atoqli otlarda erkalash mazmunini, *mudirboy*, *hokimboy* kabi turdosh otlarda kesatiq, piching ma'nolarini ifodalash uchun ishlatiladi. *-boy* affiksoidi shakllanish nuqtayi nazardan mustaqil so'zligini inobatga oladigan bo'lsak, shakl yasovchi morfema sifatida kela olishi bu shaklning nomutanosibligini ko'rsatadi.

-jon affiksoidining yuzaga kelishi *jon* so'ziga bog'liq. Chunki *jon* mustaqil asos hisoblanib, o'zbek tilidagi *-jon* erkalash shakli shu so'z asosida o'sib chiqqan affiksoid hisoblanadi. Chunki *-jon* affiksoidi ham aslida mustaqil ma'noli so'z bo'lib, o'xshatish tufayli kishilik otlariga – ismlarga qo'shib hurmat va erkalash ma'nolaridagi affiksoid holatiga o'tgan. "Affikslarning tug'ilishida shunday hol ham uchraydi: ba'zi so'zlar affiks funksiyasini bajarib, ergash morfemaga yaqinlasha boshlagan bo'lsa ham, hali affiksga aylanib yetmagan bo'ladi. Bular affiksoid sanaladi"¹. So'z ma'nosidan erkalash shakliga o'tgan *-jon* shakli e'zozlash, erkalash, qiyoslash, o'xshatish ma'nolarida ham qo'llaniladi: *Farhodjon*, *Obidjon*. Erkalash ma'nosidagi *-jon* affiksoidi esa, *azizim*, *jonim* ma'nosida va kichraytirish ma'nolarida ham ishlatiladi. Kichik

¹ Sapayev Q. Hozirgi o'zbek tili. –Toshkent, 2009. –B. 35-36.

yoshda erkalash mazmunining shakllanishiga xizmat qilsa, yoshi ulg'aygach, hurmatlash mazmuniga o'tadi, chunki ulug' insonni erkalashning hojati qolmaydi. Bu affiksoid *inson joni*, ya'ni asl mustaqil ma'nosida ham keladi, bunda *jon* inson uchun nechog'lik kerak bo'lsa, erkalash shakli sifatida ham bu insonning juda kerakligini ifodalaydi: *Po'latjon, Furqatjon, Komiljon*. Lekin yana shunday birliklar borki, bu morfemalar bir-biridan ajralmas qismlarga aylanib ulgurgan. *Jonajon* ya'ni jondan aziz, birligi tarkibida asosning qismi sifatida zich birikib ketadi. Buni tarkibi ajralmas birlikka aylangan. *Bolajon* – bolani sevuvchi mazmunidagi so'z shaklida esa so'z yasovchi birlikka aylanadi. Shu jihatiga ko'ra asos tarkibi, lug'aviy shakl yasovchi, so'z yasovchi birlik sifatiga shakl va mazmun nomutanosibligini keltirib chiqaradi. *-jon* affiksoidi turli jins ismlari orasida ommalashgan: *Murodjon, Gavharjon, Nodirjon, Nargizjon, Norjon, Darmonjon*. Bunday ismlar orasida keng qo'llanilib, tom ma'noda erkalashni shakllantiradi. Jondan aziz inson mazmunini bergani sababli jins ajratmaslik xususiyatiga ham ega, ya'ni har ikki jins vakillari ismlarida parallel qo'llanadi.

Jonuzoq (Jonzoq), Jonali, Jonmurod singari ismlar boshida kelib, birikmaning qisqargan holatini ifodalaydi. Bu yasaliq qaratqichli (moslashuv) birikishdan hosil bo'lganligini kuzatish mumkin (Jonning uzog'i, Alining joni, Jonning murodi). Shunday qilib, *-jon* affiksoidi asos morfema sifatida ham, so'z yasovchi morfema sifatida ham, shakl yasovchi morfema sifatida ham kelib, nomutanosiblikning bir ko'rinishini ifodalayapti.

-jon affiksoidi turdosh otlarda lavozimlarga qo'shilib, vaziyatni yumshatish asnosida hurmatlash mazmunini ifodalaydi: *boshliqjon, mudirjon, hokimjon bolam* kabi. Kasbiga nisbatan: *ustozjon, doktorjon* so'zlarida hurmat ma'nosini; yaqinlik darajasiga nisbatan: *qo'shniyon, oshnajon, bolajon* (bolajonim, bolajonlar) kabi so'zlarda erkalash mazmunini; qarindoshchilikka nisbatan: *ukajon, akajon, otajon, xolajon, ammajon* kabi so'zlarda ham hurmat, ham erkalash mazmunini ifodalasa, narsalarga nisbatan sof erkalash mazmunini ifodalab keladi: *qovunjon, mushukjon* kabi. Misollardan ko'rinadiki, *-jon* affiksoidi nafaqat

atoqli otlarda balki, shaxs otlarida ham, qolaversa, hayvon va narsalarni erkalash uchun ham ishlatiladi.

Oy soʻzning lugʻaviy maʼnosi osmon jismi boʻlib, astronomik termin hisoblanadi. Soʻz turkumi sifatida esa ot soʻz turkumidir. Badiiyatda esa turli oʻxshatishlar, yaʼni goʻzal yuzli, chiroyli qizlarga *oy yuzli qiz* tarzida yoki *oydek qiz* tarzida ishlatilishi mumkin. Bunday oʻxshatishlar orqali qizning tanholigini va erishib boʻlmas darajadagi jamolini koʻrsatgan. Har qanday oshiq maʼshuqasini “oydek” deb taʼriflashi odatiy hol. Yaʼnikim, maʼshuqani osmon jismi boʻlgan oyga qiyoslash, goʻzallik timsoli sifatida eʼtirof etiladi. Hattoki *oyning yuzida dogʻ bor, sening yuzing oydanda goʻzal*, deya taʼriflanishlarni ham kuzatganmiz.

Oy soʻzi affiksoid sifatida ifodalanganda uning xarakteri oʻzgaradi. -*oy* affiksoidi esa ismlarga qoʻshilish jarayonida (Gavharoy) oʻz mustaqil maʼnosini yoʻqotib, undan tubdan farq qiluvchi yangi lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimcha – morfologik shaklga aylangan. Aslida, mustaqil soʻz sifatida paydo boʻlgan bu leksik birlik tarixiy taraqqiyot natijasida affiksoidga aylanib qolgan. Yana shuni ham alohida aytish mumkinki, bu affiksoid erkalash maʼnosidan tashqari asl maʼnosidan, yaʼni leksemalik xususiyatidan unchalik uzoqlashib ketmagan. Qisman boʻlsa-da, oʻz maʼnosini saqlab qolgan. Shu sababli u morfologik birlik sifatida asos ham, qoʻshimcha ham boʻlishi mumkin. Bu esa ayni morfemaning shakl va mazmun nomutanosibligini koʻrsatadi. Nomutanosiblikning bu turdagi koʻrinishi struktur morfem nomutanosiblikka tegishlidir. Bu affiksoid soʻzshakllarda prefiksoid holatida ham, suffiksoid holatida ham kela oladi. Chunonchi, *Oyxumor – Xumoroy*. -*oy* affiksoidi soʻzlarning prefiksoid yoki suffiksoid holatida kelishiga qarab unga berilajak maʼnoni yangi mazmun bilan boyitadi. Shaklning prefiksoid sifatida kelishi asosga zichlashib, ajralmas shakl koʻrinishiga kelib qolgan: *Oyxumor, Oybek, Oydin* kabi.

-*oy* affiksoidi jins ajratish xususiyatiga ham ega, yaʼni faqatgina qizlar – ayollar ismiga qoʻshilib erkalash, hurmatlash mazmunida keladi. Bu xususiyat affiksoidning lugʻaviy maʼnosi bilan bogʻliq. Tarixan yasalish holatlarini inobatga olsak, *Oybek, Oyjamol* singari holatlarni ham kuzatamiz. Shuningdek, unda

yasovchilik xususiyati ham bo'lgan: *Oybek, Oydin, Oyxumor, Oyjamol* singari ismlar buning isboti sanaladi. Bu ismlardagi prefiksoid odatda yasalayotgan so'zning boshida keladi va yasalmaning tub mohiyatini so'zning asl ma'nosidan uzoqlashtirmaydi. Bugungi kunga kelib yasovchilik xususiyati batamom to'xtagan. Asli kelib chiqish nuqtayi nazardan olganda yasovchanlik xususiyati ham mavjud bo'lgan. Bu ismlarning ayrimlari so'z birikmasining qisqarishidan hosil bo'lgan.

-*xon* affiksoididan farqli o'laroq -*oy* affiksoidi jins ajratishga xizmat qiladi. -*oy* faqat qizlar ismiga qo'shilsa (*Dilbaroy, Barnooy*), -*xon* affiksoidi har ikki jins ismlariga qo'shiladi: *Turdixon, Tursunxon, Hidoyatxon* o'g'il bola ismi, *Turdixon, Hidoyatxon, Tursunxon* qiz bola ismi (Ayrim hollarda jins ajratish maqsadida yigitlar ismiga yana bitta erkalash shakli qo'shilishi mumkin: *Turdixonbek, Tursunxonbek, Hidoyatxonbek*).

Shakl yasovchi affikslarning so'z yasaliş bilan bog'liq bo'lganlari ham bor. Bu yasalmalar bugungi kunda deyarli yasalmaydi. Hatto erkalash qo'shimchalarida ham tarixan so'z yasaliş kuzatiladi. Bunday erkalash qo'shimchalari mustaqil holda (*Go'zalxon, Ozodbek, Murodjon, Sanamoy, Shiringul* kabi) kela olishi bilan birgalikda, o'zaro birikib yangi ismlar ham yasagan: *bek+zod* – *Bekzod*, *bek+nor* – *Beknor*, *nor+bek* – *Norbek*, *oy+bek* – *Oybek*, *oy+xon* – *Oyxon*, *bek+jon* – *Bekjon*, *oy+gul* – *Oygul*, *oy+jon* – *Oyjon*, *oy+xumor* – *Oyxumor*. Bu yasalmalar tarkibidagi -*oy*, -*bek*, -*xon*, -*jon*, -*gul* unsurlari o'z ma'nosidan mutloq uzoqlashib, ajralmas birlikka aylanib qolgan. *Oybek, Oyxon, Bekjon, Oygul, Oyjon* ismlari tarkibida ularning morfemaga o'xshash qismlaridan biri sifatida ishtirok etgan "*oy*", "*bek*", "*xon*", "*jon*", "*gul*" birliklarini so'zning lug'aviy ma'noli qismlari deb bo'lmaydi. Bu birliklar o'zlarining lug'aviy ma'nolaridan mahrum bo'lgan. Endi ularni shu so'zlar tarkibi nuqtayi nazardan lug'aviy qiymatga ega morfema deb bo'lmaydi.

-*oy*, -*gul* affiksoidlari qizlar ismiga, -*bek*, -*boy*, -*toy* affiksoidlari yigitlar ismiga qo'shib aytilsa, -*jon*, -*xon* shakllari har ikkala jinsdagi insonlarga nisbatan ishlatilaveriladi. Bunday mustaqil so'zlar ismlarga qo'shilganda o'z mustaqil ma'nolarini qisman saqlab

qoladi. “Mardonbek – beklarning botiri”¹, “Niholoy – oydek suluv qiz”². Shuningdek, *xo’ja, sher, mirza, to’ra, shukur, bo’ta, qo’zi, qul* singari soʻzlar ham affiksga tortilgan. Natijada bu soʻzlar va affiksoidlar oʻrtasida nomutanosibliklar sodir boʻlgan. -*xo’ja* affiksodi *hokimxo’ja, qorovulxo’ja* singari soʻzlar tarkibida piching mazmunini ifodalasa, *Umarxo’ja, Sodiqxo’ja, Ergashxo’ja* kabi atoqli otlar tarkibida nasl-nasabni ifodalaydi. -*sher* affiksoidi esa prefiksoid sifatida *Sherali, Sherzod, Sherboy, Sherqul* ismlarini shakllantirayotgan boʻlsa, *Alisher, Valisher, G’anisher; Azimsher, Rahmonsher* kabi ismlarda suffiksoid shaklini koʻrsatadi. -*sher* affiksoidi tarixan faol boʻlib, bugungi kundagi atoqli otlar tarkibiga singib ketgan. Hozirda Botirsher, Nodirsher, Yoqubsher singari ismlarda ogʻzaki nutqdagina qoʻllanilib, adabiy tilda deyarli ishlatilmaydi.

-*mirza* affiksoidi ham oʻz mazmunini saqlagan holda prefiksoid sifatida kelishi *Mirzakarim, Mirzaamin, Mirzaahmad, Mirzakamol, Mirzayusuf* singari ismlarda kuzatilsa, suffiksoid sifatida *Aslmirza, Vositmirza, Jobbormirza, Ibrohimmirza, Iqbolmirza* kabi ismlarda oʻz ifodasini topadi. *Mirzaqul* ismida asos, *Otamirza* ismida esa soʻzning tarkibiga ajralmas qismi sifatida oʻrinlashmoqda.

-*mirza* affiksoidi asosan hurmat maʼnosida ishlatiladi.

-*to’ra* affiksoidining soʻz sifatidagi maʼnosi ulugʻ martabalar sohibi, tarixan Buxoro xonligida chigʻatoy ayonlari va sayidlarga berilgan faxriy unvon boʻlganligi maʼlum: *To’raxon, To’raqul* asl – asos maʼnosida. *Kenjato’ra, Latifto’ra, Nasibto’ra, Omonto’ra* ismlarida suffiksoid; *To’raqobil, To’ramuhammad, To’ranazar* ismlarida prefiksoid boʻlib keladi. Ayrim holatlarda turdosh otlarga qoʻshilib, qattiq hurmat maʼnosini ham anglatadi: *hokimto’ra, kuyovto’ra*. Otlarda hurmat shakli boʻlgan -*to’ra* affiksoidi asl maʼnosiga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi: *to’ra – kuyovto’ra*.

Sabr-u toqat qiluvchi, rozi (koʻngan), minnatdor maʼnolarini anglatuvchi *shukur* soʻzi *Shukuriddin, Shukulla, Shukurboy* ismlarida asos, *Ozod, Egam, Omon* singari atoqli otlarda affiksoid

¹ Begmatov E., Kenjayeva S. Oʻzbek ismlari maʼnosi. –Toshkent, 2007. –B. 49.

² Begmatov E., Kenjayeva S. Oʻzbek ismlari maʼnosi. –Toshkent, 2007. –B. 60.

bo'lib keladi: *Ozod+shukur, Egam+shukur, Omon+shukur*. -shukur affiksoidi bugungi kunda atoqli otlar tarkibida ajralmas birlikka aylanib qolgan. Bugun biz ularni *Egam-shukur* tarzida ajratib tahlil qilolmaymiz.

-*bo'ta* (asl ma'nosida tuyaning bolasi – *bo'ta, bo'taloq*) affiksoidi suyukli yoki erkatoy bola mazmunida *Norbo'ta, Jonbo'ta, Bekbo'ta, Xolbo'ta, Eshbo'ta* kabi ismlarda prefiksoid bo'lib kelsa, *Bo'tayor, Bo'taboy, Bo'taqul* singari otlarda asos vazifasini bajaradi. -*bo'ta* affiksoidini ham bugungi kunda ismlardan ajratib tahlil qilib bo'lmaydi. Biz ko'rsatayotgan misollar tarixan shakllanishi haqida, ular alohida qo'llanganda boshqa mazmun anglatgani uchun tahlil qilmoqdamiz.

-*qo'zi* (asl ma'nosi qo'yning bolasi – *qo'zi, qo'zichoq*) affiksoidi *Qo'ziboy, Qo'zibek, Qo'zixon* ismlarida asos, *Odilqo'zi, Muhammadqo'zi, Nabiqo'zi, Joraqo'zi, Xoliqqo'zi* ismlarida affiksoid bo'lib keladi. Og'zaki nutqning *erkaqo'zi, jiyanqo'zi* singari so'zshakllarida erkalash mazmunini saqlab qolgan.

Bugungi kun atoqli otlar tarkibida ajratib ifodalanmaydigan -*qul* affiksoidi esa o'z mazmunini qisman saqlagan holda *Hudayqul, Hamroqul, Eshonqul, Nazarqul* kabi ismlarda tarixan suffiksoid bo'lib kelgan va asos tarkibiga ajralmas qism bo'lib, zich birikkan.

Affiksoidlarning soddalashuvi ham mavjud. Bunday soddalashish jarayonida qaysidir affiksoid asos, qaysi biridir so'zshaklning qismi bo'lib keladi. Affiksoidlar kombinatsiyasidan yangi ismlar paydo bo'ladi. Ularning yonma-yon kelishi va ma'no ifodalab qolishi ham kuzatiladi: *-jon + -mirza – Jonmirza, -oy + -poshsha + -xon – Oyposhshaxon, -oy + -bek + -jon – Oybekjon, -bek + -jon – Bekjon, -xon + -zoda + -oy – Xonzodaoy, -jon(i) + -bek + -xon – Jonibekxon, -bek + -bo'ta – Bekbo'ta* kabi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bunday yasalmalar tarkibidagi *-jon, -mirza, -oy, -poshsha, -bek, -jon, -bo'ta* unsurlari o'z ma'nosidan uzoqlashib, ajralmas birlikka aylanib qolgan, ya'ni soddalashgan: ikki birlik bir birlikka aylangan. *Jonmirza, Oyposhshaxon, Oybekjon, Bekjon, Jonibek, Xonzoda, Bekbo'ta* ismlari tarkibida ularning morfemaga o'xshash qismlari sifatida ishtirok etgan "*jon*", "*mirza*"; "*oy*", "*poshsha*"; "*oy*", "*bek*"; "*bek*", "*jon*"; "*xon*", "*-zoda*"; "*bek*", "*bo'ta*" birliklarini so'zning lug'aviy ma'noli qismlari sifatida ajrata

olmaymiz. Chunki bunday birliklar yuqoridagi atoqli otlar tarkibida o'zlarining lug'aviy ma'nolarini yo'qotgan. Bugungi kunda ularni shu so'zlar tarkibi sifatida lug'aviy qiymatga ega morfemalar sifatida ajratib bo'lmaydi.

Ayrim affiksoidlar bir-biri bilan shakl jihatdan nomutanosib bo'lib qoladi. Aynan ikki shaklning bir mazmun uchun xizmat qilishi shakliy nomutanosiblikni ko'rsatadi. *-oy* va *-bonu*: *Gavharoy* – *Gavharbonu*; *-bek* va *-jon*: *Murodbek* – *Murodjon*; *-xon* va *-oy*: *Charosxon* – *Charosoy* kabi shakllarning ma'nodoshligi asosida shakliy nomutanosiblikni ko'rsatmoqda.

Demak, taraqqiyot natijasida bir shaklning ham so'z sifatida, ham affiksoid sifatida kelishi (*xon* – *-xon* kabi), bir affiksoidning ham shakl yasovchi sifatida, ham so'z yasovchi sifatida kelishi (*Malikaxon* – *kitabxon* singari), shakl yasovchi bir affiksoidning ham hurmat ma'nosida, ham erkalash mazmunida kelishi (*domlajon* – *Murodjon* kabi) mazmuniy nomutanosiblikni yuzaga keltirsa, ikki affiksoidning bir mazmunga xizmat qilishi (*Yusufbek* – *Yusufjon* kabi) ma'nodoshlik asosidagi shakliy nomutanosiblikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, yuqorida tahlilga olingan ayrim affiksoidlar bugungi kunda ismlarning tarkibiy qismi bo'lib, ajratib bo'lmas holatga kelib qolgan. Affiksoidlar tilshunoslikning morfemika bo'limini boyitib turgan birliklar sifatida qaraladi. Mustaqil so'zlarning morfem birliklar qatoriga qarab siljishi natijasida, o'z ma'nosini qisman yoki to'laligicha yo'qotadi. Taraqqiyot natijasida asl so'z ifodalayotgan mazmun keyin paydo bo'lgan birlikka nisbatan to'laligicha nomutanosib bo'lib qoladi. Demak, affiksoidlar shakl kengayishi va so'z yasalishida faol ishtirok etib, ular asos va lug'aviy shakl jihatdan, shakl va mazmun jihatdan turli nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi. Bu esa yangi tadqiqotlar uchun ma'lum ma'noda xizmat qiladi.

II BOB. O'ZBEK TILI MORFOLOGIYASIDA MURAKKAB SHAKLLARNING HOSIL BO'LISHIDAGI NOMUTANOSIBLIKLAR

2.1-§. Sintetik shakllarning hosil bo'lishida nomutanosiblikning yuzaga chiqishi

O'zbek tili morfologiyasida murakkab: sintetik, analitik va kengaygan shakllarning hosil bo'lishi hamda ularning til qurilishidagi o'rni va vazifasini belgilab olish, shuningdek, bunday birliklarda nomutanosiblik masalasini hal etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. (Nomutanosiblik til tizimining barcha sathlarida keng tarqalgan jarayon hisoblanishini yuqorida qayd etgan edik.) Tilshunoslar grammatikada nomutanosiblikning sistema nomutanosibliqi, struktura nomutanosibliqi, amalda bo'lish yoki funksiyalashish nomutanosibliqi kabi uch turini belgilaydilar¹.

Nomutanosiblik til tizimidagi turli sathlarning har xil taraqqiyot darajasi bilan bog'liq. Shuningdek, ayrim so'zlarning paradigmasi to'liq bo'lmaganligi ham nomutanosiblikdan dalolat beradi. Yaxlit shakllarni fransuz tilshunoslari "ifodalanuvchilarning qo'shilishi" (Sh.Balli) hamda "amalgamalar" (A.Martine) deb nomlaganlar. Murakkab grammatik shakllarda ifodalovchi va ifodalanuvchining turlicha mutanosib yoki nomutanosib bo'lishi kuzatiladi. Bob doirasida murakkab shakllarning kelib chiqishi, rivojlanishi, taraqqiyoti va asl shakllarga nisbatan nomutanosibliklarini o'rganib chiqamiz.

Murakkab shakllar orasida sintetik shakllar ikki va undan ortiq qismlarning hosilasidan, yaxlitlashishidan paydo bo'ladi (ular orasidagi bog'lanish juda zich bo'lib, bir mazmunga xizmat qiladi). Shakllanish nuqtayi nazardan bir necha birlikdan tashkil topgan bo'lsa-da, ular endi bir vazifa bajarish uchun xoslangan bo'ladi.

Analitik shaklda esa bir umumiy ma'no analitik formant orqali ifodalanadi. Analitik formant tashqi tomondan ikki qisimli bo'lib ko'rinsa-da, amalda bu shakllar yaxlit bir ma'noni ifodalaydi, go'yo ikki shaklga bir mazmun birligi to'g'ri keladi. (Bu xususida bobning ikkinchi qismida to'xtalamiz.)

¹ Qarang: Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. –М., 1986. –С. 25-31.

Kengaygan shakllar ham murakkab shakllar tizimiga kirib, bir necha birlikdan tashkil topish barobarida hosila shakllari orasida zichlashish hali to'liq oxiriga yetmagan bo'ladi. Tarkibning biri faol, boshqasi esa unga qo'shimcha ma'no berishga xizmat qiladi. (Bu xususida bobning uchinchi qismida to'xtalamiz.)

Tilshunos olim S.Usmonov so'z tuzilishida analiz va sintez munosabati haqida fikr yuritib, "... *ikkilan, ikkilanmoqda, bormoqchi, tezdan* kabi so'z va uning shakllari *ikki-la-n, ikki-lan-moq-da, bor-moq-chi, tez-dan* kabi morfemalarga bo'linishini, *-lan, -moqda, -moqchi* kabi murakkab (qo'shma) qismlarni morfema deyish mumkin emas. Bu qismlar so'z yoki so'zshaklini yasash paytidagina vujudga keladigan butunliklar bo'lib, xotirada shu tarzda (qo'shma holda) saqlanmaydi. Ular nutqdagina hosil bo'lib, nutq mavjud bo'lmasa, ayrim morfemalarga bo'linib ketadi va xotirada shu ayrim morfemalar sifatida saqlanadi"¹, – deb yozgan edi. Olimning fikricha, "So'zning morfologik tahlili ikki xil struktura elementlari – morfemalar va funksional qismlar asosida olib borilishi kerak. So'z yoki so'zshakllarini morfemalarga ajratish morfematik tahlildir, ularni so'z tuzilishidagi ma'lum grammatik vazifa bajarayotgan morfema yoki morfemalardan iborat bo'lgan funksional qismlarga ajratish funksional tahlildir"². Bizningcha, so'zning tahlilida morfologik tahlil alohida, morfem tahlil alohida, yasalish tahlili alohida, vazifa tahlili alohida xususiyat kasb etadi. Chunki, morfologik tahlilda sinxron jihatdan yondashilib, so'z turkumi (asos), yasalish birinchi o'ringa chiqadi va grammatik shakllar keyingi o'rinda bo'ladi: qishloqdoshlarni – qishloq-dosh+lar+ni. Morfem tahlilda esa, har bir morfema alohida tadqiq etiladi, hamma morfemaga munosabat bir xil bo'ladi (tarixiylik albatta inobatga olinadi), so'z yasovchi va shakl yasovchi munosabati teng tahlil etiladi: *qish+la+q+dosh+lar+ni*. Yasalish tahlilida oxirgi yasalgan so'z birinchi, unga qo'shiladigan sintaktik va lug'aviy shakl yasovchilar ikkinchi darajada qaraladi. Bunda urg'u asos va yasovchi birliklarga qaratiladi: *qishloq+dosh+larni*. Vazifa tahlilida esa ko'proq sintaktik munosabat birinchi mavqeda

¹ Усмонов С. Сўзнинг морфематик ва функционал анализи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. 1-сон, – Б. 39-40.

² Усмонов С. Сўзнинг морфематик ва функционал анализи ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1965. 1-сон, – Б. 40.

shakllanadi, soʻz asosi boshqa soʻroqqa javob boʻlsa-da, grammatik jihatdan boshqa soʻroq olishi ham mumkin: *yaxshi+ga yondosh*. Otlashuv hisobiga grammatik shakl sababli soʻrogʻi oʻzgarmoqda. *Stolda oʻtirmoq* – qayerda oʻtirmoq? Aslida, nimada oʻtirmoq. *Uyga ketdi* – qaerga ketdi? Aslida, *uy* – narsa, nima? soʻrogʻiga javob boʻladi.

Sintetik shakllarning hosil boʻlishi, tarkibdagi har bir morfema va ularning maʼnolari, yaxlitlashuvdan soʻnggi mazmunlari asl (genetik) shakllarga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan olib qaralganda, sintetik shakllarning hosil boʻlishidagi ayrim nomutanosibliklar haqida fikr bildirishni lozim topdik.

-(i)miz, -(i)ngiz shakllari. II shaxs koʻplikdagi egalik shakllari (ayrim shaxs-son shakllari ham) *-(i)miz, -(i)ngiz* koʻrinishida ifodalanadi. Bu shakllar oʻz taraqqiyoti va rivojiga ega. Koʻpchilik olimlar bu taraqqiyotni kishilik olmoshlari bilan bogʻlaydilar (bu xususida yuqorida ham qayd etdik).

Tilshunos olim N. Mahmudovning qayd etishicha, “Asimmetriya tilning barcha sathlariga xos boʻlib, fanning bosh masalalaridan hisoblanadi”¹. Nomutanosiblik til morfem qurilishida ham amal qiladi. Bu xil oʻzgarishlar tilning boshqa sathlari birliklari, shuningdek, morfem birliklarning maʼno-vazifasiga ham taʼsir qiladi. Mutaxassislarning qayd etishicha, “*biz aytganimiz yoʻq, siz oʻqishingiz kerak* kabi qurilmalar, aslida, *bizning aytganimiz yoʻq, sizning oʻqishingiz kerak* kabi qurilmalardan oʻsib chiqqan: qaratqich kelishigidagi soʻz bosh kelishik shakliga oʻzgaradi, ega – aytganimiz, oʻqishingiz, asli, kesim *yoʻq, kerak* soʻzlari bilan birikib, murakkab kesimga aylangan (*aytganimiz yoʻq, oʻqishingiz kerak*), egalik qoʻshimchalari (-imiz, -ngiz) esa turlovchidan tuslovchiga aylanadi”².

Masalaning ikkinchi tomoni esa *-(i)miz, -(i)ngiz* shakllari tarkibi va ulardagi shaxs hamda son tushunchalarini belgilab olishda. Adabiyotlar shuni koʻrsatadiki, mustaqil soʻzlarda (ismlarda) son koʻrsatkichi birlik va koʻplik shaklda ifodalanadi. Birlik sonda “nol” koʻrsatkich boʻlsa, koʻplik sonda *-lar, -iz*

¹Махмудов Н. Семантико - синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. –Ташкент 1984. –С. 3.

² Гуломов А., Аскарлова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Синтаксис). –Тошкент, 1965. –Б. 88-90.

(qadimda) shakli bilan ifodalanadi: *sovg'a* – birlik; *sovg'alar* – ko'plik. Demak, birlik sonda son ko'rsatkichi shaklan mavjud bo'lmaydi. Shu sababli *-(i)m*, *-(i)ng* shakllarida shaklan son mavjud emas, aniqrog'i nol ko'rsatkichiga ega. Bu shakllar tashqi tomondan mutanosib holda faqatgina shaxsni ifodalaydi, xolos. Son ko'rsatkichi ko'plikni ifodalashini hisobga olsak, *-(i)m+iz*, *-(i)ng+iz* shaklida shaxslarga qo'shiladi va shakl murakkablashadi hamda nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Ilgari faqat I-II shaxs ifodasini berib turgan shakl endilikda son ko'rsatkichiga ham ega bo'lib, shaxs va son tushunchasi kelib chiqadi. Bu xususida professor Sh.Rahmatullayev shunday yozgan edi: "Egalik affikslari tarkibida odatda avval shaxs ko'rsatkichi, keyin son ko'rsatkichi joylashadi: *-m+iz*, *-ng+iz* kabi. Demak, I, II shaxs ko'plik affikslari shaxs ko'rsatkichi bilan son ko'rsatkichining birlashuvidan tarkib topgan"¹. Darhaqiqat *-(i)miz*, *-(i)ngiz* shakllari tarixda shaxs va sonning birlashishidan hosil bo'lgan murakkab – sintetik shakl hisoblanadi. Bunda son shaklining qayta tiklanishini ham kuzatish mumkin: *-(i)nqlar*, *-laring* shakllari kabi. Umuman olganda, *-(i)miz*, *-(i)ngiz* shakllari murakkab – sintetik shakllar bo'lib, ularning asl mohiyati ikki shakl bir mazmun ifodalash sharti bilan nomutanosiblik sodir etgan bo'lsa, mazmunning kengayishi egalik, shaxs-son semalarining o'rinlashuvi yangi nomutanosiblik uchun asos bo'lgan.

-(i)nqlar (-laring) shakli. O'zbek tilining keyingi davr taraqqiyotida yangi kategoriya – hurmat shakli yuzaga keldi. Sh. Rahmatullayev bu taraqqiyot yo'lini quyidagicha ko'rsatadi: "*-lar* hurmat shakli son kategoriyasining ko'plik shaklidan emas, balki egalik qo'shimchasi tarkibida qatnashadigan *-lar* ko'rsatkichidan o'sib chiqqan... egalik qo'shimchasi tarkibidagi son ko'rsatkichida ma'no taraqqiyoti voqe bo'ladi: Ko'plik – sizlash – hurmat.

Keyinchalik bu hurmat ma'nosi shaxs ma'nosidan ajralib, mustaqillik kasb etadi. Natijada *-nqlar* qo'shimchasi ham ikkiga: *-ng* egalik qo'shimchasi va *-lar* hurmat shakliga ajraladi (morfologik qayta bo'linish yuz beradi)".² Bunda qayta bo'linishdan boshqa hodisa sodir bo'lgan. Shu bilan birga, *-lar* affiksining hurmat

¹ Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 148.

² Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 187-188.

ma'nosi, shubhasiz, ko'plikni ifodalovchi *-larga* aloqador, buning egalik qo'shimchasi bilan qo'llanishi asosida yuzaga kelganligini inkor etish qiyin. *-lar* affiksining hurmatni ifodalash xususiyati uning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanish o'rniga ham bog'liq ekanligini nazardan qochirib bo'lmaydi: *opa+m+lar//opa+lar+im* kabi.

Demak, yakka-yakka ifodalangan dastlabki holatiga nisbatan nomutanosib holda, yaxlit bir shakl *-nglar* qo'shimchasi yuzaga kelib, qarindoshlikni ifodalovchi so'zlarga qo'shilib, hurmat ma'nosini bildiruvchi yangi morfema hosil bo'ladi. Shuningdek, *-larcha* shaklida taxmin, chama mazmunini ifodalashga ham xizmat qiladi: *minglarcha odam, o'nlaracha oliygoh* kabi. (Uning *boringlar* yoki *borlaring* tarzida qo'llanishi ham o'ziga xos xususiyatga ega.) Natijada *-(i)nglar* shakli ikki shaklning bir shakl sifatida ifodalanishi hisobiga nomutanosib bo'lib qoladi.

-niki shakli. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qarashlilik shakli deb qaraladigan *-niki* qo'shimchasi *-ning turur* analitik shaklining qisqarishi va oraga *-ki* affiksi orttirilishi natijasida paydo bo'lgan. Bu jarayon kesimlik pozitsiyasida amalga oshgan, chunki "ot va ot turkumidagi so'zlarning kesim vazifasida kelishi oldingi davrlarda bog'lama (predikativ affiks) orqali bo'lgan, ya'ni kesim vazifasida kelgan ot quyidagi uch morfemadan iborat bo'lgan: ot + bog'lama + shaxs-son. Bu holat eski o'zbek tilida ham ma'lum darajada saqlangan. Eski o'zbek tilida predikativ affiks vazifasini *tur* (turmoq), *er* (ermoq) fe'llari bajargan"¹. Bundan olmoshlar ham mustasno emas. Qaratqich kelishigi affiksi egalik ma'nosini bildirib, kelishik pozitsiyasida keladi: *Bu tayaq Musaning turur. Bu qamug' kimnung turur? Aydi: bu og'lannung turur. Og'lan kimnung turur? Aydi: Ibrahimmung.* (Rabg'uziy. "Qissasi Rabg'uziy")

-ning shakli ma'nosidagi qarashlilik, egalik, taalluqlilik ma'novazifasini kuchaytirish uchun qadimgi davrlarda keng ma'noli xoslik, egalik, qarashlilik, tegishlilik ma'nosini bildiruvchi *-ki* affiksi orttiriladi: *-ning + ki turur- > -nikidurur > -nikidir > -niki: bizniki, sizniki, do'stimniki* singari. *-ning + -ki + turur* shakllarining birikuvi genetik ma'nolarini yo'qotish hisobiga nomutanosiblikni keltirib chiqargan, natijada esa hozirda qo'laniladigan murakkab sintetik

¹ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент, 1973. –Б. 34.

shakli *-niki* hosil bo'lgan. Ya'ni *-niki* qo'shimchasi *-ningki turur* + shaxs-son qo'shimchasi modelining taraqqiyotidan tug'ilgan; keyinchalik *turur* bog'lamasining qisqarishi – reduksiyaga uchrashi *-niki* + shaxs-son affiksi ko'rinishiga olib kelgan.

Lingvistik adabiyotlarda *-niki* shakli aniq egalikni ifodalovchi birlik deyilgan va uning ishlatilishi haqida quyidagicha fikr bildirilgan: "Abstrakt egalik ma'nosining *-niki* yoki *-ningki* (*-ingki*) affiksi bilan ifodalanishi eski o'zbek tilida yo'q darajada bo'lgan. Bu affikslarning qo'llanishi XV asrdan keyingi davrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida ba'zan uchrab qoladi. Bunda ham asosan kishilik olmoshlariga qo'shilgan"¹.

-niki shakli tarkibiga vazifasi jihatidan har xil, lekin umumiy ma'nosi o'xshash – qarashlilik, tegishlilik, xoslik ma'noli birliklarning yaxlitlanishi tufayli uni turlicha izohlaydilar. G'.Abduraxmonov, Sh.Shukurovlar bu qo'shimchani abstrakt egalik qo'shimchasi, Sh.Rahmatullayev esa xoslik ko'rsatkichi, A.Hojiyev qarashlilik shakli deb ko'rsatadilar². Bizningcha ham, bu shakl qarashlilikni ifodalaydi.

-ning qo'shimchasi fonetik o'zgarish tufayli o'z sintaktik belgilaridan uzoqlashib, *-niki* tarkibida qarashlilik ma'nosini birmuncha saqlab qolgan, ikkinchi *-ki* komponentining ma'novazifasi esa sezilarli darajada saqlangan: qarashlilik asosida xoslik, tegishlilik ma'nosi bilan asosan kesimlik pozitsiyasida o'rinlashadi, ega-kesim munosabatini muvofiqlashtiruvchi affiks maqomini oladi. Uni shu vazifa xususiyatiga ko'ra predikativlik qo'shimchasi, morfologik shakl (sintaktik shakl yasovchi) deya baholash mumkin. Uch birlikning bir birlik shakliga o'tib shakliy nomutanosiblikni hosil qilayotgan bo'lsa, asl mazmundagi shakllarning turli darajada mavqelanishi mazmun nomutanosibligini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda *-niki* shakli yaxlit affiks holiga kelgan bo'lsa-da, ma'nosi umumlashganligi, mavhumligi sababli, tovush tarkibi yanada o'zgarishlarga uchraydi. Og'zaki so'zlashuvda u *-diki* (bizdiki qipchoq shevasida), *-iki* (biziki, siziki – Toshkent shevasida) kabi ko'rinishlarda ham ishlatiladi.

¹ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент, 1973. –Б. 33.

² Ҳозирги ўзбек адабий тили. I жилд. –Тошкент, 1980. –Б. 245 – 246; Раҳматуллаев Ш. От лексемага кўшиладиган баъзи форма ясовчилар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975. – №2. –Б. 36-37.

-choq, -loq, -gina shakllari. Otlarda erkalash shakli hisoblangan *-choq, -loq, -gina* shakllari ham, aslida, *-cha+q, -la+q, -gi+na* shaklida bo'lgan va ma'no-vazifani kuchaytirish ehtiyoji tufayli fuziya hodisasiga uchragan. Negaki, jahon tillarida ma'no vazifasi o'xshash, ma'nodosh qo'shimchalarning o'zaro birikishi ko'p uchraydigan hodisa hisoblanadi. Bu xil qo'shimchalar affiksial pleonazm jarayonining mahsulidir. *-la+q, -gi+na* shakllarining yaxlitlashuvi orqali bir sintetik shakl tusini olishi shaklan nomutanosiblikni ko'rsatsa, *-cha* kichraytirish shakliga *-q* shaklining qo'shilishi orqali erkalash shaklini hosil qilishi mazmun nomutanosibligini ko'rsatadi. Murakkablashish jarayonida asl shakllar sintetik shakllarga aylanib bir necha shaklning bir shakl qiyofasiga kelishi natijasida nomutanosiblik yuz beradi.

-imtir shakli. Sifatlardagi ozaytirma darajaning *-imtir* shakli bugungi kun nuqtayi nazardan qo'shma affiks ya'ni murakkab shakl hisoblanadi. Og'zaki nutq va shevalarda uning *ko'kimtil, oqimtil* shakllari ham uchraydi. Shakllanish jihatidan *-im+tir* shaklida soddalashib, ikki shaklning bir shakl tusini olishi shakliy nomutanosiblikni ko'rsatadi.

-gacha shakli. *-ga* jo'nalish kelishigi shakli va *-cha* noaniq miqdor shaklini qo'shilishi orqali murakkab – sintetik shakl hosil bo'lgan. Chunki chegara kelishigida yo'nalganlik va taxmin (noaniq miqdor) bor: *maktabgacha*. Bunda *-ga* shakli jo'nalish kelishigidan kelib chiqqanligi ma'lum bo'ladi. *-cha* esa (*-gacha, -tacha, -larcha* shakllarida ham) ko'p ma'noli, shakldosh affiks bo'lib, Sh.Rahmatullayev tomonidan turlovchi va tuslovchilardan keyin yasovchi qo'shilmasligini hisobga olib, shakl yasovchi affiks¹, M.Asqarova tomonidan taxmin yoki chama², taxmin miqdorni kuchaytiruvchi³, A.N. Kononov tomonidan chegara affiksi yoki ekvativ⁴, keyingi davrlarda esa ravish yasovchi sifatida qayd etiladi. *-cha* shaklining *uycha* – kichraytirish; *raischa, hokimcha* – piching; *sariqcha* (odam) – o'xshatish; *hozircha* – ta'kid; *bir chaqirimcha yo'l, uycha kattalik, osmoncha sevmoq, zig'ircha aql* – taxmin (noaniq miqdor, qisman chegara); *shuncha* – chama-

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –B. 205.

² Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 325.

³ Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М.; Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. –Б. 279.

⁴ Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания, 1976. – №4 –С. 13.

miqdor; *o'zicha* – piching; *yashirincha* – ravish yasovchi; *kaltacha*, *sholcha*, *bog'cha*, *olacha*, *ko'rpacha*, *qizilcha*, *ko'kcha*, *naycha* singari so'zlar tarkibida agglyutinatsiya tufayli (kichraytirishdan soddalashishga o'tish hisobiga) qotib qolgan birliklar tipidagi mazmun va shakllari mavjud. Yuqoridagi misollardan anglashiladiki, “-cha”ning noaniq miqdor ifodalash vazifasi ham bor. *-gacha* shaklidagi *-cha* morfemasi noaniq miqdor (qisman chegara) shakli asosida yuzaga kelgan. Demak, shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltirayotgan *-ga* va *-cha* shakllaridan *-gacha* sintetik shakli hosil bo'lgan. Ikki shaklning bir mazmunga birikishi shaklga nisbatan nomutanosiblikni ko'rsatsa (*-ga+cha* – *-gacha*), ikki mazmunning bir mazmun ifodalab qolishi (kelishik, yo'nalganlik + noaniq miqdor, taxmin – chegara kelishigi, xoslik shakli) mazmunga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltirmoqda.

-tacha shakli. *-tacha* shakli tarkibidagi *-ta* dona son shaklini saqlagan holda *-cha* chama mazmunini ifodalovchi shakl bilan murakkablashadi. Natijada *-tacha* murakkab – sintetik shakl hosil bo'ladi (qo'shma affiks). *-ta* dona son shakli ekanligi ma'lum bo'lsa, yuqorida isbotlangan *-cha* shaklining taxmin, chama mazmuni (M.Asqarova) oydinlashib, ikki shaklning bir mazmun ifodalashi, murakkablashuvi *-tacha* ko'rinishidagi chama son shaklini hosil qiladi. Bu jarayon ikki shakl (*-ta+cha*)ning bir shakl (*-tacha*)ga aylanishi shakliy nomutanosiblikni ifodalasa, ikki mazmunni (dona son+chama, taxmin) bir mazmun (chama son) sifatida ifodalanishi mazmuniy nomutanosiblikni ko'rsatadi.

-tadan shakli. Taqsim son shaklini ifodalaydigan *-tadan* shakli ham ikki qismdan iborat bo'lib, *-ta* dona son shaklini saqlagan holda *-dan* kelishik shakli o'z mavqeyini yo'qotgan holda qo'shiladi:

1) *o'ntadan ikkitani ayirsak*; 2) *har biriga uchtadan bersak* kabi. Birinchi misolda chiqish kelishik shakli o'z mavqeyini saqlagan holda dona sonni ifodalayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda kelishik shaklini emas, taqsim sonning tarkibiy qismi bo'lib kelmoqda. Bu jarayonni aslida boshqacharoq talqin qilsak, masalaga yanada oydinlik kiritiladi. Sonlarning numerativ (hisob so'z)lar bilan ifodalanishi fanda ma'lum. Shu asnoda *beshta qutidan bermoq* – *beshtadan quti bermoq*; *har biriga beshta*

qopdan ajratmoq, har biriga besh qopdan ajratmoq, har biriga beshtadan qop ajratmoq kabi sintagmalarda *-dan* shaklining o'z mavqeyini tiklash mumkin. Bu holatda *-tadan* shaklining tarkibi *-ta* dona son va *-dan* chiqish kelishigi shakllarining zich birikuvi orqali hosil bo'lganligi oydinlashadi. Demak, bu jarayonda ham shakl va mazmun nomutanosibligi mavjud.

-larcha shakli. Jamlovchi son ko'rsatkichi hisoblangan *-larcha* sintetik shakli ikki morfema birikuvidan hosil bo'lgan. *-lar* taxmin, chama mazmunidagi shakl (yuqorida izohi berilganligi uchun qo'shimcha izoh qilinmadi) va *-cha* kuchaytiruvchi (M.Asqarova) mazmunidagi shaklning zich birikishi orqali hosil bo'lgan murakkab shakl (qo'shma affiks) hisoblanadi. Yuqoridagi izohlardan ko'rinadiki, bu murakkab – sintetik shakl ham shakl va mazmun nomutanosibligi asosida yuzaga kelgan. Demak, son paradigmasida *-tacha, -tadan, -larcha* sintetik shakllari hosil bo'lishi va mazmun anglatishi nuqtayi nazardan nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi.

-moqda, -moqchi shakllari. Ma'lumki, qo'shma, juft va takroriy so'zlar, so'z birikmasi hamda gap (sodda gap, qo'shma gap) andozalari tarixiy taraqqiyotning mahsulidir, qolaversa, morfologik kategoriyalar, so'z yasalishidagi qoliplar ham bundan mustasno emas. Bunday qoliplar lisonda tayyor holda ifodalanadi. Til qoliplari va ularning mahsuli bo'lmish shakllar (xoh sodda, xoh qo'shma so'z bo'lsin) xotirada yaxlit holda saqlanuvchi va shu tarzda namoyon bo'luvchi birliklardir, *ikkilanmoqda, ikkilanmoqchi* so'zshakllarini sintagmatik jihatdan *ikki-la-n-moq-da, ikki-la-n-moq-chi* tarzida ajratish ham mumkin. Bu holat tilda turli nomutanosibliklarni yuzaga keltiradi. Lekin bu tilning diaxronik tabiati, til sistemasidagi paradigmatic munosabatlarni hisobga olmaslik, til taraqqiyotini inkor etish natijasi sifatida amalga oshadigan ajratishdir. Negaki, yuqoridagi ajratish tarixiy ajratish bo'lib, hozirgi tilda *-lan* (ikkilan, shodlan) yaxlit sintetik shakl (qo'shma affiks) maqomini kasb etgan (*ikkila-, shodla-* kabi yasalmalar yo'q, agar mavjud bo'lgan holatda ham, shaklni paradigmada va sintagmada o'rinlashuvini hisobga olish kerak. Shu sababli hozirgi tilda *ikki-la-n* emas, balki *ikki-lan* tarzida qismlarga ajratish to'g'ri); *-moqda, -moqchi* sintetik shakllari (murakkab

shakl, qo'shma affiks) ma'no-vazifa jihatidan zamon (hozirgi zamon), mayl (maqsad mayli) ko'rsatkichlariga aylangan, muntazam ishlatiladigan qolip birliklaridir. Shu sababli ham shakllarning birikuvi shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga chiqarmoqda. Ma'lum andazalar asosida hosil bo'lgan qo'shma birliklar har gal nutqda tuziladi, nutq jarayoni tamom bo'lgach, tashkil etuvchi qismlari yana xotiraga qaytadi deb talqin etadigan bo'lsak, ranglar bilan bog'liq: *Qorabotir, sariqqasal (gepatit B), oqterak, qizilishton, ko'kyo'tal, qizilo'ngach, qorason, ko'kcha, qizilcha* qismlari (qora, botir; sariq, kasal; oq, terak; qizil, ishton; ko'k, yo'tal; qizil, o'ngach; qora, son; ko'k, -cha; qizil, -cha) har bir so'zlovchi tomonidan har gal yangidan tuziladi, deb e'tirof etishga to'g'ri kelar edi. Aslida bunday bo'lmaydi. Lekin yuqoridagi qo'shma so'zlar o'z nominativ – semasiologik belgisiga ko'ra yaxlit til birligidir, shu sababdan, ular har gal nutqda tuzilmaydi va bu nutqqa nisbatan mutanosib holat. Xuddi shuningdek, tashqi tomondan qismlarga ajraladigandek tuyuladigan *-moqda, -moqchi* kabi shakllar nutqda tayyor holda tegishli asoslarga qo'shilaveradi: *yurmoqdaman, yozmoqchi* kabi.

A.M.Shcherbak turkiy tillarning qiyosiy morfologiyasiga oid ishlarida harakat nomi shakllari haqidagi an'anaviy qarash, ya'ni ularning ot hamda fe'l oralig'ida turuvchi hodisa kabi talqiniga munosabat bildirib, ularning aslida fe'lga qaraganda ot (ism)larga yaqin turishini ta'kidlaydi. Bu yaqinlik shundaki, ozarbayjon va turk tillaridan farqli holda so'z yasovchi hamda shakl yasovchilar (son, egalik, kelishik qo'shimchalari)ni qabul qila olish qobiliyati tufayli o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, uyg'ur tillarida subyektiv harakat nomlari deb tavsiflanadi¹.

Fe'llarda zamoni hosil qilivchi *-moqda* sintetik shakli bugungi kunda tayyor (qismlarga ajralmagan) holda ishlatiladi. Buning asosiy sabablaridan biri *-moq* shaklidan so'ng shaxs-son shaklini kelmasligidir: *bormoqman, bormoqsan...* tipidagi holat mazmunsiz bo'lib qoladi. Shu sababli *-moqda* sintetik shakli tarkib jihatdan zich birikib, fe'llarga qo'shib zamon paradigmasini hosil qiladi va shaxs-sonda tuslanishini ta'minlaydi: *ketmoqdaman,*

¹ Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Имя). –М.: Наука, 1977. –Б. 158-159.

ketmoqdasan, ketmoqda; ketmoqdamiz, ketmoqdasiz, ketmoqdalar. Xuddi shu holatda *-moqchi* mayl shaklini ham keltirish mumkin: *o'qimoqchiman, o'qimoqchisan, o'qimoqchi; o'qimoqchimiz, o'qimoqchisiz, o'qimoqchilar* kabi. Garchi *ket+moq-da, o'qi+moq-chi* tartibida qismlarga ajratilsa-da, paradigma ifodasiga ko'ra *-moqda* yaxlit zamon, *-moqchi* yaxlit mayl shaklini ifodalaydi. Bu holat shakl va mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqaradi.

-digan, -yotgan shakllari. Aslida, *-digan* (bara tururg'on), *-yotgan* (yotirgan) shakllari fe'l analitik shakllarining qisqarishidan paydo bo'lgan sifatdash shakllaridir. *-gan* sifatdash qo'shimchasi aniqlovchilik vazifasida fe'lning zamon shakllaridan so'ng shaxs-son qo'shimchalari egallaydigan pozitsiyada kela olmaydi. *Ishla-y-man, ishla-y-san, ishlay-di; ishla-y-miz, ishla-y-siz, ishla-ydi-lar* (III shaxsdagi *-di* elementi, aslida, *turur* shaklining qoldig'i ekanligi ma'lum: *ishlay durur – ishlay+dur – ishlaydir – ishlaydi*). Ayni shu yo'l zamon ko'rsatkichining shakllanish yo'lidir. Demak, darslik va ilmiy manbalarda *ishlaydi* ko'rinishidagi shakllardan *-di* shaxs-son ko'rsatkichi ma'no-vazifasi shu morfema vositasida ifodalanadi: *ishla-y-man, ishla-y-san, ishla-y-di; -di* esa "qoldiq" morfema sifatida shu vazifani ham bajaradi. Mazkur holat zamon asoslariga *-gan* affiksining qo'shila olmasligidan dalolat beruvchi muhim belgi hisoblanadi. *-digan* sifatdashining soddalashuvi (*-di+gan*) tarixiy taraqqiyot bilan bog'liq. *-yotgan* sifatdashining soddalashuvi esa *-yot* unsurini bugungi kunda ma'no anglatmay qolishi yoki asos tarkibiga yolg'iz qo'shila olmasligidadir. Demak, bu holat ham nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. Shuningdek, **-ajak** shakli tarkibidagi *-a* unsurining tutashtiruvchi vazifasiga o'tishi ham nomutanosiblikning bir ko'rinishini ifoda etadi.

-adi shakli. O'zbek tiliga xos bo'lgan agglyutinativ-analitik tuzilishdan kelib chiqib, shuni qayd etish kerakki, ikki so'zning yonma-yon, yondosh kelishi natijasida ikkinchi so'z o'z ma'no-vazifasidan uzoqlashib qoladi va dastlab ko'makchi so'zga, so'ng esa qo'shimchaga aylanadi. A.Nurmonovning fikricha, "grammatik qo'shimchalarning qo'shilishi asos qismning fonetik tuzilishini o'zgartirmaydi"¹. Shu sababli morfologik shaklga aylangan birlik asosga yangi ko'rinishi bilan birikadi. Mustaqil so'zlarning fuziyaga

¹ Nurmonov A. Sobirov A. Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2011. –B. 141.

uchrab morfologik shakllarga aylanishi diaxron jihatdan ko'p kuzatiladi. Bunday holatlarga fe'l so'z turkumi nisbatan ko'p tortiladi. Masalan, *kula turur – kuladur – kuladi; ko'rib turur – ko'ribdur – ko'radur – ko'radi* kabi misollarda ikki so'zning birikishi til morfem qurilishida *-adi* morfemasini hosil qilgan. Natijada ikki so'z va morfologik shakl o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelgan.

-guncha, -gancha shakllari. Sh.Rahmatullayevning fikricha, "oraga egalik qo'shimchasini "kiritish mumkinligi" *-guncha* yaxlit affiks emasligini isbotlab turadi: *-gun+im+cha*. Murakkab affiks ichiga forma o'zgartiruvchi affiksni kiritib bo'lmasligi – aksioma"¹. Tadqiqotda yuqoridagi fikr yana shu jihatni xarakterlaydiki, ayrim yaxlit til birligi – sintetik shakl (qo'shma affiks) qismlari orasida ma'lum vazifadagi mustaqil affiks paydo bo'lishi mumkin: jumladan, ravishdoshning *-guncha, -gancha* shakllarida shunday hodisa kuzatiladi: *kelguncha – kelgunimcha, kelguningcha, kelgunicha; kelgunimizcha, kelguningizcha, kelgunlaricha; kelgancha – kelganimcha, kelganicha... -guncha* sintetik shakli orasiga shaxs-sonning qo'shilib qolishi kuzatiladi va bu o'ziga xos nomutanosiblik hisoblanadi: *kel+ gun(+im)cha* kabi.

Dunyo tillarida, jumladan, turkiy tillar va o'zbek tilida qo'shma va murakkab affikslar tarkibida morfologik shakllar (so'z o'zgartiruvchi affikslar)ning joylashuvi umumlisoniy xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslikda *-guncha* shakli *-gancha* shaklining tovush o'zgarishidan (*-guncha < -gancha*) paydo bo'lgan degan qarash bor. Sh.Rahmatullayev o'z vaqtida A.N. Kononov tomonidan taklif etilgan etimologiyaga tayangan holda (*-gun+cha: chog'*) *-gun* va *-gan* qismlari asli bir affiksning ikki fonetik varianti (shakli) degan xulosaga keldi. Lekin bu shakllarning genetik tabiati, diaxron jihatdan tamomila boshqa ekanligi keyinchalik A.N. Kononov tomonidan alohida e'tirof etilgan edi: *-guncha* shakli, aslida, *-gu* (kelasi zamon sifatdoshi) hamda *-cha* (chegara affiksi yoki ekvativ); *-gan* esa *-g* (orttirma daraja ko'rsatkichi) *+n* (sifatdosh+ravishdosh affiksi)dan iborat; *-guncha* tarkibidagi *-n* egalik kategoriyasining qoldig'idir; *-guncha*

¹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилидаги бир синтактик қурилма ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1992. №2 –Б. 16.

affiksi tarkibidagi *-gun* o'tgan zamon sifatdoshi, buning ustiga, fe'l sifatlovchi deb tan olinadigan bo'lsa, u qanday qilib "kelasi vaqt chegarasi"ni bildirishi mumkin?¹ Ma'lumki, qadimgi turkiy tilda chog'ishtirish, o'xshatish, chegara, taxmin kabi ma'no ottenkalarini bildiruvchi yoki ifodalovchi *-cha* (chegara – ekvativ) affiksi amal qilgan. (Aslini qaraganda, bunday mazmunning keng ifodalanishi tildagi bir shaklga nisbatan olinadigan bo'lsa, mazmun nomutanosibligini yuzaga chiqarmoqda.) Ayni ana shu affiks keyinchalik *-larcha*: (yuzlarcha: chama, taxmin), *-tacha* (o'ntacha: taxmin), *-larcha* (bolalarcha: o'xshatish), *-gacha* (uygacha: chegara) qo'shma affikslari tarkibiga singishgan va yaxlitlashgan. Taraqqiyot natijasida soddalashgan. Shu sababdan tilning qadimgi davridayoq affiks maqomiga to'la ega bo'lgan *-cha*, *-dek* morfemalarini goh yuklama – affiks, goh ko'makchi – affiks deb nomlash, ularning imlosini o'zgartirib, chiziqcha bilan yozishga asos yo'q. Yaxlit morfema orasiga sintaktik ehtiyoj tufayli egalik shakllarining orttirilishi o'z izohiga ega: ayrim hollarda yaxlit til birligining "uzilishi", oraga ba'zi elementlarning kiritilishi tipologik jihatdan xilma-xil tillarga xos hodisadir. Bu jarayon o'zbek tilida ham ko'plab kuzatiladi. *-guncha* – *-gancha* (ravishdoshi); *-gun* – *-gan* (ravishdosh); *-larcha* – *-tacha* (sonlarda taxmin) shakllari morfologik sintagmalar tarkibida shaklga nisbatan nomutanosiblikning diaxron ko'rinishini; *-larcha* (chama, taxmin: *yuzlarcha* – o'xshatish: *bolalarcha*), *-gacha* (ko'makchi affiks – qadar) shakllari esa morfologik sintagmalar tarkibida mazmunga nisbatan nomutanosiblikning sinxron ko'rinishini ifodalamoqda.

Sh. Rahmatullayev: "Tom ma'noda ikki affiksning qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab affiksdan, ikki morfemaning yonma-yon kelishini farqlash lozim", – deb to'g'ri ta'kidlaydi. "Lekin, – deb yozadi muallif, *-ga*, *-cha* murakkab affiks emas, chunki uning tarkibi *-ga* affiksiga va *-cha* morfemasiga ajraladi"². Keyingi birlik o'zidan oldin kelishik affiks qatnashuvini talab qiladi, go'yo "boshqaradi"; affiksga esa bunday xususiyat xos emas. Bu morfema tashqi ko'rinish asosidagina affiksga tenglashtirib yuborilgan, asli ko'makchi – affiks deb baholanishi to'g'ri: *Sirdaryoga qadar* –

¹ Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания, 1976. – №4 –С. 13.

² Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилидаги бир синтактик қурилма ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. 1992. №2 – Б.16-18.

Sirdaryogacha haqiqatan ham, bu o'rinda, qadar ko'makchisiga ma'nodosh, vazifadosh bo'lib kelayotganligi aniq. Shunga ko'ra, -*gacha* birikuvidagi holatda tub ma'nodagi qo'shma affiks hali shakllanmagan deb hisoblash lozim.

O'zbek tilshunosligida ko'makchilar o'zidan oldin kelgan so'zni "boshqaradi" degan an'anaviy qarash hamon mavjud. Holbuki, ko'makchilar (analitik vositalar) ham, kelishik affikslari (sintetik vositalar) ham ikki mustaqil so'z (ot+fe'l)ning birikishi (valentligi)ni ta'minlaydigan, ularning munosabatga kirishuvi uchun "ko'prik" bo'ladigan yordamchi birliklardir. Shu sababli ham ko'makchi birliklarini faqatgina boshqarish uchun xoslangan deyish to'g'ri bo'lmaydi. Shuning uchun ular bir so'zga emas, balki ikki so'zga taalluqli bo'lgan, ularni "ushlab" turadigan morfemalardir. Solishtiring: *kitobcha, qizaloq, ko'chalar; ishchan, sizla* kabi so'zlardagi *-cha, -loq, -lar, -chan, -la* morfemalari bir so'zga taalluqli birliklardir.

"-*gacha* shaklida ikkinchi qism (-*cha*)ning ma'nosi aktual bo'lib, *-ga* – tutashtiruvchi (asemantik) birlikka aylangan; ikkinchidan, mustaqil shakl bo'lganidan, *-gacha* (uygacha, shahargacha) bog'lanib keladigan fe'llar bilan *-ga* jo'nalish kelishigi bog'lanadigan fe'llar farqlanadi"¹. Tutashtiruvchi birlikning ma'nosizlanishiga esa o'z vazifasini yo'qotishi sabab bo'lgan. Bunda *-ga* elementi jo'nalish kelishigi xususiyatida emas, ikki birlik *-ga+cha* soddalashib bir shaklga aylangan.

Demak, hozirgi tilda *-guncha, -gacha* kabi shakllar xuddi *-gudek* (kelgudek: *-gu*: kelasi zamon sifatdoshi), *-larcha* (o'nlar), *-tacha* (yuztacha) qo'shma affikslari kabi yaxlit til birliklari bo'lib, agar ularning tashkil etuvchilari alohida-alohida olib qaraladigan bo'lsa, til sistemasiga tegishli paradigmalardagi binar-oppozitivlik munosabatlariga putur yetadi. Chunki har bir til elementi, sodda yoki qo'shmaligidan qat'iy nazar sinxron sistemada o'z o'rni va mavqeyiga ega. Albatta, ko'makchilar ham, yuklama va bog'lovchilar ham muayyan vazifada morfemik maydonga tortiladi. Morfem sintagmatikada ularning ham o'ziga xos o'rni va hissasi bor. Bunday birliklarni tarkibga ajratib o'rganib bo'lmaydi. Demak,

¹ Хожиев А. Хозирги ўзбек тилида форма ясалиши. –Тошкент: Ўқитувчи, 1979. –Б. 42-48.

shakllarning murakkablashuvi natijasida hosil bo'lgan analitik shakllar, sintetik shakllar, murakkab shakllar, kengaygan shakllarning tarkibi bugungi kunda yaxlit o'rganilib, asli mohiyatiga nisbatan nomutanosib bo'lib qolgan.

Umuman olganda, *-guncha (-kuncha, -quncha)*, *-gancha (-kancha, -qancha)* ravishdosh shakllari o'z taraqqiyotida *-gan* sifatdoshi va yuqorida qayd etilgan *-cha* shakli yordamida hosil bo'lgan. Sifatdoshning ravishdoshga o'tishida miqdor, kuchaytiruv, qisman chegara ma'nolarini ifodalovchi *-cha* shaklining roli katta. *-cha* shaklining ravish yasashi, ravishga xos boshqa mazmunlarni ifodalashi *-gan* sifatdosh shakli bilan birikkan holda yangi mazmunning "o'sib chiqishiga" sabab bo'lgan. Natijada, ilgari ifodalangan sifatdashlik va kuchaytiruv mazmunlari ravishdoshning yangi shakliga "joy ajratib" bergan. Bu holat nomutanosiblikni yuzaga chiqarish bilan bir qatorda, murakkab – sintetik shaklning paydo bo'lishiga olib keladi.

-yapman, -yapsan shakllari. Ikki qismdan tashkil topgan bu sintetik shakllar boshqa shakllardan biroz farq qiladi. Tarkibdagi har ikki shakl ham tarixan so'zlardan hosil bo'lganligi ma'lum. Bu shakllar boshqa murakkab – sintetik shakllar kabi yaxlitlanmagan. Chunki bu shakllarning har bir qismi o'z mavqeyi va maqomini saqlab qolgan. *-yapman, -yapsan* shakllarining yaxlit bir sintetik shakl doirasida qaralishining asosiy sababi *-yap* shakli zamoni, *-man, -san* shakli shaxs-sonni ifodalasa-da, zamon shakli asosga yolg'iz o'zi qo'shila olmaydi (*tur+yap, so'r+yap, kul+yap* shakllari ma'no qiymatiga ega emas). Shu mazmunda ikki shaklning bir sintetik shaklga kelib qolganligi nomutanosiblikning belgisidir. Murakkab shakllarning sintetik shakllar turida aniqlangan nomutanosibliklar shuni ko'rsatadiki, taraqqiyotning turli davrlarida shakl va mazmun o'zaro mutanosib bo'lmay qoladi. Bo'lim doirasida qayd etilgan morfologik shakllar tarkibi zich birikib ketib sintetik shakllarni hosil qilgan.

Umuman olganda, o'zbek tilida sodda va qo'shma birliklarning farqi ularning tuzilishida bo'lib, ma'no jihatidan esa ular hamma vaqt ham farqli belgilarga ega emas. Morfem tahlilda affikslarning qismlari faqat nutqda birikadi, ularning yaxlitligi sintagmatikada ko'rinadi deb, ikki bosqichli morfem tahlil, so'ng funksional tahlil qilish til sistemasida amal qiluvchi ikki fundamental jihat – paradigmatika va sintagmatika munosabatini nazarda tutmaslik oqibati (ma'lumki, fonema, morfema, so'z va so'z yasash modellari, so'z birikmasi va gap andazalari xotirada saqlanuvchi, sintagmatikada ham shu tarzda namoyon bo'luvchi til birliklaridir) hisoblanadi. Shuning uchun sintetik shakllarni ma'noli qismlarga bo'lish mumkin bo'lsa-da, paradigma nuqtayi nazardan yaxlit shakl ko'rinishida olib qarash, yaxlit shakl sifatida tahlil qilish to'g'ri xulosalar chiqarishga olib keladi.

Mazmun talabi bilan sodir bo'lgan, tahlilga tortilgan murakkablashgan (sintetik) shakllar tilda o'ziga xos nomutanosibliklarni yuzaga chiqaradi. Shaklning mazmunga, mazmunning shaklga bo'lgan munosabati birliklar orasidagi bog'lanishni mustahkamlab, uzilmas holatga olib kelgan. Qo'shimchalarning murakkablashuvi soddalariga nisbatan nomutanosib bo'lib, yaxlitlashgan holatda ifodalanadi.

2.2-§. Kengaygan shakllar taraqqiyotidagi Nomutanosibliklar

Murakkab shakllar orasida kengaygan shakllar o'ziga xos o'rin egallaydi. Kengaygan shakllar tashqi tomondan sintetik shakllar (qo'shma affiks)larga o'xshab ketadi. Kengaygan shakllar bilan qo'shma affikslar orasida muhim tafovutlar bor. Masalan, qo'shma affiksning ma'nosi tarkibidagi qismlar (-im+iz, -ni+ki, -im+tir, -ga+cha, -ta+cha) ma'nosining yig'indisidan iborat bo'lishi shuningdek, yangi bir ma'no hosil qilishi (-imiz, -niki, -imtir, -gacha, -tacha) lozim. Kengaygan shakllarda esa bir qismning alohidaligi

bilinib turadi: bunda murakkab shaklning qismlari zichlashib, semantik yaxlitlashib, ajralmas holga kelib qolgan bo'lsa, kengaygan shakllarda qismlar hali zichlashmagan, yaxlitlashish kuchsiz, qismlar orasidagi aloqa mustahkamlanmagan, kuchaytiruvchi, qo'shimcha ma'no beruvchi qism bilan kengaygan bo'ladi: *-ayin, -ingizlar, -ibon* kabi. Bu xil shakllarning yuzaga kelishi so'zning oxiri boshlanish qismiga nisbatan qisqarishga moyil ekanligini ko'rsatadi.

Har bir so'zning mazmun-vazifa jihatidan biror pozitsiyadagi mavqeyini mustahkamlash uchun A. G'ulomov ta'biri bilan aytganda, kuchaytiruvchi affikslar yordamga keladi. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili morfologik qurilishida tashqi tomondan qo'shma affikslarga o'xshab ketadigan bir qancha birliklar mavjud. Turkiy tillar o'zak va qo'shimchalar tizimidagi ana shunday birliklarni taniqli turkiyshunos olim P.M.Melioranskiy "kengaygan" deb nomlagan edi. Uning fikricha, "*so'r-so'ra, qiz-qizi, bit-biti, bur-bura* shakllaridagi ikkinchi qism – "qisqa" o'zaklarning "kengaygan" shaklidir"¹. Ular til tizimidagi jarayonlarning hosilasi hisoblanib, nutqda turli sema nomutanosibliklarini yuzaga chiqaradi. E.V.Sevortyan "kengaygan o'zakdagi unlini tor unli sifatida ta'riflab, uni "takror" intensivlik ma'nosini bildiruvchi qo'shimcha maqomi bilan affiksatsiya tizimiga mansub"² deb aytgan edi.

Turli davrlarda til tizimidagi ma'no o'zgarishlari o'zakning murakkablashuviga olib keladi. Semantik "xiralashgan", ishlatilish doirasi cheklangan affikslar asos tarkibiga yaxlitlanadi, avvalgi ma'noni qisman tiklash, kuchaytirish uchun yangi faol birlik (affiks) orttiriladi. Fuziya qonuniyati tufayli hozirgi o'zbek tilida ham qisqa shakllarning "kengaygan" shakllari mavjudki, ularning bir qismi shakl jihatidan qo'shma affikslarga o'xshab ketadi. Biroq ularning orasida muhim tafovutlar borligi ushbu hodisalarni turli maqom va mavqega ega bo'lgan birliklar sifatida o'rganish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Ba'zi manbalarda so'z tarkibidagi biror struktur element ma'no tashuvchi vazifada kelmay, faqat uslubiy vazifa bajarsa, u

¹ Мелиоранский П.М. Араб-филолог о турецком языке. – СПб., 1900. –С. 59-64.

² Севортян Э.В. Аффиксы глаголообразования в азербайджанском языке. –М., 1962. –С. 436.

asemantema hisoblanishi kerak, tarzidagi qaydlar uchraydi. Bu tezis shakllardagi uslubiy qirralar, emotsional-ekspressiv nozikliklardan farqli holda, soʻzning maʼno tuzilishidan tashqarida turadi, degan fikrga asoslanadi. Ammo oʻzbek tiliga xos kengaygan shakllarning fakultativ elementini asemantema, interfiks kabi baholashga asos yoʻqdek. Chunki bular, birinchidan, maʼlum shaklning tarkibiy qismi hisoblanadi, ikkinchidan, soʻzning maʼno tuzilishi bilan bogʻlangan ekspressiv maʼnolar (kuchaytirish, mustahkamlash) bildirib keladi; ayrimlari ushbu vazifa bilan birga (masalan, “-ganlik”dagi -lik) tegishli grammatik vosita rolini ham bajaradi. Bu boʻlimda ana shunday tashqi tomondan qoʻshma affiksga oʻxshab ketadigan, lekin ikkinchi qismida maʼno susayishi kuzatilgan, birinchi qism maʼnosiga qoʻshimcha maʼno berib turadigan morfologik kengaygan shakllar va ularning taraqqiyotidagi nomutanosibliklar haqida fikr bildiramiz.

-inglar shakli. Tarixiy taraqqiyot bosqichlarida turli asos morfemalar va affikslar maʼlum darajada rivojlanadi, oʻzgaradi. Bu taraqqiyot til birliklarining oʻzgarishi (maʼnosi, vazifasi va shaklining kengayishi, torayishi)ga sabab boʻladi. Morfologik shakllarning bunday shakl va mazmun munosabati uzoq tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanib, tilda shaklga nisbatan nomutanosibliklarni koʻrsatadi.

A.Kononov maʼno va vazifasi oʻxshash qoʻshimchalarning yangi butunlik – qoʻshma affiks tarkibiga yaxlitlanishi yoki maʼno-vazifasi susaygan affiksga xuddi shu maʼno-vazifadagi mahsuldor affiksning orttirilishi turkiy tillar, oltoy tillari, umuman, dunyo tillarida keng tarqalgan hodisalardan biri ekanligini taʼkidlagan edi¹. Haqiqatan, bunday kengayish turkiy tillarda, shu jumladan, oʻzbek tilida qadimdan keng tarqalgan hodisadir. Buni buyruq-istak maylining II shaxs koʻplik va birlik shakllarining paydo boʻlish tarixi va oʻzaro munosabatida koʻrish mumkin. Turkiy tillar qatorida oʻzbek tili tarixida ham ushbu mayl II shaxs koʻpligi uchun *-nglar, -ngiz, -ngizlar* qoʻshimchalari keng ishlatilgan.

Feʼllarda buyruq-istak mayli hisoblangan *-inglar* shakli II shaxs koʻplikni ifodalaydi: *bolalar, vazifani bajar-inglar*.

¹ Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания. 1976. – №4. –С. 8.

Sintagmada berilgan *-inglar* shakli ma'no va mazmun holatiga ko'ra mutanosib ifodalanadi. Ya'ni mazmun nuqtayi nazardan II shaxs tomonidan berilayotgan buyruq-istakni shu shakl yuzaga keltirmoqda. Masalaga boshqa tomondan qaralganda esa, ayni shu mazmunni buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik *-ing* shakli ham ifodalaydi: *bolalar, vazifani bajar**ing***. Bu holatdagi *-ing* shakli ham ma'no va shaklda mutanosibdir. Agar ikki shakl (*-inglar, -ing*) ham bir mazmunga xizmat qilsa, bunda ikki shakl birligiga bir mazmun birligi to'g'ri kelib, shakl nomutanosibligini hosil qiladi. Chunki aynan bir mazmunni ifodalayotgan ikki shakl bir-biridan qaysi jihati bilandir farq qiladi. Ikki shaklni ajratib turadigan yagona jihat bu *-lar* shaklidir.

Yuqorida qayd etganimizdek, ayrim shakllar o'zlarining vazifasini kuchli egallash maqsadida, o'zlari bilan mazmunan mos keladigan bir shaklni olib kengayadi. *-ing* mayl shakli ham hurmat mazmuniga tortilib, ko'plik mazmuni susayib borayotganligi uchun II shaxs ko'plikni mustahkamlash va tiklash maqsadida yana bir ko'plik shakli bilan kengayadi. Natijada biz bilgan *-lar* ko'plik shakli *-ing* mayl shakli bilan birikib, o'z mavqeyini qisman yo'qotadi va maylni kuchaytiruvchi, tak'idlovchi unsuriga aylanadi. Bu yerda *-lar* shakli faqatgina kuchaytiruvchi, ta'kidlovchi ma'nosida emas, ko'plik shakli sifatida ham e'tirof etilsa, *-ing* ko'plik mayl shaklida pleonazm yuz bergan deyishga asos bo'ladi.

Agar *-ing* mayli ko'plik sonda emas, hurmat mazmunida yakka shaxsga qaratilgan bo'lsa, bunda "*-lar*"ning keragi bo'lmay qoladi. *Otaxon, o'tiring(lar?)*. Demak, fe'llarning buyruq-istak mayli hisoblangan *-ing* shakli II shaxsda *-lar* ko'plik shaklini olib kengayadi: *-inglar – do'stlar, keling; do'stlar, kelinglar* kabi. Bu kengayish asl shaklga nisbatan shakliy nomutanosibdir: *bor**ing** – boringlar*.

-(i)ngiz, -(i)ngizlar shakllari. Buyruq-istak maylining II shaxs ko'pligini hosil qiluvchi shakllar *-ngiz, -ngizlar* uchun bazaviy asos mavqeyini *-ng* bajaradi. Bu affiks qadimgi turkiy til materiallarida jamlilik-ko'plik affiksi sifatida amal qiladi (A.N.Kononov asarlariga qarang). Keyinchalik bu qo'shimchada ko'plik ma'nosining xiralashishi va hurmat shakliga aylana borishi bilan ko'plik ma'nosini tiklash ehtiyoji ko'plikning boshqa

ko'rsatkichlari: *-z* va *-lar* orttirilishiga olib kelgan. O'z navbatida, *-z* affiksining arxaiklashgani sababli *-ngiz* shakli hurmat ko'rsatkichiga aylangan. Bu esa shakliy nomutanosiblikni yuzaga keltiradi.

Demak, buyruq-istak mayli paradigmasida turkiy adabiy tillarning shakllanishi va farqlana borishi bilan har xil areal, dialektal tarqalishga ega bo'lgan *-ng*, *-z*, *-lar* o'zaro qo'shilishdan ikki yo'nalishda – grammatik va modal yo'nalishda yangi shakllar hosil bo'lgan: *-ng*, *-ngiz* shakllarida modal ma'nolar ustun kelib, shaxsga hurmat ma'nosi uchun ishlatila boshlaydi. Dastlabki davrlarda *-ngiz*, *-nglar*, *-ngizlar* ma'no tarkibiga ko'ra *-ng* affiksining kengaygan shakli sifatida ko'ringan bo'lsa, keyinchalik ular yaxlitlanib, qo'shma affikslarga aylangan. Ulardan *-ngizlar* shakli eski o'zbek tilida kam uchraydi, shunda ham she'riy vazn talabi bilan matnga kiritiladi,¹ hozirgi o'zbek adabiy tilida esa deyarli qo'llanmaydi, lekin o'zbek tilining qipchoq lahjasida (*kelingizlar*, *olingizlar*) bu shakl tegishli maylning asosiy ko'rsatkichlaridan sanaladi (qozoq va qirg'iz tillarida ham ana shunday mavqega ega). Buyruq-istak maylining *-ingiz* (suyanmangiz), *-ingizlar* (boringizlar) ko'rinishidagi sintagmalarda *-iz*, *-izlar* qismlari *-(i)ng* shaklining ma'no hamda vazifasini kuchaytirish, mustahkamlash maqsadida orttirilgan fakultativ birliklardir. Ushbu shakllar sintagmada nisbiy mustaqilligini saqlaydigan, o'zidan oldingi shakl tarkibiga singib ketmaydigan morfemalar hisoblanadi. Shu jihatiga ko'ra nomutanosib bo'lib qolgan shakllar bir mazmunga xizmat qiladi.

***-sizlar* shakli.** Bu shakl til taraqqiyotining keyingi davrlarida yuzaga kelgan bo'lib,² II shaxs-son shaklini hosil qiladi: *borasizlar*, *o'qiysizlar*, *yozasizlar* kabi. Uning birinchi qismi bo'lgan *-siz* qo'shimchasi tarixan *-si* olmosh va *-z* jamlik-ko'plik ko'rsatkichidan tashkil topgan bo'lsa ham, keyingi davrlarda yaxlit *siz* olmoshining agglyutinatsiya usuli bilan shaxs-son kategoriyasi paradigmasiga to'laqonli birlik sifatida tortilganini aytish mumkin. *-siz* affiksi semantikasida ko'plik ma'nosining susayishi va hurmatlash ma'nosining barqarorlashuvi tufayli tegishli paradigmaga ko'plik

¹ Щербак А.М. . Грамматика староузбекского языка. –М. – Л.; 1963. –Б. 156.

² Дмитриев Н.К. К истории аффиксов сказуемости / Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. II том. Морфология. –М., 1956. –С. 14.

ma'nosini tiklash uchun *-lar* affiksi orttirila boshlagan va kengaygan shakl *siz + lardan* yangi affiks *-sizlar* shakli paydo bo'lgan.

A. Hojiyev bu haqda shunday yozadi: "Kontekstdan tashqari holatda *-siz* affiksli formaning ko'plik yoki birlik ma'nosida qo'llangani aniq bo'lmay qoladi. Shuning uchun ham ko'plikni aniq ifodalashda bu formaning o'zi ham *-lar* affiksini oladi: *borgansizlar* kabi. Bu formada hamma vaqt hurmat, aniqrog'i, "sizlash" ham bo'ladi: Ro'zg'or, tirikchiliklaring qalay, qiynalmayapsizlarmi?"¹

Shaxs-son kategoriyasi doirasida paradigmani nomutanosiblik holatidan chiqarish, paradigmani o'xshashlik (analogiya) qonuniyatiga binoan mutanosib holatga keltirish maqsadida shakllarning ma'no-vazifa jihatidan qayta guruhlanishi, uyg'un holatga keltirilish yuz beradi. Bunda, albatta, *-lar* qismining muhim hissasi bor. Ushbu holatni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

siz borasiz – sizlar borasizlar. Bunda ko'plik semasini ifodalash uchun xizmat qilayotgan *siz borasiz* shakli *sizlar borasizlar* shakliga nisbatan hurmat semasiga tortilib qoladi, bu esa yana bir nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Og'zaki so'zlashuvda *-sizlar* shakli qulaylikni ta'minlash maqsadida *-z* qo'shimchasining ma'nosi susayishi oqibatida *-silar* shaklida aytiladi: *silar* (*sizlar*) *borasilar* (*borasizlar*) va bu shakl (*-silar*) so'zlashuv morfologiyasi ko'rsatkichlaridan biriga aylangan.

***-sinlar* shakli.** Bu morfemalar III shaxs buyruq-istak mayli ko'plik shakllarini hosil qiluvchi kengaygan shakldir: *kelsinlar*, *aytsinlar* kabi. Bu borada ham turkiyshunos olimlarning tadqiqotlariga yuzlanamiz.

-sin qo'shimchasi qadimgi yodgorliklar matnlarida III shaxsning ham birlik, ham ko'plik o'rinlarida kela olgan, ya'ni son jihatidan betaraflik, neytrallik xususiyatiga ega bo'lgan. Ana shu sababga ko'ra, III shaxsda *-lar* ko'plik qo'shimchasining ishlatilishi muntazam bo'lmagan shakllanish tarzini namoyon qilgan: *kelursunlar* "olib kelsinlar" (*kelur-olib kelmoq*)².

¹ Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975.

² Древнетюркский словарь. – Л., 1969. –С. 663.

-lar qo‘shimchasining bu xil mavqeyi eski o‘zbek tilida ham davom etganligini kuzatish mumkin. Tadqiqotlarda aytilishicha, bu davrda *-sunlar* murakkab shakli yaxlit birlik bo‘lsa-da, “ko‘pincha ko‘plik ma‘nosi *-sun* ~ *-so‘n* qo‘shimchasi tomonidan qo‘shimcha shakllanishsiz ham ifodalanaveradi”¹. Ayni xususiyat hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham saqlangan bo‘lib, III shaxs birlik va ko‘plik zidligi ma‘lum ma‘noda uyg‘unlik kasb etganligi til dalillarida ko‘rinadi: *-sinlar* qo‘shimchasi turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida bir qadar keyingi davrda shakllangan qo‘shimchalar sirasiga kiradi: *kelsinlar*, *o‘tirsinlar* (kesatish mazmuni ham bor).

Ma‘lumki, turkiy tillar va o‘zbek tilining grammatik vositalari orqali turli uslubiy-modal, pragmatik-konnotativ ma‘nolar ham ifodalanganiki, ana shu ehtiyoj bois o‘ziga xos birliklar paydo bo‘lgan. Turkiy toshbitiklar matnlarida, “eski o‘zbek tilida *-sin* qo‘shimchasi III shaxs birlik hurmat ma‘nosini ifodalashga ham xoslangan”². Ma‘nodagi ana shunday siljish, tarmoqlanish yangi davrda o‘zbek adabiy tilida II shaxs, ko‘plik hurmat shakli sifatida *-sinlar* affiksining ixtisoslashuviga imkon yaratgan. Natijada “*-sin*”ning *-sinlar* shaklida kengayishi sodir bo‘lgan.

Demak, *-sin* shakli ham ma‘noni kuchaytirish talabi bilan *-sinlar* kengaygan shakliga o‘tgan va avvalgi shakliga nisbatan shakliy nomutanosib bo‘lib, mazmun esa saqlanib qolgan: *bolalar mehmonga borishsin* – *bolalar mehmonga borishsinlar*.

-(a)yin shakli. A.M.Shcherbak *-(a)y*, *-(a)yin* shaklini eski o‘zbek tili misollari asosida o‘zaro taqqoslab, quyidagi xulosaga keladi: “Bu qo‘shimchalarning ikki variantligi ma‘noni farqlash uchun qo‘llanmaydi. Qisqarmagan to‘liq varianti nisbatan qadimgi shakl hisoblanadi. Qisqargan shakl esa nisbatan keyingi hodisa bo‘lib, hozirgi o‘zbek tilida asosiy shakl sifatida qo‘llanadi”³. Demak, *-(a)yin* – to‘liq shakli qadimgi bo‘lib, *-(a)y* – qisqa shakli keyingi davrlarning mahsulidir. Ana shu xulosaga tayangan Sh.Shukurov tadqiqotlari asosida shunday xulosaga keladi: “Qisqa shaklning til tizimida mustaqil ish ko‘ra boshlashi turkiy adabiy tillarning shakllanishi arafasiga to‘g‘ri keladi”⁴.

¹ Шербак А.М. Грамматика староузбекского языка. –М. – Л.; 1963. –С. 158.

² Древнетюркский словарь. – Л., 1969. –С. 653.

³ Шербак А.М. Ко‘rsatilgan asar. –В. 156.

⁴ Шукуров Ш. Наклонения и времена глагола в письменных памятниках узбекского языка в сравнительном освещении. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1974. –С. 20-21.

Sh.Shukurovning ko'rsatishicha, "Buyruq-istak fe'li I shaxs birlik shakli affiksining O'rxun-Yenisey matnlarida va qadimgi uyg'ur tillarida faqat *-ayin* shaklida ishlatilgani, XI asr adabiy tili yodgorligi "Qutadg'u bilig"da bu qo'shimchaning qisqa shakllari: *-ayi* va *-ay* shakllarining paydo bo'lishi, birinchidan, *-ayin* qadimiy variant bo'lib, *-ayi* va *-ay* keyingi hodisa, degan fikrni tasdiqlaydi. Ikkinchidan, *-ayin* shaklining *-ayi* va *-y* shakliga o'tishi jarayoni O'rta Osiyo turkiy tillarida X-XI asrlardan boshlangan, deb izohlashga asos beradi"¹.

Demak, yuqoridagi izohlardan ko'rinadiki, *-(a)yin* affiksi kengaygan shakl bo'lib, ikki morfemadan tuzilgan: 1) *-(a)y* qismi qadimgi kelasi zamon sifatdoshi *-gay/-g'ay* bilan bog'liq; 2) *-(i)n* qismi qadimgi vosita-qurol kelishigi shaklidir².

Birinchi qism – *-(a)y* qismining tobora faollashib, mayl paradigmasidan mustahkam o'rin olishi bilan go'yo morfologik qayta bo'linish yuz bergan va *-(i)n* shakli tobora urg'usiz birlikka aylanib, asosiy qism: *-(a)y* shaklining ma'no-vazifasini kuchaytiruvchi fakultativ birlikka aylana borgan. Til tarixida to'la shakllarning qisqarishi aytishga qulaylik, tejash tamoyili bilan bog'liqki, bu holat *-(a)yin* kengaygan shaklining qisqarishi va ikki birlikka aylanishida ham ko'rinadi. Shuni ham aytish kerakki, *-ayin* ↔ *-ay* holatining yuzaga kelishi masalasi bu fikrlar bilan tugamaydi, ya'ni hali to'liq hal etilmagan. Chunki *bormayin*, *bilmayin* so'zlari tarkibi chuqur tadqiqotlarni talab qiladi. Uning tarkibidagi *-in* qismi tarixda alohida so'zning qisqargan yoki o'zgargan shakli bo'lishi ham mumkin. Bugungi kunda *-ayin* shakli - *-ay* shakligi nisbatan kengaygan shakl hisoblanadi. Shakllarning kengayishi hisobiga shaklga nisbatan nomutanosiblik sodir bo'ladi. *Ko'ray* – *ko'rayin*, *o'lay* – *o'layin* ko'rinishidagi misollarda shakllar turlicha bo'lsa-da bir mazmunga xizmat qilishi shakliy nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

***-(i)bon* shakli.** Hozirgi o'zbek tilida ravishdoshning *-(i)b* shakli keng qo'llanadi. *-(i)bon* qo'shimchasi, asosan, eski o'zbek tilidagi nazmiy asarlarda ishlatilgan va tobe harakat-holatning ma'no-vazifasini bildirishga xoslangan. A.M.Shcherbak *-(i)bon*

¹ Шукуров Ш. Феъл тарихидан. –Тошкент, 1970. –Б. 9.

² Кононов А.Н. Показатели собирательно-множественности в тюркских языках. – Л., 1969. –С. 11.

qo‘shimchasining manbasini quyidagicha izohlaydi: uning fikricha, “ravishdoshning *-ibon* shakli qadimgi vosita-qurol kelishigi bo‘lib, tarixan fe‘l ismlar – harakat nomidan kelib chiqqan. Shuningdek, *-(i)b* shakli she‘riy matnlarda ko‘proq tobe harakatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi”¹. *Borib kel – boribon kel* kabi.

O‘zbek tili tarixiga bag‘ishlangan ishda ravishdosh yasovchi *-ban/-bən* affiksi *-b* affiksiga *-an/-ən* qo‘shilishi bilan hosil bo‘lganligi va qadimgi yodgorlik tilida ko‘p qo‘llanganligi qayd etiladi. Bu kitobda uning ishlatilish doirasi (vazifasi) haqida ham ma‘lumot beriladi: “Eski o‘zbek tilida she‘riy asarlarda ishlatilgan bo‘lib, vazifasi ham chegaralangan”².

“Hozirgi zamon o‘zbek tili” (Toshkent, 1957, 463-bet) asarida: “bu affiks hozirgi adabiy tilimizda faqat poeziyadagina saqlanib qolgan”ligi ko‘rsatiladi. Andijondagi ba‘zi qishloq (Yorqishloq) shevalarida *boribon, kelibon* shakllari o‘rnida hozir ham *borib+la, kelib+la* shakllari qo‘llanadi.

Aytilganlar asosida, *-(i)bon* kengaygan shaklining rivojlanish tarixi haqida shunday deyish mumkin: ikkinchi qism – vosita-qurol kelishigi affiksining kuchaytiruvchi, mustahkamlovchi vazifasi bu qo‘shimchaning kelishik tizimidan chiqa borishi, ma‘no-vazifasi susayishi bilan bog‘liq. *-ib* ravishdoshining *-ibon* sifatida kengayishi kuzatiladi. Bu jarayon ikki shaklning bir mazmunga xizmat qilishi orqali nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi: *borib qayt - boribon qayt*.

***-moqlik* shakli.** Bu kengaygan shakl ikki qismdan iborat bo‘lib, *-moq* fe‘lning harakat nomi qo‘shimchasi, *-lik* qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida faol ot yasovchi birlik sanaladi. *-moqlik (-maqliq)* shakli eski o‘zbek tilida, xususan, Navoiy va Bobur davrida faol yasovchilardan sanalgan. Hozirgi tilda arxaiklashib, ko‘p hollarda, poetik asarlarda uchraydi. Shu asosda quyidagi fikrni bildirish mumkin: *-lik* affiksi *-moqlik* tarkibiga yaxlitlana boshlagan dastlabki davrlarda sezilarli semantik vazifa bajarib, fe‘lning harakat nomi belgilarini ancha susaytirib, otlashuv pozitsiyalardagi vaziyatini mustahkamlagan, uni ot tipidagi yasalmalarga yaqinlashtirgan. Keyinchalik *-moqning* otlashuv holatlaridagi

¹ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. –М. – Л.,1963. –С. 173.

² Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент, 1973. –Б. 131.

vazifaviy faoliyati cheklana borishi bilan (bunga harakat nomining *-ish* affiksli shakli ham sababchi bo'lgan) *-lik* qismi *-moqlik* tarkibida tobora ortiqcha qismga aylangan. Demak, avvalgi davrlarda *-moqlik* tarkibidagi qismlarning semantik yaxlitlanishi ancha kuchli bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ularning orasidagi bog'lanish susayadi. Natijada ikki shakl o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Chunki *-moq* shakli o'z pozitsiyasini saqlagan holda *-lik*ni olib kengayadi. Hosil bo'lgan kengaygan shakl *-moq* shakliga nisbatan shakliy nomutanosib bo'lib qoladi.

A.G'ulomovning ta'kidlashicha, "infinitivning ba'zan *-lik* affiksini olgan shakli ham uchrab qoladi: *bormoq-bormoqlik*. Prinsipial qaraganda, bu affiks infinitivning ma'nosiga deyarlik ta'sir ko'rsatmaydi"¹, "faqat uning otlik belgilarini kuchaytiradi"².

-lik qo'shimchasi hozirgi turkiy tillarda umumiylik-mavhumlik ma'nosidagi ot yasalmalar hosil qiladi. Shu bilan birga, harakatdagi shaxs, ish-harakat quroli, narsa-buyum, hududiy mansublik, kasb-hunar oti, xizmat mavqeyi nomi kabi ma'nolardagi so'z yasaydi: ko'zlik (ozarbayjon tilida: ko'zoynak), otalik – "tarbiyachi", boshliq, cho'ponlik, qishloqlik, mudirlik... "Uning dastlabki, genetik ma'nosi asosdan anglashilgan narsaga egalik ma'nosi bo'lgan. Umumiylik-mavhumlik ma'nosi ayni shu ma'nodan o'sib chiqqan"³. Hozirgi tillarda so'z yasovchi *-lik* qo'shimchasi ko'p ma'noli, ko'p vazifali bo'lib, mavhum ot yasovchilikdan tashqari, ba'zi holatlarda fe'lning ayrim shakllariga ham qo'shilish xususiyatiga ega.

Demak, *-moq* affiksining kengaygan shakli bo'lgan *-moqlik* ham o'z paydo bo'lish va qo'llanish tarixiga ega. Bu tarixiy taraqqiyot yo'li til tizimidagi o'zaro ma'no-vazifa jihatidan o'xshash, nisbiy shakllarning o'zaro munosabati, qo'llanilish o'rni, raqobatda bo'lishi, uslub jihatidan farqlanishi kabi omillar bilan bog'liq bo'ladi. *-moq* shaklining *-moqlik* shaklida kengayishi mazmuni saqlagan holda shaklga nisbatan nomutanosiblikni yuzaga keltiradi. Qiyoslang: *aytmoq uchun* – *aytmoqlik uchun*.

¹ Гуломов А.Ф. Фель. Хозирги замон ўзбек тили (Ф.Камол таҳририда). –Тошкент, 1957. –Б. 458.

² Гулямов А.Г. Проблемы исторического словообразования узбекского языка, ч.1., Аффиксация. Автореф. дисс... д-ра. филол. наук. –Ташкент, 1955. –С. 33.

³ Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Имя). –М.: Наука, 1977. –Б. 106.

-(i)shlik shakli. *-(i)sh* – otlashgan (substantiv) harakat nomi sifatida O'rxun-Enasoy (Yenisey) yodnomalarida uchraydi. Qoraxoniylar davri matnlari va eski o'zbek tili manbalarida keng qo'llangan. Hozirgi turkiy tillardan o'zbek va uyg'ur tillarida boshqa turkiy tillarga nisbatan ko'p ishlatiladi, egalik, kelishik qo'shimchalari va ba'zi so'z yasovchi qo'shimchalarni olish qobiliyati mavjud, shuningdek, otlashish jarayoni eng ko'p darajada moslashgan shakldir: yig'ilish (majlis), tanish-bilish, urush, qarash, qurilish, burilish va boshqalar¹.

A.G'ulomovning ko'rsatishicha "...ba'zan *-lik* affiksini olib, kengaygan forma yaratish hodisasi uchraydi; *aytish-aytishlik* kabi (bundagi *aytishlik* so'zi "aytmoq" ma'nosidadir, bu yerda uning "aytishiga arziydigan, shunga mos" degan ma'nosi ko'zda tutilmaydi)"². Ot yasovchi *-lik* affiksi harakat nomi yasovchi *-(i)sh* shakli bilan birga kengaygan shakl yasayotganining guvohi bo'lamiz. Bu hol garchi ko'proq dialektal nutqqa xos bo'lsa ham o'zbek tilida mavjuddir.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-(i)sh* harakat nomi shakli keng qo'llanadi, uslubiy betarafliigi va leksik-semantik murakkabligi bilan *-moq*, *-(u)v* harakat nomi shakllaridan alohida ajralib turadi. A.Hojiyevning ta'kidlashicha, "*-(i)sh* affiksi bilan yasalgan harakat nomi shaklining *-lik* affiksi bilan qo'llanish holatlari uchrab qoladi: *borishlik*, *qo'rqishlik* kabi"³. Demak, *-(i)sh* harakat nomi *-(i)shlik* kengaygan shakliga nisbatan shaklan nomutanosib bo'lib, bu nomutanosiblik taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan.

Dialektal qatlamda – xalq tili va og'zaki so'zlashuvda *-(i)shlik* shaklida oxirgi *k* undoshining tushib qolishi ham uchraydi: *borishli-kelishli qilsin; juda yeyishli taom bo'libdi* kabi.

-ganlik shakli. Oltoyshunos olim V.Kotvich qadimgi turkiy tilda o'tgan zamon sifatdosh shakllarini hosil qiluvchi *-duq* (barduq), *-mish* (kelmish) va *-gan* (o'qigan) shakllarining o'zaro raqobatda va parallel qo'llanganligini yozsa⁴, A.N.Kononov bu shakllarni turkiy tillarning turli guruhlariga mansub birliklar

¹ Шербаков А.М. Ко'rsatilgan asar. 1977. –Б. 164.

² Гуломов А.Ф. Ко'rsatilgan asar. 1957. –Б. 458-459.

³ Хожиев А. Фельд. –Тошкент, 1973. –Б. 185.

⁴ Котвич В. Исследование по алтайским языкам. –М., 1962. –С. 109-116.

sifatida qayd etadi: “-duq va -mish o‘g‘uz tillari, -gan esa qipchoq-qarluq tillariga mansub shakllardir”¹. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida -gan sifat-dosh qo‘shimchasi nafaqat belgi (o‘qigan bola), balki zamon va modal ma‘nolarni ifodalaydigan ko‘p ma‘noli, ko‘p vazifali shakldir. Bu affiks fe‘lga xos shakl yasovchi birliklarni qabul qilish bilan bir qatorda, ot yasovchi -lik affiksi bilan murakkablashish xususiyatiga ham ega. Masalan: *borganlik, o‘qiganlik, aytganlik* kabi.

Hozirgi o‘zbek tilida -gan va -ganlik, -yotgan va -yotganlik shakllarining yonma-yon, parallel qo‘llanishi ham diqqatga sazovar bo‘lib, mazmunan mutanosib bo‘lib, shaklan nomutanosibdir. “Kengaygan shakllardagi -lik affiksi agentiv ma‘nodagi atributiv-predikativ shaklni otlashtiruvchi grammatik vosita mavqeyida keladi”². Bu shakllarning (-ganlik, -yotganlik) paydo bo‘lishi -gan qo‘shimchasidagi agentiv ma‘noning predikativ pozitsiyalardagi taraqqiyoti bilan bog‘liq³ ekanligi ham ma‘lum.

-gan va -ganlik shakllarining egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llanishida matn (kontekst) bilan bog‘liq yuzaga keladigan ayrim ma‘no nozikliklari borligi haqida A.G‘ulomov: “*U bilganini aytdi. – Bilganligini aytdi. Semirganini ko‘rding. Semirganligini ko‘rding.* Birinchi misollarda substantivatsiya hodisasi amal qiladi. Jonli so‘zlashuvda bu ma‘no farqi kontekst tufayli amalga oshadi”⁴, – deb e‘tirof etadi. Shuningdek, til tizimidagi semantik jarayonlarni tahlil etilib, *o‘qimagandan o‘qigan yaxshi* qurilmasi asosida *o‘qimaganlikdan o‘qiganlik yaxshi* modeli turishini qayd etishi muhim ahamiyatga ega. Sifat-dosh shaklining substantiv pozitsiyalarda, xususan, predikativ pozitsiyalarda kelishi -ganlik, -yotganlik shakllarini qo‘shma affikslarga yaqinlashtiradi,⁵ ammo -

¹ Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников (VII – IX вв.) –Л.; 1980. –С. 196.

² Иванов С.Н. Родословное тюрк Абу-л-Газихана. – Л., 1963. –С. 81.

³ Иванов С.Н. Ko‘rsatilgan asar. –В. 82.

⁴ Гулямов А.Г. Об аффиксе -лик в узбекском языке / Научные труды. ТашГУ, 1964. –С. 54.

⁵ Фуломов А. Ўзбек тилида келишиклар. ФА Ўзбекистон филиалининг асарлари. 2-серия, филология, 1-китоб. –Тошкент, 1941. –Б. 68.


lik shaklining bu o‘rindagi fakultativligi¹ ularni to‘liq shakllangan qo‘shma affikslar deyish uchun asos bermaydi. *-ganning* kengayishidan hosil bo‘lgan bunday kengaygan shakllar o‘zbek tili imkoniyatlarini yanada oshirib, yangi affiks bilan boyitadi. Bu jarayonda ishtirok etayotgan *-gan* va *-ganlik* shakllari o‘zaro shakliy nomutanosiblikni ifodalamoqda.

Demak, fe‘lga xos harakat nomi shakllari *-moq*, *-(i)sh* va otlashgan holatlarda keluvchi *-gan*, *-yotgan* sifat-dosh shakllarining *-lik* ot yasovchi birlik bilan murakkablashishi o‘xshashlik hodisasi bilan bog‘liq. *-lik* affiksi so‘z yasovchilik xususiyatlaridan uzoqlashsa ham, qayd etilgan shakllarning otga o‘xshash sintaktik pozitsiyalarda kelishini ta‘minlaydi, ularning otlik belgilarini kuchaytiradi. Ayni shu mavqeda *-lik* affiksi morfologik-sintaktik vazifa bajaradi, o‘ziga xos sintaktik birlik maqomini oladi. Ayni so‘z yasovchi qo‘shimchalarning grammatik vazifa bajarishi ularning keng qo‘llanishi, ma‘nosining umumlashgan – mavhum xususiyatga egaligidan kelib chiqadi. *-lik* affiksi bu o‘rinlarda ko‘p vazifali birlik xususiyatini namoyon etishi orqali ham nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

***-ovlon* shakli.** Bugungi kunda jamlovchi son shakli hisoblangan *-ovlon* affiksi kengaygan shakl hisoblanadi. Chunki bu affiksning tarkibi hali zich birikib ketmagan. Shu bilan bir qatorda *-ovlon* shaklining *-lon* qismi qo‘shimcha mazmun ya‘ni jamlikni, shaxsni kuchaytirish uchun qo‘shilgan. Aslida *beshov*, *oltov*, *yettov* shaklida qo‘llansa ham jamlovchi son shaklini hosil qiladi, shuningdek, *beshovlon*, *oltovlon*, *ettovlon* shaklida ham bu mazmun ifoda etiladi: *beshovi keldi* – *beshovlon keldi*. Nisbatan arxaik hisoblangan *-ovlon* shakli *-ov* shakli bilan nomutanosibdir. Buni jamlovchi shakl va jamlovchi mazmunga ko‘ra quyidagicha ko‘rsatish mumkin (4.1-rasm):


¹ Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 168.

Jamlovchi mazmun 1 ta



Jamlovchi shakllar 2 ta

Jamlovchi shakllar 2 ta



Jamlovchi mazmun 1 ta

2.1-rasm. Bir necha shaklning bir mazmun ifodalashi.

Shaxs mazmunini kuchaytirishga xizmat qilayotgan *-lon* morfemasi *-ov* shakli tarkibiga to'liq singib ketmagan, shu sababli ham *-ov* shaklining pozitsiyasi *-ovlon* shakliga nisbatan kuchliroq. Masalaning yana bir tomoni *-ov* shakli jonli-jonsiz predmetlarga parallel ishlatilsa, *-ovlon* shaklining shaxslarga nisbatan pozitsiyasi mustahkamdir. *Kartoshka va sabzi ikkovini birgalikda torting* – *Kartoshka va sabzi ikkovlonini birgalikda torting* (mazmun chiqmaydi, *-ovlon* shaklini narsaga nisbatan qo'llab bo'lmaydi). *Salim va Mahmud ikkovi birga keldi* – *Salim va Mahmud ikkovlon birga keldi* (mazmun chiqadi). Demak, qo'llanish doirasiga nisbatan *-ov* va *-ovlon* shakllari narsalarga nisbatan ishlatilganda mazmun nomutanosibligini ko'rsatsa, shaxslarga nisbatan qo'llanilganda shakl nomutanosibligini yuzaga keltiradi.

-xonim shakli. Affiksoylar bahsida bu shakl haqida fikrlar berilgan edi. “*Xonim*” leksemasini so'zlik maqomidan affiksga tortilish jarayoni ma'lum qilingan: *Tamaraxonim*, *Gavharxonim*, *Gulruhxonim* kabi. Bu affiksdan *-xon* va *-im* shakllari ishtirok etadi. Mazmunan mutanosib holatda erkalash-hurmatlash affiksi bo'lgan *-xon* shakli egalik va hurmatni kuchaytirish maqsadida *-im* morfemasini olib kengayadi. Natijada *-xonga* nisbatan *-xonim* kengaygan shakli hosil bo'ladi: *Tamaraxon* – *Tamaraxonim*, *Gavharxon* – *Gavharxonim*, *Gulruhxon* – *Gulruhxonim* kabi. Bunday

kengayish orqali ikki shakl shakliy nomutanosib bo'lib, bir mazmunga xizmat qilib qoladi. Solishtiramiz (4.2-rasm):

Hurmat va erkalash mazmun 1 ta



-xon


-xonim

Hurmat va erkalash shakllar 2 ta

Hurmat va erkalash shakllar 2 ta

-xon

-xonim



Hurmat va erkalash mazmun 1 ta

2.2-rasm. Ikki shakl o'rtasidagi nomutanosiblik.

-kala shakli. Fe'llarda harakat tarzini ifodalaydigan bu shakl juda ham unumsiz bo'lib, *surkala*, *suykala* (ayrim shevalarda) kabi so'zlarda ishlatiladi. *Sur* fe'l asosiga *-ka* affiksini qo'shish orqali harakat tarzi shakli hosil bo'ladi. *-ka* harakat tarzi shakli *-la* morfemasini olib kengayadi va natijada *-kala* kengaygan shakli hosil bo'ladi: *sur* – *surka* – *surkala* kabi. Misoldan ko'rinadiki, *-ka* shakli *-la* shakli bilan kengaysa-da, mazmunni saqlab qoladi. Bunda shakl o'zgarishi bilan bog'liq nomutanosiblik yuz berib, mazmun mutanosib ravishga ifodalanadi.

Xulosa qilib aytganda, affikslar va ularning tipik ko'rinishlari lingvistik adabiyotlarda birmuncha o'rganilgan bo'lsa-da, unga yondosh turuvchi kengaygan shakllar masalasi hali to'liq tadqiq etilmagan muammolardan biri hisoblanadi. Tilshunoslikda kengaygan shakllarning affiksatsiya tizimiga xos turi haqida maxsus fikr bildirilmagan bo'lsa-da, ayrim yo'l-yo'lakay ta'kidlarni uchratish mumkin. Masalan, *-moqlik* shaklining "kengaygan infinitiv" (murakkab infinitiv) termini bilan izohlanishi shular jumlasidandir.

Demak, kengaygan shakllar boshqa grammatik hodisalar kabi murakkab tabiatga ega. Bu xil shakllarning tabiatini, yondosh hodisalar bilan munosabatini belgilash soʻz tarkibiga doir koʻpgina muammolarning (xususan, diaxroniya va sinxroniya munosabati) mohiyatini aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Umuman, kengaygan shakllar qoʻshma affikslar kabi tilning grammatik sathida muhim oʻrin tutadi. Ularni, ayniqsa, tarixiy nuqtayi nazardan atroflicha oʻrganish til fanini yangi maʼlumotlar bilan boyitadi. Masalaning shu tomoniga eʼtiboran boʻlsa kerak, taniqli turkiyshunos olim A.Zayonchkovskiy bu shakllarning hosil boʻlish usuliga katta eʼtibor berib, gʻarbiy qaraim tilining affiksatsiyasiga bagʻishlangan ishida “suffiks tashqi koʻrinishining oʻzgarishi” sarlavhasi bilan maxsus boʻlim ham ajratadi. V.V.Radlovda bu hodisalar giperagglyutinatsiya qonuniyati bilan bogʻlanadi.

Shu sababli kengaygan shakllarning tabiatini, yondosh hodisalar, ayniqsa, qoʻshma affikslar bilan munosabatini keng qamrovda oʻrganish oʻzbek tilshunosligini, shuningdek, turkiy tillarni yangi maʼlumotlar bilan boyitadi.

2.3-§. Analitik shakllarda nomutanosiblik

Morfem birliklarning murakkab shakllar doirasidagi nomutanosibliklari haligacha fanda toʻliq isbotini topgan emas. Ijtimoiy ong hamda tafakkurda olamning lisoniy manzarasi tobora kengayib borishi bilan til tarixining har bir sinxron bosqichida mazmunning ifoda imkoniyatlari ham davrga mos tarzda mukammalashib boradi. Turkiy tillar va oʻzbek tili tarixida ayrim sintetik shakllar oʻrniga analitik shakllar, ayniqsa, koʻmakchi feʼllarning faollashganligi qoʻshma affikslarga oʻxshash, biroq mustaqil til birligi – analitik shakllarni yuzaga keltirgan.

Tildagi bunday oʻzgarishlar asosida hosil boʻlgan murakkab shakllar va uning uch koʻrinishini (analitik shakllar, sintetik shakllar va kengaygan shakllar tarzida) maʼlum maʼnoda fanga kiritilishi, shuningdek, ularning oʻrni va mavqeyini belgilash lozim. Analitik shakllar tashqi tomondan maylga, ravishdoshga, sifatdoshga oʻxshash shakllar bilan mustaqil soʻzga oʻxshash birliklar (koʻmakchi feʼllar, toʻliqsiz feʼllar) birikishidan tashkil

topgan murakkab shakllardir. Chunki analitik shakl tarkibida ravishdosh va sifatdosh o'z vazifasini bajarmaydi va shaklni asosga bog'lash, tutashtirish rolini o'taydi. Analitik shaklning ikkinchi qismi bo'lib keladigan mustaqil so'zga o'xshash birliklar (ko'makchi fe'llar, to'liqsiz fe'llar)ni fe'llik, umuman, so'z vazifasi yo'qolgan bo'ladi. Agar (o'qib chiqmoqda *-chiqning*) *chiq* fe'lini mustaqil so'z deb olsak, mustaqil so'zning uchta talabini bajarishi lozim. Ko'makchi fe'llar esa, mustaqil ma'no anglatmaydi, so'roqqa javob bo'lmaydi, gapda mustaqil vazifa bajarmaydi. Shu sababli bunday birliklarni vazifadosh ko'makchi sifatida qarash to'g'ri bo'ladi. Masalaning ikkinchi tomoni analitik shakllar yaxlit bir ko'rinishda asosga qo'shib kelishini inobatga olib, morfologik shakllar deb yuritilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki analitik shakllar tarkibidagi ko'makchi fe'llar endi affiksoidlarga o'xshab, affiksga tortilgan birliklardir.

Umuman olganda, tadqiqot doirasida bizga analitik shakllarning nomlanishi, ifodalanishi, til tizimidagi ayni damdagi o'rnini aniqlash emas, balki morfologik shakl sifatida nomutanosiblikni yuzaga keltiradimi, yo'qmi masalasiga javob topishdan iborat.

-gi kel shakli. Bizga ma'lum bo'lgan til kishilik jamiyati taraqqiyoti ehtiyojlariga moslashib, boyib boradigan hozirjavob tizim bo'lganligidan uning sinxron tizimida avvalgi davr birliklari ham turli vazifalarda yashashda davom etadi. Diaxron jihatdan qadimgi turkiy til va eski o'zbek tilida juda faol qo'llangan *-gi, -gu* (hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi) qo'shimchasi keyingi davrlarda faolligini yo'qotib, ba'zi shakllar tarkibiga singib ketgan. Ana shunday shakllardan biri *borgim keldi, o'qigim keladi, aytgim keladi* ko'rinishlaridagi *-gi kel-* analitik shaklidir. *Borgim, o'qigim, aytgim* kabi so'zshakllarida murakkablashgan *-gim (-gum)* affiksi – yaxlit birlik hosil qilgan. Analitik shakllarning birinchi – kuchsiz qismi murakkab shakllardan ham paydo bo'lishi mumkin. Bunda kelasi zamon sifatdoshining shaxs-son bilan soddalashuvi yuz beradi va yaxlitlashib murakkab shaklni paydo qiladi. Natijada ikki shaklning soddalashuvi bir shaklga o'tadi mazmun esa ikkitaligicha saqlanib qolib, nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi. *Ayt+gu+m keldi – ayt+gim keldi, ayt+gu+si keldi – ayt+gisi*

keldi misollaridagi analitik shakllarning orasida boshqa shakllarning o'rinlashuvi oldin murakkablashuv, keyin soddalashuvni yuzaga chiqaradi.

A.Yuldashevning ko'rsatishicha, “-*gi kel-* shakli *achchig'i kel*(moq) ko'rinishidagi ot yasalmalarga sezuv-tuyg'u fe'llari yasashdagi o'xshashligi asosida yuzaga keladi”¹. Ixtiyorsiz istak bildiruvchi fe'l shakllarini hosil qiluvchi (uyqusi kelmoq, aytgisi kelmoq) *-gi kel-* analitik shakl qolipi muntazam qolipga aylanadi. Aslida, *-gi kel-* shakli ham yuqorida qayd etilgan *mening borgim keladi* ko'rinishidagi qurilmalarning keyingi qisqarishidan paydo bo'ladi: qaratqich kelishigidagi so'z bosh kelishik shakliga ko'chadi, ega esa keyingi fe'l so'z bilan kesimga aylanadi. Shunisi ham muhimki, – *borgim keladi, borging keladi, borgisi keladi, borgimiz keladi, borgingiz keladi, borgilari keladi* qurilmalaridagi egalik qo'shimchalari analitik shaklning (*-gi kel-*) o'rtasiga qo'shib qoladi, bu qo'shimchalar otga xoslik belgilarini yo'qotib, fe'l shakllari – tuslovchi maqomini oladi. Shu o'rinda analitik shaklning ikkinchi qismidagi *-adi* shakli mavqeyiga ham oydinlik kiritish zarur. Deyarli barcha grammatika va ilmiy ishlarda *-adi* shakli fe'lning III shaxs birligi shakli deb ko'rsatiladi (oldingi bo'limda ochiqlangan). Shu qurilmada egalik qo'shimchalari tuslovchilar vazifasini bajarib, tegishli shaxs-son ma'nosini ham vujudga keltiradi. Bu o'rinda *-adi* shaklida *-a* hozirgi-kelasi zamon ma'nosini bildiradi, *-di* esa aslida *turur* fe'lining qoldiq shakli bo'lib, shaxs-son kategoriyasiga biror darajada aloqador emasdek. Qiyoslang: *borgisi kela turur > borgisi keladur > borgisi keladi*. Demak, III shaxsda shaxs-son nol morfema orqali ifodalanadi. Boshqa turkiy tillarda esa *turur* shaklining qisqarishi yanada chuqurlashgan: qirg'iz tilida *bargisi kelet*. Tatar tilida esa tamomila tushib qoladi: *barg'isi kela*. Shuni aytish kerakki, *kela turur, kelet, kela* shakllarining hammasi (*keladi* shakli ham, aslida, III shaxsni ifodalaydi, bu *-di* (tururning qisqargan shakli): *bor, kel* – sen (II shaxs); *bordi, keldi* – u (III shaxs) kabi. *-di* affiksining xabar maylini ifodalashi, uchinchi shaxsini bildirib kelishi kabi xususiyatlari alohida tadqiqotni talab qiladi.

¹ Юлдашев А.А. Аналитические формы глагола в тюркских языках. –М.: Наука, 1965. –С. 103.

-(i)b o't-. *Aytib o'tdi, ko'rib o'tdi, gapirib o'tdi* singari sintagmalarga faol ishtirok etadigan *-(i)b o't-* analitik shakli ikki qismdan: *-(i)b* va *o'tmoq* qismlaridan tashkil topgan. Shakllanish nuqtayi nazardan *-(i)b* ravishdoshi va *o'tmoq* fe'lidan hosil bo'lgan. Analitik shakl tarkibida ravishdosh o'z ma'no va vazifasini batamom yo'qotgan bo'lib, ikkinchi qismni asosga birlashtirish uchun o'rinlashgan. Shaklning ikkinchi qismi hisoblangan *o'tmoq* fe'li ham harkatlanish, yurish (bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga qarab yo'nalish) mazmunini batamom yo'qotgan, natijada mavjud bo'lgan bir shakl mazmunsiz qiymat ifodalash holatiga tushgan. Bu esa *o'tmoq* fe'lga nisbatan 1:0 ko'rinishdagi nomutanosiblikni yuzaga keltirgan. Ikki shaklning analitik yaxlitlashuvi sintagmada bir mazmun ifodalash bosqichiga tushgan (bu esa 2:1 nisbatda nomutanosiblik sodir bo'ldi degani) va so'z (asos)ga ta'kid mazmuni beruvchi, sintagmaning davomini asosga bog'lovchi birlikka aylangan. Natijada ikki shakl murakkablashib (soddalashuv yo'li bilan), bitta murakkab shakl – analitik shakl hosil bo'lgan. Bunday shakllarning hosil bo'lishi bugun paydo bo'lgan emas, taraqqiyot tilda ham o'z ifodasini topgani kabi morfem birliklar ham o'z taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan. (Avvalgi bo'limda morfemalar taraqqiyoti haqida to'xtalganmiz.)

Turkiy tillarda, shuningdek, o'zbek tilida analitik shakllar qadimdan keng tarqalgan hodisa bo'lgan. B.A.Serebrennikov, I.Z.Gadjiyevaning qayd etishicha, tarz, tus nomi bilan ham yuritiluvchi ko'makchi fe'llarning hosil bo'lishi turkiy bobo tilning alohida tillarga bo'linishi (farqlanishi) davriga to'g'ri keladi¹. Bu holat esa ayni shakllarning turkiy bobo til davridayoq mavjud bo'lganligidan guvohlik beradi. Demak, analitik shakllar tarixan mavjud bo'lib, bugungi kun nuqtayi nazardan ham amalda qo'llanmoqda.

Fe'l analitik shakllari turkiy tillarda qadimdan keng tarqalganligini hisobga olib, O.Byotlingdan boshlab bu xil shakllarga fe'lning perifrastik shakllari termini qo'llangan bo'lsa, 1965-yili A.A.Yuldashvning “Аналитические формы глагола” nomli kitobi nashr etilgach, ikkinchi termin (analitik shakl) ham keng qo'llana boshlandi. Analitik shakl hosil qiluvchi fe'llar turkiy

¹ Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Морфология. –М., 1988. –С. 444.

tillarda miqdor jihatidan turlicha. D.M.Nasilov maxsus tadqiqotlar tahlili, lug'at va grammatikalar asosida qadimgi turkiy til yodgorliklarida yigirmata, o'zbek va qoraqalpoq tillarida yigirma yettita, tatar tilida yigirma to'qqizta, tuva va yoqut tillarida yigirmaga yaqin, turk tilida o'n beshtacha ko'makchi fe'llarni qayd etgan¹.

1963-yili Sankt-Peterburg (Leningrad) shahrida ikki yirik konferensiya o'tkazildi. Bu konferensiya so'z va uning tuzilishi, so'zning grammatik shakllari va ularning o'zaro nisbatiga bag'ishlangan edi. Birinchi yig'in "Turli tipdagi tillarda analitik konstruksiyalar", ikkinchisi esa "Turli tipdagi tillarda so'zning morfologik strukturasi" deb nomlangan². Ana shu konferensiyalardan so'ng umumiy tilshunoslik yo'nalishida analiz, analitizm, sintez va sintetizm, analitik va sintetik shakl terminlari va tushunchalari turli tillarning materiallariga tatbiq etildi. Jumladan, o'zbek tilida ham bu borada anchagina ishlar qilindi.

O'zbek tilshunosligida fundamental tadqiqot sifatida A.Hojiyevning "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar" (1966), "O'zbek tilida to'liqsiz fe'l" (1970), "Fe'l" (1973) kitoblarining nashr etilishi muhim hodisa bo'ldi. Bu asarlarda fe'l so'z turkumi doirasidagi ko'makchi fe'llar va edi to'liqsiz fe'lining ma'nolari, vazifalari sinxron jihatdan atroflicha yoritildi. Olim o'zbek tilida o'ttizdan ortiq ko'makchi fe'llar borligini qayd etdi va ularni ma'no farqlarini ko'rsatib berdi.

-y ket- shakli. O'zbek tili morfologik shakllar tizimida murakkab shakllarning analitik shakllar turi ancha keng tarqalgan. Ular orasida *o'ylay ketdi, o'qiy ketdi, so'zlay ketdi* sintagmalaridagi *-y ket-* analitik shakli ham mavjud. Harakatning davomiyligini, to'xtamay bajarilayotganligini ifodalashga xizmat qiladigan bu analitik shakl tarkibi ikki qismdan iborat (har qanday analitik shakl tarkibi doimo ikki qismdan iborat bo'ladi). Birinchi qism *-y ravishdosh* shakli, istak mayli shakli, ikkinchi qismi *ketmoq* fe'lining mazmunini beruvchi shakl. Birinchi qismda ravishdoshlik vazifasini yo'qotgan *-y* shaklida istak mayli o'z mavqeyini saqlab

¹ Щербак А.М. Очерки по сравнительной морфологии тюркских языков (Глагол). – Л., 1981. –С. 135. Yana qarang: Nasilov D.M. Formy vyrazheniya sposobov glagolnogo deystviya v altayskix yazykax. V kn.: «Oчерки сравнительной морфологии алтайских языков». – Л., 1978. –С. 88-177.

² Аналитические конструкции в языках различных типов. – Л., 1963; Морфологическая структура слова в языках различных типов. –М. – Л., 1963.

qolgan. Ko'p vazifalilikdan bir ma'nolilikka o'tgan. Natijada shaklning mazmun anglatish jihati susayib, ma'noga nisbatan nomutanosiblik yuzaga kelgan: 1:2 ko'rinishidan 1:1 ko'rinishiga kelgan. Ilgari ikkita mazmunga xizmat qilayotgan bir shakl endilikda bir mazmun ifodalaydigan bo'lib qolgan. Ikkinchi qismi *ketmoq* fe'li bilan ifodalangan. Analitik shakl tarkibida *ketmoq* fe'lining mazmuni batamom yo'qolib, mazmun anglatmaydigan qismga aylanib, analitik shaklning asosiy vazifasini bajaruvchi birlikka aylangan. Natijada ma'no anglatish vazifasidan mahrum bo'lgan shakl 1:0 qiymatda ma'nosiz qismga aylangan. Demak, "*ketmoq*" fe'li shakl jihatdan bor bo'lib, mazmun jihatdan qiymatga ega bo'lmay qolishi shakl va mazmun nomutanosibligini ko'rsatadi. Natijada ikki birlik (-y ravishdoshi va *ketmoq* fe'li) yaxlitlanib analitik shaklni hosil qilgan: -y *ket-* – talabalar testlarni ishlay *ketdi*, ustoz ma'ruzani o'qiy *ketdi* kabi. Endi hosil bo'lgan analitik shakl ilgari ifodalagan mazmunlariga nisbatan nomutanosib bo'lib qoldi. Shuningdek, ikki shakl bir mazmunga xizmat qilish holati bilan 2:1 ko'rinishida yangi nomutanosiblikni yuzaga chiqaradi.

N.A.Baskakov analitik va sintetik grammatik shakllarni so'zning morfologik taraqqiyotidagi bosqichlar sifatida tavsif etdi: "Turkiy tillarda so'zning morfologik taraqqiyoti jarayonlari erkin so'z birikmalarining uzluksiz grammatikalizatsiyasi bilan bog'liq tendensiyani aks ettiradi: mustaqil so'zlar birikuvidagi ikkinchi (postpozitsion) qism ma'nosi mavhumlashadi; so'ng mustaqil so'zning boshqa o'rinda mustaqil ma'nosini saqlovchi yordamchi so'z bilan birikuvi yuzaga keladi; navbatdagi bosqichda ikkinchi qism mustaqil ma'nosini yo'qotib, analitik grammatik shaklga, va nihoyat, postpozitsion komponent morfemaga – muayyan grammatik ma'no ifodalovchi affiksga aylanadi"¹. Murakkab shakllarning vujudga kelishi morfologik taraqqiyot jarayoni bilan bog'liq. Birinchi qism ma'nosining sustlashuvi natijasida ikkinchi qismga ehtiyoj ortadi. Keyinchalik har ikki qism bir ma'noni ifodalash uchun murakkablashadi hamda shaklga nisbatan ma'no nomutanosibligiga uchraydi.

¹ Баскаков Н.А. Аналитические и синтетические грамматические формы-степени морфологического развития слова (на материале тюркских языков) / Аналитические конструкции в языках различных типов. – Л., 1963. – С. 18-19.

-a ol- shakli. Analitik shakllarning o'ziga xos jihati asosga to'g'ridan to'g'ri qo'shila olishida. Shuningdek, asosdan anglashilgan mazmunni boyitadi. *Gapira olmoq, ayta olmoq, tushuntira olmoq* kabi sintagmalarda *-a ol-* analitik shakli ishlatilgan bo'lib, *gapirmoq* fe'liga to'g'ridan to'g'ri birikib ketmoqda. *-a ol-* analitik shakli ham ikki qismdan tashkil topgan bo'lib, birinchi qismida *-a* ravishdoshi o'z vazifasini yo'qotgan va u endi analitik shakllarning birinchi qismi bo'lib kela oladi: *-a ol-, -a ber-, -a boshla-, -a kel-, -a ket-, -a ko'r-, -a qol-, -a tur-, -a chiq-, -a bil-, -a yoz-, -a sol-* kabi. Ikkinchi qismi *olmoq* fe'li bilan ifodalangan, natijada fe'lining o'z mazmunini yo'qotishi evaziga shakl tarkibiga birikkan. Endilikda *olmoq* fe'lining mazmunini beruvchi shakl ko'makchi vazifasini bajarishga to'g'ri keladi. Analitik shaklning har ikki qismi ham o'z mazmunini yo'qotib, 1:1 nisbatdan 1:0 nisbatda nomutanosib ko'rinishdagi ma'nosiz shakllarga aylangan. *Olmoq* fe'lining mazmun yo'qotishi, ya'ni ko'makchi fe'l maqomini olishi boshqa analitik shakllarda ham qo'llanish imkonini beradi: *ko'rib olmoq, ayta olmoq* singari. *-a ol-* analitik shakli ikki qismdan tashkil topib, bir mazmunga xizmat qilishi nomutanosiblikning 2:1 nisbatdagi ko'rinishini ifodalaydi.

Analitik shakllarning tilda o'z mavqeyi va o'rni bor. So'z tarkibida ma'lim tartiblar asosida shakllangan analitik shakllar ma'lum bir qolip asosida yuzaga keladi. Turkiy tillar, o'zbek tilida morfemalarning o'rinlashish tartibi ham o'ziga xos bo'lib, ular muayyan tur morfosintagmalar hosil qiladi. Ularning birikuvchi sintagmatik birliklar – so'z birikmasi va gap tuzilishiga o'xshash bo'lib, izomorfizm xususiyatiga ega: aniq ma'no ifodalovchi birliklar prepozitsiyada joylashsa, nisbatan mavhum ma'no ifodalovchi birliklar postpozitsiyada joylashadi: bu qonuniyatga binoan o'zak morfema so'z yasovchi morfemalardan oldin, o'z navbatida, so'z yasovchi morfemalar funksional so'z yasovchilardan, funksional so'z yasovchilar esa so'z o'zgartiruvchi affikslardan oldin joylashadi¹. Demak, bu o'rinlashishda aniq ma'no ifodalovchi morfemalar so'z boshidan oxiriga qarab o'zaro nisbatda "aniqlik-mavhumlik" oppozitsiyasi asosida joylasha boradi. Shu jihatdan o'rinlashgan morfemalarning eng so'nggisi nisbatan

¹ Баскаков Н.А. Историко-типологическая морфология тюркских языков. –М., 1979. –С. 71.

kuchliroq va muhimroqdir. Analitik shakllarning soʻzshakl soʻngida emas, asosdan keyingi birinchi shakl boʻlib qoʻshilishi ularning sintagma tarkibida “jiddiy” oʻrinlashishiga asos boʻladi.

Nomutanosiblik asosida morfemikada hosil boʻlgan qoʻshma affikslar, kengaygan shakllar, analitik va sintetik shakllarda tarixan “ikkilik” – binarlik zidligi turlicha koʻrinish olgan. Qoʻshma affikslar ikki va undan ortiq tashkil etuvchining funksional-semantik yaxlitlashishidan paydo boʻlgan (*oʻqi+yapman, ayt+ingiz*); kengaygan shakllar esa qoʻshma affiks qismlarining yangi birliklarga aylanish jarayonini oʻtkazgan (*boribon – bor+ibon – borib+on: -on* morfemasi goʻyo morfologik qayta boʻlingan); analitik shakllarda ikki birlikning ikkinchisi mustaqil holatda analitik shakl sifatida qoʻllanmaydi, ammo mustaqil koʻrinishdagi shakl bilan ifodalanadi: *yiqila yozdi* birikmasidagi *-a yoz-* formanti ham mustaqil sintagmatik qoʻllanish qobiliyatiga ega emas. Agarda ikkinchi qism mustaqil holatda qoʻllansa, analitik shakl tarkibidagi mavqeyi bilan emas, asl mazmun mavqeyi bilan ishlatiladi.

Analitik shakllar maʼlum bir model asosida yaratiladi: ravishdosh+koʻmakchi feʼl, sifatdosh+koʻmakchi feʼl kabi. Analitik shakllarda tashkil etuvchi qismlardan ikkinchi qism maʼnosi dolzarb (aktual) boʻlib, birinchi qism oʻz maʼno qiymatini yoʻqotgan boʻlsa-da, asos va koʻmakchi morfemani biriktirish, tutashtirishdek funksional qiymatini saqlab qolgan: *-a qol-*: kela qol; *-a tur*: koʻra tur; *-(i)b chiq*: oʻqib chiq qoʻshilmalarida ravishdoshning *-a, -(i)b* affikslari analitik shaklda asosiy semantik qiymatini yoʻqotish darajasiga yetgan. Buni yuqoridagi va quyidagi misollarda ham kuzatishimiz mumkin. Ushbu tip shakllarni modellashtirish, birinchi navbatda, ular tarkibidagi tashkil etuvchi qismlarni vazifa-maʼno qiymati, soʻng esa ularning tashqi tomoni – fonetik-fonologik, morfonologik belgilarini umumlashtirish, invariant birliklarni aniqlash asosida amalga oshiriladi. Shu sababdan, model tushunchasini til strukturasi nazariyasi, tor maʼnoda til amal qilishining mexanizmi yoki tuzilma (struktura)ning semiotik oʻxshashi (analogi) kabi tavsiflash mumkin¹.

Deskriptiv tilshunoslikda binarlik prinsipi asosida soʻz va morfemalarning alohidalik (diskretlik) xususiyati belgilandi.

¹ Засорина Л.Н. Введение в структурную лингвистику. –М., 1974. –С. 257.

Struktur tilshunoslik asoschilaridan biri L. Blumfeldning qayd etishicha, murakkab morfologik qurilishga ega bo'lgan tillarda konstruksiyalar ierarxiasini kuzatish mumkin: kompleks tuzilgan – ko'p morfemali so'zda uning tarkibiy qismlari, affikslar, modifikatorlar muayyan tartibda qo'shiladi, ko'p qavatli qurilmalarning qismlarga bo'linishi oddiy, binar tamoyil asosida borishi kerak. Bu binarlik ma'lum til va modellar doirasida aniq bir model ko'rinishini aks ettirishi zarur¹. Shu jihatdan morfologik shakllar orasida analitik shakllar modeli ancha faol va bu mavjud model asosida ish ko'radi.

Struktur tilshunoslikning boshqa bir yirik vakili Y. Naydaning yozishicha, “bevosita tashkil etuvchi qismlarning qatlamlanishi tartibini belgilashda til tizimidagi asosiy modellarni doimo e'tiborda tutish lozim”². Binar tuzilmalar paradigmatic qatorlar – invariant birliklarni aniqlab bersa, bu tuzilmalar tarkibidagi elementlarning nutqiy voqelanish – sintagmatik joylashuvi asosiy qism va yo'ldosh qism, markaziy va marginal pozitsiyalarning zidligi (Y.Kurilovich), doimiy qism hamda o'zgaruvchi qism kabi belgilanishi mumkin³.

Til tizimining turli sathlarida doimiy tarzda yuz beruvchi funksional-semantik siljishlar, fonomorfologik o'zgarishlar morfemalararo chegaraning o'zgarishi, qayta belgilanishiga olib keladi. Natijada nomutanosiblik yangi morfemalar, yangi til birliklarining hosil bo'lishiga imkon yaratadi. Bu o'rinda morfemalar tizimida amal qiluvchi funksional-semantik chegaralarni to'g'ri belgilash katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Fe'llardagi analitik shakllar ana shunday chegaraga ega bo'lib, ayrim birliklarni shakllanishi ancha qadimiyroqdir: *-gudek qil-* analitik shakli.

***-gudek qil-* shakli.** *O'lgudek qildi, qaytgudek qildi, tayyorlagudek qildi* sintagmalarida ishtirok etayotgan bu analitik shaklning birinchi qismi nisbatan arxaikdir. Tilning mazmun tomonida yuz berayotgan o'zgarishlar morfemalararo chegaralarning ham qayta belgilanishiga olib keladi. Eng muhim xususiyatlardan biri shundaki, ularning ma'no-vazifasini, qaysi

¹ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М., 1973. –С. 200.

² Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М., 1973. –С. 200.

³ Общее языкознание. Методы лингвистических исследований. –М., 1973. –С. 207.

kategoriyaga taalluqli ekanligini aniqlashda, haqiqatan ham qiyinchilik tug‘iladi. Chunki hozirgi o‘zbek tilidagi *-guday*, *-gudek* (arziguday bahona, maqtaguday ko‘rk, o‘lguday qo‘pol, yeb qo‘ygudek tikilmok, borguday bo‘lmoq) qo‘shimchasi sifat, ravish, ravishdoshga xos belgilarga ega bo‘lib, tadqiqotchilar uni ravish yasovchi (A.M.Borovkov, Z.M.Ma‘rufov) deb baholaydilar. A.Hojiyevning ko‘rsatishicha, *-gudek* shaklida ravishdoshlarga xos belgi kuchliroq bo‘lsa ham, uni “umuman belgi bildirishga xoslangan” shakl deyish mumkin¹. Bizningcha, *-gudek* shaklini ravish yasovchi affiks deb qarash o‘rinli bo‘ladi.

-gudek/-guday shakllari kelasi-zamon sifatdosh shakli *-gu* hamda o‘xshatish-qiyoslash ma‘nosini bildiruvchi *-tek//-dek*, *-day* shakllarining yaxlitlanishidan hosil bo‘lgan;² *-gu* shakli faol qo‘llangan davrda bu shakllarning birikuvi nisbatan erkin bo‘lib, *-dek*, *-day* qo‘shimchalari predikativ mavqeda kelasi zamon sifatdoshi ma‘nosidagi taxmin-o‘xshatish, chamalash-qiyoslash jilolarini kuchaytiruvchi fakultativ birlik vazifasini bajargan; *-gu* qo‘shimchasi ma‘no-vazifasidagi cheklanganlik XV asrdayoq sezilarli tus oladi³. Shuning uchun ham *-gudek* birikmasi yaxlit bir butunlikka aylanib, eski o‘zbek tilining muntazam shakllari qatoridan o‘rin oladi. Bu shaklning xususiyatlariga Alisher Navoiy ham maxsus e‘tibor berib, shunday yozadi: “Yana bir nav’ iborat va adolari borkim, birovdin bir ishni gumon eltmak bila ul ishni ul kishiga nisbatguna berurlar, yo‘qqi tahqiq yuzidin, balki mazanna va gumon haysiyatidin, ammo munda diqqat ko‘pdur. Andoqki, *borgudek* va *yorg‘udek* va *kelgudek* va *bilgudek* va *aytkudek* va *qaytgudek* va *urgudek* va bu forsiyda bo‘lmas”⁴.

Mirza Mehdixon *-gudek* shaklli yasalmalar *salurdek*, *qo‘zg‘alurdek* kabi qurilmalarga ma‘nodosh ekanligini qayd etadi⁵. Lekin *-ur* qo‘shimchasining keyingi davrlarda ham faol qo‘llanilganligi *-ur+dek* birikmasining yaxlit qo‘shimchaga aylanishiga imkon bermagan bo‘lishi mumkin. Bizningcha, *-gudek/-guday* shakllari ko‘p ma‘noli affiks hisoblanib, *-gu* shakli *-dek/-day* sifat yasovchi shakl bilan birikib ketgan. Bugungi kunda *-gudek/-*

¹ Ўзбек тили грамматикаси. I жилд. –Тошкент, 1975. –Б. 524.

² Кононов А.Н. О природе тюркской агглютинации // Вопросы языкознания. –М., 1976. – № 4. –С. 13-14.

³ Абдурахмонов Ф., Шукуров Ш. Ўзбек тилининг тарихий грамматикаси. –Тошкент, 1973. –Б. 120.

⁴ Навоий А. Асарлар. Муҳокаматул-луғатайн. 14-жилд. –Тошкент, 1967. –Б. 117.

⁵ Щербак А.М. Грамматика староузбекского языка. –М. –Л., 1963. –С. 112.

guday affiksi ko'proq hollarda sifatdosh bo'lib keladi va shu bilan bir qatorda ko'p ma'noliligini ham saqlab qolgan. Demak, *-gudek* shakli kelib chiqishiga ko'ra ikki qismdan iborat bo'lib, nomutanosiblikni yuzaga keltirgan (2:1 nisbatda).

Ikkinchi qismi *qilmoq* fe'lidan hosil bo'lgan bo'lib o'z ma'nosini yo'qotish evaziga ko'makchi fe'l maqomini olgan. *Qilmoq* fe'li ham 1:0 qiymatdagi nomutanosiblikni yuzaga chiqarib, kengaygan shaklning bir qismi sifatida o'rinlashadi. Natijada *-gudek qil-* analitik shakli 3 ta morfemaning birikuvidan hosil bo'lgan shakl sifatida 3:1 qiymatdagi nomutanosiblikni hosil qiladi.

Umuman olganda, turkiy tillarda grammatik ma'nolar uch asosiy usul bilan ifodalanadi: a) mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlar bilan birikuvini orqali; b) analitik shakllar bilan; v) sintetik shakllar orqali. Har uchala usul aniq mezonlar vositasida aniqlanadi va o'zaro qat'iy farqli belgilarga ega¹. O'zbek tilida birinchi usul juda keng tarqalgan, ikkinchi usul esa yetmishga yaqin, uchinchi usul ikki yuzga yaqin.

-(a)r edi shakli. *-(a)r edi* analitik shakli ikki qismdan: *-(a)r* – fe'lning sifatdosh shakli (oqar daryo, aytar gap) hamda *edi* – to'liqsiz fe'lining birikuvidan tashkil topgan bo'lib, mustaqil fe'l asoslariga qo'shiladi. Shakllanish nuqtayi nazaridan sifatdosh shakli otlarga bog'lanib, sifatlashish ehtimoli yuqoridir. Og'zaki nutqda – so'zlashuv va badiiy uslubda o'ta faol morfologik shakl hisoblanadi. *-(a)r* ning diaxron jihatdan *-(a)r*, *-(u)r* shakllari ham qo'llanilgan bo'lib, *-(a)r* ko'rinishi deyarli farqlanmaydi. *-(u)r* shakli esa singormanizm natijasida mavjud bo'lgan va bugungi kunda deyarli ishlatilmaydi (bugungi kunda badiiy adabiyotda, davr muhitini ifodalashda, qofiya talabi bilan ishlatilishi kuzatiladi). *-(a)r bo'l* (aytar bo'ldi), *-(a)r edi* (aytar edi), *-(a)r ekan* (aytar ekan), *-(a)r emish* (aytar emish) singari analitik shakllarning birinchi qismi bo'lib keladi va o'zining asosga birikish pozitsiyasini mustahkam egallaydi.

Edi shakli esa mustaqil fe'l shaklidan hosil bo'lgan bo'lib, bugungi kunda to'liqsiz fe'l maqomini olgan. Ayrim manbalarda tarixiy nuqtayi nazardan *ermoq* fe'lidan hosil bo'lgan, bugungi kunda to'liqsiz fe'llar nomi bilan ataladigan *edi*, *ekan*, *emish*

¹ Баскаков Н.А. Ко'rsatilgan asar. 1979. –Б. 19.

shakllari ham affiksoid holatiga kelib qolgan birlik sifatida qaraladi: “Uch affiksoid – *edi, ekan, emish* garchand asos (e-) va affiks (-*di, -kan, -mish*) qismlaridan tashkil topgani aniq sezilib tursa ham, bunday ma’noli qismlarga ajratilmaydi, yaxlitligicha affiksoid deyiladi”¹. *Edi, ekan, emish* birliklarini to’liqsiz fe’l – so’z turkumi sifatida qayd etish to’g’ri. Ammo bu birliklarni affiksoid deb qarash noto’g’ri bo’ladi. Shu sababli bunday birliklar o’z ma’nosidan ancha uzoqlashib ketgan bo’lsa-da, fe’llarda analitik shakllarning ikkinchi qismi bo’lib keladi: *-(i)b edi, -(i)b emish; -gan edi, -gan ekan, -gan emish; -sa edi, -sa ekan* kabi. “Tilning morfem tizimida o’zak va affiks morfemalaridan tashqari “so’z” shaklidagi birliklar ham mavjud. Ularni shartli ravishda yordamchi morfemalar deyiladi. Bunday morfemalar asosan affiks morfemalarning vazifadosh “eshdoshi” hisoblanadi.

Yordamchi morfemalar, yuqorida ham aytilganidek, tilning so’z yasalishi va shakl yasalishi tizimida affiks morfemalar bajargan vazifalarni bajaradi. Yordamchi morfemalar ham, affiks morfemalar kabi, ma’no va vazifasiga ko’ra dastlab ikki turga ajraladi: a) so’z yasovchi yordamchi morfemalar; b) shakl yasovchi yordamchi morfemalar”². Garchi olimlar *-(i)b edi, -gan emish, -sa ekan* kabi analitik shakllar tarkibidagi to’liqsiz fe’llarni yordamchi morfemalar deb yuritsa-da, analitik shakllarning o’zi alohida mustaqil morfema – morfologik shakllar sifatida hali to’liq qayd etilmagan.

Edi shakli *-(a)r edi, -(i)b edi, -gan edi, -gudek edi, -sa edi* singari analitik shakllarning ikkinchi qismi sifatida kuchli pozitsiyada keladi va analitik shaklning bir qismi hisoblanib, yaxlit holatda ma’no hamda vazifa ifodalashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, *-(a)r, -(u)r* shakllari dastlab ikki shaklda ifodalangan bo’lib, mazmunan bir semaga xizmat qilgan va 2:1 nisbatda nomutanosiblikni yuzaga keltirgan. *Edi* to’liqsiz fe’li ham shakllanish nuqtayi nazardan *ermoq* (e asos) fe’li va *-di* zamon shaklining agglyutinatsiyasidan hosil bo’lgan bo’lib, 2:2 nisbat shaklidan 2:1 nisbat shakli holatiga kelib, shakliy nomutanosiblikni yuzaga chiqargan. Demak, *-(a)r edi*

¹ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o’zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –B. 185.

² Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o’zbek adabiy tili. –Toshkent: Tamaddun, 2022. – B 55.

analitik shakli shakllanish nuqtayi nazardan 3 qismdan iborat bo'lib, 1 ma'noga xizmat qiluvchi yaxlit bir birlikka aylangan. Shu sababli ham ayni ko'rinishdagi shakl 2:1 nisbatda nomutanosiblikni yuzaga chiqaryapti. Umuman olganda, analitik shakllarda nomutanosiblik, asosan, taraqqiyot natijasida ro'y beradi. Sinxron jihatdan esa ikki shaklning bir umumiy shakl holatiga kelishi va bir mazmun uchun xoslanishi shaklga nisbatan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

